ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Korrupsiyaning oldini olishning asosi, korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo‘li – yosh avlodni korrupsiyaga qarshi ta’lim-tarbiyasini samarali tashkil etish, korrupsiyaga qarshi ta’limni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir
TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
S. Maxmudov	7	Korrupsiyaga qarshi kurash: pedagogikaning tadqıqot predmeti sifatida
Sh. Uchqurova	16	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning mustaqil ta’limni takomillashtirish jarayonida til malakalarining rivojlanishi
B. Ziyatova	22	Talabalarda innovatsion tavafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (Pedagogika ta’lim muassasalari talabalari misolida)
M. Badalova	27	Ta’lim klasteri va uning mohiyati
N. Qodirov	30	Individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish
D. Kamoljonova	34	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish
S. Azimova	38	Ota-onalarning pedagogik madaiyatini rivojlantirish – ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili (Oiladagi ta’lim-tarbiya muhitida)
TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI		
M. Umarova, R. Ziyayev	42	Organik kimyoda oksidlanish reaksiyalarini o‘rganish-II (Spirt, aldegid va ketonlar misolida)
M. Kuchkarov, M. Yusupov	46	Kimyoviy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etishning uslibiy imkoniyatlari
Sh. Raxmatullayeva	51	Boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshiriqlarining turlari va tavsifiy jihatlari
M. Alijonova	55	Bo‘lajak agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasining mavjud holati
R. Rasulova	59	O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda hikoya janriga murojaat
M. Tursunqulova	63	Didaktik o‘yin tushunchasi va uning tarkibi
ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		
A. Atamatov	67	O‘quv jarayonida interfaol platformalardan foydalanish
A. Raxmatullayeva	71	Umumta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda blum taksonomiyasini qo‘llash
M. Imomova	76	Biologiya ta’limiga va o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar
I. Kodirov	81	Muhandis energetik kadrlarni tayyorlasda “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” korxonasi – “muqobil energiya manbalari” kafedrasi darajasida dual ta’limni tashkil etish
G. Abilova, A. Yeshmuratova	88	Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali konchilik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish
TA’LIMDA MENEJMENT		

A. Kenjaboyev	94	Bo‘lajak ta’im menejerini kasbiy tayyorlashning deontologik tamoyillari
M. Movlyankulova	100	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kompetensiyalarini rivojlantirishda rahbarning o‘rni
		TA’LIMDA MARKETING
H. Amirqulov	104	O‘zbekiston respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish uslubiyati
		JISMONITY TARBIYA VA SPORT
N. Alimova	108	Gender yondoshuv asosida o‘quvchilarning jismoniy tarbiya faniga qiziqishini shakllantirishning pedagogik shartlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
F. Po‘lotov	112	Art texnologiyasi – maktabgacha yoshdagi bolalarining ijodiy rivojlanishini shakllantirish vositasi sifatida
H. Mizamova	115	Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini musiqiy ta’lim orqali rivojlantirish
M. Rizayeva	119	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni takomillashtirishda STEAM texnologiyasini qo‘llash
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
Sh. Mavlonov	122	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
S. Badriddinova	125	Chizmachilik mashg‘ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish (Finlandiya Respublikasi ta’lim tizimi tajribasi asosida)
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Д. Хусанов, М. Фарманова	130	О методической проблеме связи цикличности и дозированности при создании математического терминологического аппарата учащихся физико-математических школ
Н. Каллибекова	135	Социально-педагогические аспекты исследования и формирования билингвизма (на основе анализа билингвизма в современной лингвистике)
К. Жумаева	140	Межкультурная коммуникация в многоязычной среде: роль билингвизма и культурного кода

KORRUPSIYANING OLDINI OLISHNING ASOSI, KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ENG SAMARALI YO‘LI – YOSH AVLODNI KORRUPSIYAGA QARSHI TA’LIM-TARBIYASINI SAMARALI TASHKIL ETISH, KORRUPSIYAGA QARSHI TA’LIMNI YO‘LGA QO‘YISHDAN IBORATDIR

O‘zbekistonning rivojlanishini, uning huquqiy, demokratik va ijtimoiy davlat sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qator buzg‘unchi hodisalar mavjud. Korrupsiya ularning eng halokatlilaridan biridir. Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy, salbiy hodisa sifatida nafaqat davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi, balki dunyodagi barcha davlatlarining milliy muammosi hisoblanadi, chunki har qanday davlatda korrupsiyaning yuqori darajasi barcha qadriyatlar va an’analarni, axloq, huquqiy asoslar va ijtimoiy adolat tuyg‘ularining mohiyatini butunlay yo‘q qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston kelajagi uchun mustahkam poydevor bu – yosh avlodda korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartini yaratishdir. Ta’lim dunyoni o‘zgartirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan eng kuchli qurol ekanligini ta’kidlagan holda, ta’lim tizimi orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bu hodisaga qarshi turish qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, odamlarning o‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish mumkin. Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini kompleks, tizimli ishlab chiqish uchun nafaqat huquqshunoslik, balki boshqa fanlarning imkoniyatlaridan ham foydalanish zarur. Bu, xususan, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlik tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi madaniyat va ongni shakllantirish, korrupsiya ta’sirining oldini olish mexanizmlarini joriy etish, turli fan sohalariga xos uslub, usul va vositalardan foydalanish, korrupsion huquqbuzarliklarning o‘ziga xos ko‘rinishlarining mohiyatini, korrupsiya, korrupsion huquqbuzarliklarni sodir etilishining sabablari va shartlari, korrupsion harakatlarni sodir etishga moyillikni, motivatsiyani bartaraf etishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yo‘nalishidagi ta’lim faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, shu jumladan, uzluksiz ta’lim tizimidagi ta’lim standartlarini ushbu yo‘nalishlarni inobatga olgan qayta ishlash va korrupsiyaga qarshi kurashish ta’limini uslubiy ta’minotini yaratish zarurdir. Korrupsiyaga qarshi profilaktika ishlarining eng muhim elementi, korrupsiya ko‘rinishlariga qarshi kurash asosi, odamlarning korrupsiyaga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan yagona yo‘l – korrupsiyaga qarshi pedagogik texnologiyalardan foydalanishdir.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim – bu davlat ta’lim standartlari doirasida ishlab chiqilgan va ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta’lim dasturlari asosida inson, jamiyat, davlat manfaatlari ko‘zlangan korrupsiyaga qarshi ta’lim jarayonidir. Korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirish, o‘quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish muammolarini hal qilish.

Zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodda korrupsiyani zamonaviy huquqiy davlat qadriyatlariga mutlaqo mos kelmaydigan hodisa sifatida rad etish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Xalqimizning bilim

darajasi va huquqiy madaniyati – nafaqat mamlakat nufuzi, balki milliy xavfsizlik masalasidir.

Shu munosabat bilan maktabgacha va maktab ta'limi jamiyatda korrupsiyaga qarshi muhitni yaratish, shaxsning korrupsiyaga qarshi pozitsiyasini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shishi shartligini hech kim inkor etmaydi.

Korrupsiyaga qarshi ta'limning asosiy maqsadi – korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni, shaxsning mustahkam axloqiy fazilatlarining, fuqarolik pozitsiyasining va korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarning barqaror elementlarini shakllantirishdir.

Korrupsiyaga qarshi dunyoqarash – korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga salbiy munosabat, o'zini korrupsion sxemalar tizimidan tashqarida idrok etish.

Korrupsiyaga qarshi ta'limdan kutilayotgan asosiy natija – korrupsion ko'rinishlariga toqat qilmaydigan, korupsiyaning davlat xavfsizligiga tahdid tug'dirishi haqida bilimga ega bo'lgan, korrupsiyani qonuniy yo'l bilan yo'q qilishni xohlaydigan va unga qodir, yetuk shaxsning shakllanganligi.

Ta'limning har bir bosqichida korrupsiyaga qarshi bilim, malaka va ko'nikmalar, kompetensiyalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari, pedagogik texnologiyalarning o'ziga xosligi bilan farq qilishi kerak. Har bir bosqichda o'quv mashg'ulotlari oddiydan murakkabga qarab, o'quv materiallarining shunga asoslanib tanlanishi lozim. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida korrupsiyaga qarshi ta'lim va tarbiyani shaxsning ma'naviy-axloqiy, huquqiy madaniyat, fuqarolik asoslarini shakllantirishga qaratilgan dasturlar orqali amalga oshirish muhim. Bunda o'quv mashg'ulotlari, musobaqalar va o'yinlar, tanlov va suhbatlar, muhokamalar va trening shakllarini , ta'lim oluvchilarning yoshiga qarab tashkillashtirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashni uzluksiz ta'lim jarayonidan uzib qo'ymaslik kerak, ideal variant – uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim oluvchilari uchun o'quv jarayonini korrupsiyaga qarshi ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo'lidir.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilar o'tgan o'n yilliklardagi tengdoshlariga qaraganda o'zgacha ta'lim maydonida yashamoqdalar. Zamonaviy bolalar yashayotgan davr ularning ota-onalari va o'qituvchilari shakllangan ta'lim-tarbiya tizimidan juda katta farq qiladi. Bugungi bolalar avlodi axborotga muhtoj emas! U hamma joyda – darsda, tanaffusda, uyda mavjud. Ular o'zlariga kerak bo'lgan hamma ma'lumotni, ayniqsa – kerak bo'lmagan ma'lumotlarni, har tomondan – turli xil gadjetlardan kuniga 24 soat, haftada yetti kun olishmoqda. Zamonaviy bolalarga ma'lumotlar, yangiliklar lentalari, son-sanoqsiz chatlar, kontekstli reklama va boshqa axborot oqimi formatlarida yog'dirilmoqda, ularda olingan, singdirilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, o'ylash, solishtirish yoki shunchaki tushunish uchun zarur bo'lgan ***VAQT*** qoldirilmayapti *(mana shu vaqtni izlash, topish, samarali foydalanish zamonaviy, kompetent pedagogning asosiy vazifasi)*.

Zamonaviy ta'lim oluvchilar butunlay o'zgacha, yaqinlar bilan muloqot qilishga, birgalikda, hamfikrlikda o'rtoqlashishga muhtoj. Bunda biz ta'lim muassasalarida ko'plab o'tkazilayotgan tadbirlarning samarasini nazarda tutmayapmiz *(ushbu tadbirlarda faqat ta'lim beruvchilar, tadbir mehmonlari asosiy faoliyatni olib borishadi)*. Yaqinlar bilan muloqot qilish, birgalikda, hamfikrlikda faoliyat yuritish, o'rtoqlashish bu butunlay o'zgacha, kengroq ma'noni anglatadi.

Shaxsni shakllantirish – murakkab va juda uzoq jarayon bo'lib, uning natijasi har doim ham tez bo'lavermaydi. Bu pedagoglik kasbining qanchalik qiyinligini ko'rsatadi.

Pedagog o‘ziga yuklangan mehnat funksiyalarini bajargandan so‘ng darhol o‘z ishining natijasini ko‘ra olmaydi. Ammo, ma’lum vaqtdan keyin kuzatilidagan ijobiy natija qanchalik qimmat ekanligini bilamiz. Bu ishlarning qanchalik mas’uliyatli ekanligini, ma’lum vaqtdan keyin salbiy natijani kuzatish, ushbu salbiy natijani deyarli tuzatish mumkin emasligini ham anglashimiz zarur.

Ta’lim tizimi oldida zamonaviy, bugungi kun va kelajakda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga moslashuvchan shaxslarni shakllantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy shaxs nafaqat tayanch kompetensiyalar va tashabbuskorlikka ega shuning bilan birgalikda, mas’uliyat, javobgarlik hissi va yuksak ma’naviy, insoniy fazilatlarga, ekstremistik va korrupsion kuchlarning buzg‘unchi ta’siriga qarshi turish qobiliyat va fazilatlarga ega bo‘lishi talab etilmoqda.

Ilm-fanda shaxsning korrupsiyaga qarshi fazilatlarini aniqlash va tavsiflashning turli formatlari mavjud. Ular ikki turga ajratilgan bo‘lib, ulardan biri individual xususiyatlarni bildiradi va tavsiflaydi, ikkinchisi – korrupsiyaga qarshi fazilatlarning umumiy yig‘indisi bo‘lib, integrativ shaxsiy fazilatlarni ta’lim orqali shakllanishini belgilaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning pedagogik jihati, korrupsiyaga qarshi kurash ta’limining maqsadlarini aniqlashdan iborat, bunda, qaysi shaxsiy fazilatlar korrupsiyaga qarshi shaxs qiyofasiga mos kelishini aniq tushunishni aks ettirishi lozim. Kontent tahlil asosida korrupsiyaga qarshi shaxs xususiyatlarni tasniflandi, ularning birlamchilari, adolatliylik, fidoyilik, xolislik, kamtarlik va b. Intelektual parametrlar sifatida bilimliylik va huquqiy savodxonlik nazarda tutilgan.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim tizimi barcha ilm-fan yo‘nalishlari hamkorligida aniq harakatlar strategiyasini va tobora murakkablashib borayotgan dunyoda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan zamonaviy shaxsning modeli, sifat, fazilatlarini shakllantirishninig pedagogik texnologiyalar majmuini ishlab chiqish zarurdir.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim jamiyat a’zolarining korrupsiyaga qarshi murosasizlikga birlashtirishning asosiy omili bo‘lib, jamiyatning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurash muvaffaqiyatini belgilaydi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi ta’lim ushbu yo‘nalishda huquqiy jarayonlarni tartibga solishga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin; jamiyatda huquqiy tartibni saqlash va mustahkamlashda turli ijtimoiy guruhlarning birlashishiga ko‘maklashish; fuqarolarning qonunni hurmat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bu esa haqiqatda huquq tizimining samarali faoliyat yuritishiga ko‘maklashishi demakdir. Ta’lim oluvchilarda korrupsiyaga qarshi kompetensiyalarni shakllantirilishi ularning fuqarolik faolligini oshiradi va ularning o‘z huquqlari, xavfsizliklari va huquqiy himoyasini amalga oshirishga yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurash kompetensiyalarining shakllanganligi har bir insonning huquqiy savodxonligini oshishiga xizmat qiladi, bu pirovardida konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligiga, qonun ustuvorligini mustahkamlashga, qonunchilikning ochiqligiga, demokratik huquqiy institutlarga hurmat va qonunlarga qat’iy rioya qilinishiga olib keladi.

Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimida pedagogika fanining rolini uning asosiy vazifasidan kelib chiqib oshirish, ya’ni aholini, ayniqsa yosh avlodni korrupsiyaga oid bilim, qadriyatlar tizimi, qarashlar, e’tiqodlar, manfaatlar, jamiyatning faoliyat yuritishi va o‘z rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish. Korrupsiya va u bilan bog‘liq hodisalar jamiyatning faoliyatiga va shaxsning o‘z rivojlanishiga bevosita tahdid solayotganligi sababli, bizning fikrimizcha, pedagogika fani yutuqlari va imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish zarur.

Sarvar MAXMUDOV,
pedagogika fanlari doktori

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: PEDAGOGIKANING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada korrupsiyaning tabiati va sabablari, korrupsiya muammosini tadqiq qilishda fanlararo aloqalar, kompleks ilmiy yondashuvlar, korrupsiya ko'rinishlariga nisbatan murosasizlikni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartlarini ishlab chiqishning dolzarbligi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsiyaning oldini olishning pedagogik konsepsiyalarini, omillarini ko'rib chiqilgan, korrupsiyaga qarshi kurashishning pedagogik texnologiyalari, ulardan korrupsiyaning oldini olishda foydalanish bo'yicha tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, takliflarni ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan, korrupsiyaga qarshi ta'limdan kutilayotgan natijalar, korrupsiyaga qarshi ta'lim integratsiya jarayonlari, tamoyillari, korrupsiyaga qarshi ta'limning vazifalari korrupsiyaga qarshi ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari, korrupsiyaga qarshi shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar, korrupsiyaga qarshi ta'lim funksiyalari ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. Korrupsiya, korrupsiya muammosi, fanlararo aloqalar, kompleks ilmiy yondashuvlar, korrupsiya ko'rinishlari, murosasizlik, korrupsiyaga qarshi kurash, standart, pedagogik konsepsiya, pedagogik texnologiyalar, korrupsiyaga qarshi ta'lim, ta'lim integratsiyasi, kompetensiya, korrupsiyaga qarshi ta'lim funksiyari.

В статье подробно анализируются природа и причины коррупции, междисциплинарные связи, комплексные научные подходы в исследовании проблемы коррупции, развитие нетерпимости к проявлениям коррупции, приобретение знаний, навыков и умений, необходимых для борьбы с коррупцией, актуальность разработки стандартов антикоррупционного поведения. Также были рассмотрены педагогические концепции и факторы предотвращения коррупции, разработаны педагогические технологии противодействия коррупции, организационно-педагогические условия и предложения по их использованию в профилактике коррупции. Автором разработаны ожидаемые результаты антикоррупционного образования, процессы интеграции антикоррупционного образования, принципы, задачи антикоррупционного образования, основные компоненты системы антикоррупционного образования, антикоррупционные компетенции, функции антикоррупционного образования.

Ключевые слова. Коррупция, проблема коррупции, междисциплинарные связи, комплексные научные подходы, проявления коррупции, нетерпимость, борьба с коррупцией, стандарт, педагогическая концепция, педагогические технологии, антикоррупционное образование, образовательная интеграция, компетентность, функции антикоррупционного образования.

The article analyzes in detail the nature and causes of corruption, interdisciplinary connections, comprehensive scientific approaches to the study of the problem of corruption, the development of intolerance towards manifestations of corruption, the acquisition of knowledge, skills and abilities necessary to combat corruption, the relevance of developing standards of anti-corruption behavior. Pedagogical concepts and factors for preventing corruption were also reviewed, pedagogical technologies for combating corruption, organizational and pedagogical conditions and proposals for their use in preventing corruption were developed. The author has developed the expected results of anti-corruption education, processes of integration of anti-corruption education, principles, tasks of anti-corruption education, main components of the anti-corruption education system, anti-corruption competencies, functions of anti-corruption education.

Key words. Corruption, the problem of corruption, interdisciplinary connections, integrated scientific approaches, manifestations of corruption, intolerance, the fight against corruption, standard, pedagogical concept, pedagogical technologies, anti-corruption education, educational integration, competence, functions of anti-corruption education.

O‘zbekistonning rivojlanishini, uning huquqiy, demokratik va ijtimoiy davlat sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qator buzg‘unchi hodisalar mavjud. Korrupsiya ularning eng halokatlilaridan biridir. Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy salbiy hodisa sifatida nafaqat davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi, balki dunyodagi barcha davlatlarning milliy muammosi hisoblanadi, chunki har qanday davlatda korrupsiyaning yuqori darajasi barcha qadriyatlar va an’analarni, axloq, huquqiy asoslar va ijtimoiy adolat tuyg‘ularining mohiyatini butunlay yo‘q qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni, huquqiy-me’yoriy hujjatlarini, ilmiy ishlarni, huquqni muhofaza qilish va jamoat amaliyoti natijalarini o‘rganish asnosida shunday xulosaga kelindiki, korrupsiyaning tabiati va sabablarini tushunishda, uning oldini olish texnologiyalarini ishlab chiqishda fanlararo aloqalar natijalaridan, ko‘p tarmoqli ilmiy yondashuvlardan foydalanish o‘z samarasinini beradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, korrupsion munosabatlarni erta aniqlash, uning oldini olish imkoniyatlarini ochib beradigan ilmiy ishlar hali yetarli emas.

Bugungi kunda O‘zbekiston kelajagi uchun mustahkam poydevor bu – yosh avlodda korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartini yaratishdir.

Tadqiqotimizning maqsadi – korrupsiyaning oldini olishning pedagogik konsepsiyalarini, omillarini ko‘rib chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashishning pedagogik texnologiyalarini, ulardan korrupsiyani oldini olishda foydalanish bo‘yicha tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni, takliflarni ishlab chiqishdir.

Ta’lim dunyoni o‘zgartirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan eng kuchli qurol ekanligini ta’kidlagan holda, ta’lim tizimi orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bu hodisaga qarshi turish qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, odamlarning o‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini kompleks, tizimli ishlab chiqish uchun nafaqat huquqshunoslik, balki boshqa fanlar imkoniyatlaridan ham foydalanish zarur. Bu, xususan, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlik tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi madaniyat va ongni shakllantirish, korrupsiya ta’sirining oldini olish mexanizmlarini joriy etish, turli fan sohalariga xos uslub, usul va vositalardan foydalanish, korrupsion huquqbuzarliklarning o‘ziga xos ko‘rinishlarining mohiyatini, korrupsiya, korrupsion huquqbuzarliklarni sodir etilishining sabablari va shartlari, korrupsion harakatlarni sodir etishga moyillikni, motivatsiyani bartaraf etishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yo‘nalishidagi ta’lim faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, shu jumladan uzluksiz ta’lim tizimidagi ta’lim standartlarini ushbu yo‘nalishlarni inobatga olgan qayta ishlash va korrupsiyaga qarshi kurashish ta’limining uslubiy ta’minotini yaratish zarurdir.

Biz ko‘rib chiqayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga pedagogik yondashuvning eng asosiy tarkibiy qismi - pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Korrupsiyaga qarshi profilaktika ishlarining eng muhim elementi, korrupsiya ko‘rinishlariga qarshi kurash asosi, odamlarning korrupsiyaga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan yagona yo‘l – korrupsiyaga qarshi pedagogik texnologi-

yalardan foydalanishdir.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim – bu davlat ta'lim standartlari doirasida ishlab chiqilgan va ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari asosida inson, jamiyat, davlat manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaga qarshi ta'lim jarayonidir. Korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish muammolarini hal qilish.

Zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodda korrupsiyani zamonaviy huquqiy davlat qadriyatlariga mutlaqo mos kelmaydigan hodisa sifatida rad etish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Xalqimizning bilim darajasi va huquqiy madaniyati – nafaqat mamlakat nufuzi, balki milliy xavfsizlik masalasidir.

Shu munosabat bilan maktabgacha va maktab ta'limi jamiyatda korrupsiyaga qarshi muhitni yaratish, shaxsning korrupsiyaga qarshi pozitsiyasini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shishi shartligini hech kim inkor etmaydi.

Korrupsiyaga qarshi ta'limning asosiy maqsadi – korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni, shaxsning mustahkam axloqiy fazilatlarini, fuqarolik pozitsiyasini va korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarning barqaror elementlarini shakllantirishdir.

Korrupsiyaga qarshi dunyoqarash – korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga salbiy munosabat, o'zini korrupsion sxemalar tizimidan tashqarida idrok etish.

Korrupsiyaga qarshi ta'limdan kutilayotgan asosiy natija – korrupsion ko'rinishlariga toqat qilmaydigan, korupsiyaning davlat xavfsizligiga tahdid tug'dirishi haqida bilimga ega bo'lgan, korrupsiyani qonuniy yo'l bilan yo'q qilishni xohlaydigan va unga qodir, yetuk shaxsning shakllanganligi.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim vertikal va gorizontal ravishda o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi lozim deb hisoblaymiz.

Vertikal integratsiya – o'quvchilarning yoshini hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi ta'lim mazmunining uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlash.

Gorizontal integratsiya – uzluksiz ta'limning har bir bosqichida korrupsiyaga qarshi ta'limni o'quv jarayoniga kiritish. Korrupsiyaga qarshi ta'lim faqat boshlang'ich sinflarda yoki faqat o'rta maktabda bo'lmasligi kerak. Ta'lim oluvchi, fuqaroni tarbiyalash butun hayot davridagi ta'lim jarayoni davomida uzluksiz davom etishi kerak.

Bu jarayonda, ta'limning har bir bosqichida korrupsiyaga qarshi bilim, malaka va ko'nikmalar, kompetensiyalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari, pedagogik texnologiyalarning o'ziga xosligi bilan farq qilishi kerak. Har bir bosqichda o'quv mashg'ulotlari oddiydan murakkabga qarab, o'quv materiallarining shunga asoslanib tanlanishi lozim.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida korrupsiyaga qarshi ta'lim va tarbiyani shaxsning ma'naviy-axloqiy, huquqiy madaniyat, fuqarolik asoslarini shakllantirishga qaratilgan dasturlar orqali amalga oshirish muhim. Bunda o'quv mashg'ulotlari, musobaqalar va o'yinlar, tanlov va suhbatlar, muhokamalarni va trening shakllarini, ta'lim oluvchilarning yoshiga qarab tashkillashtirish lozim.

Bunda quyidagi tamoyillarga asoslanish muhimdir.

Tizimlilik prinsipi. Korrupsiyaga qarshi kurash ta'limini vertikal va gorizontal integratsiyalashgan kompleks tizim sifatida amalga oshirish.

Bog'lig'lik, majmuaviylik prinsipi. Korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirishga, shuningdek, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartlarini va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi

o‘quv materiallarini ishlab chiqishi va bolalar bilan to‘g‘ri ishlash uchun zarurdir, chunki boshlang‘ich sinflarda va umumiy o‘rta maktablari ta’lim oluvchilarida korrupsiyaga qarshi kurash mohiyatini idrok etish darajasi farq qiladi va ushbu muammo yuzasidan tayyorlangan o‘quv materiallarini yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tayyorlash zarur, aks holda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rish ma’nosiz, balki xavfli ham bo‘lishi mumkin, axir, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotimizning ba’zi haqiqatlariga tayyor emaslar va bu ularni asabiy taranglikka olib kelishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashni uzluksiz ta’lim jarayonidan uzib qo‘ymaslik kerak, ideal variant – uzluksiz ta’lim tizimi ta’lim oluvchilari uchun o‘quv jarayonini korrupsiyaga qarshi ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo‘lidir.

Korrupsiyaga qarshi ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

– korrupsiyaning konseptual apparati bilan tanishitrish: korrupsiyaning mohiyati, obyektiv va subyektiv sabablari, oqibatlari;

– korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni rag‘batlantirish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish imkoniyatlari.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– pedagoglarning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha bilim, malakalarining mavjudligi;

– ta’lim muassasasida jinoiy harakat sifatida korrupsiya hodisasining mohiyatini muntazam, tizimli, xolisona yoritish;

– ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar o‘zaro hamkorligi asosida korrupsion muammolarini hal qilish;

– ta’lim oluvchilarda korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirish bo‘yicha pedagogik faoliyat.

Bugungi kunda ta’lim oluvchilar o‘tgan o‘n yilliklardagi tengdoshlariga qaraganda o‘zgacha ta’lim maydonida yashamoqdalar. Zamonaviy bolalar yashayotgan davr ularning ota-onalari va o‘qituvchilari shakllangan ta’lim-tarbiya tizimidan juda katta farq qiladi. Bugungi bolalar avlodi axborotga muhtoj emas! U hamma joyda – darsda, tanaffusda, uyda mavjud. Ular o‘zlariga kerak bo‘lgan hamma ma’lumotni, ayniqsa – kerak bo‘lmagan ma’lumotlarni, har tomondan – turli xil gadjetlardan kuniga 24 soat, haftada yetti kun olishmoqda. Zamonaviy bolalarga ma’lumotlar, yangiliklar lentalari, son-sanoqsiz chatlar, kontekstli reklama va boshqa axborot oqimi formatlarida yog‘dirilmoqda, ularda olingan, singdirilayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘ylash, solishtirish yoki shunchaki tushunish uchun zarur bo‘lgan VAQT qoldirilmayapti (mana shu vaqtni izlash, topish, samarali foydalanish zamonaviy, kompetent pedagogning asosiy vazifasi).

Zamonaviy ta’lim oluvchilar butunlay o‘zgacha, yaqinlar bilan muloqot qilishga, birgalikda, hamfikrlikda o‘rtoqlashishga muhtoj. Bunda biz ta’lim muassasalarida ko‘plab o‘tkazilayotgan tadbirlarning samarasini nazarda tutmayapmiz (ushbu tadbirlarda faqat ta’lim beruvchilar, tadbir mehmonlari asosiy faoliyatni olib borishadi). Yaqinlar bilan muloqot qilish, birgalikda, hamfikrlikda faoliyat yuritish, o‘rtoqlashish bu butunlay o‘zgacha, kengroq ma’noni anglatadi.

Biz taklif qilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga pedagogik yondashuvda ta’lim oluvchilarda ushbu yo‘nalishda mutlaqo zarur fazilatlar shakllantiriladi – mustaqillik, ijodkorlik, maqsadlarga erishish. Ta’lim beruvchilar, tadbir ishtirokchilari bevosita, bilvosita ta’lim oluvchilar fikr va mulohazalarini to‘g‘ri yo‘naltirib turadilar. Ushbu tadbirlarda ta’lim

beruvchilar faoliyati (ma’ruza) emas balki, ta’lim oluvchilarning faoliyati (fikr bildirish) asosiy bo‘lishi zarur.

Ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiyaviy ishlarida shaxsning korrupsiyaga qarshi pozitsiyasini shakllantirish uchun ma’ruzachilik, nazoratchilik, rahbarlik va h.k. formatlarida, shakllarida emas, balki ta’lim oluvchilarning bevosita ishtirok etishlari imkoniyatiga ega bo‘lgan amaliy mashg‘ulot, rolli o‘yinlar, treninglarga ustunlik berish kerak.

Shaxsni shakllantirish – murakkab va juda uzoq jarayon bo‘lib, uning natijasi har doim ham tez bo‘lavermaydi. Bu pedagoglik kasbining qanchalik qiyinligini ko‘rsatadi. Pedagog o‘ziga yuklangan mehnat funksiyalarini bajargandan so‘ng darhol o‘z ishining natijasini ko‘ra olmaydi. Ammo, ma’lum vaqtdan keyin kuzatilidagan ijobiy natija qanchalik qimmat ekanligini bilamiz. Bu ishlarning qanchalik mas’uliyatli ekanligini, ma’lum vaqtdan keyin salbiy natijani kuzatish, ushbu salbiy natijani deyarli tuzatish mumkin emasligi ham anglashimiz zarur.

Ta’lim tizimi oldida zamonaviy, bugungi kun va kelajakda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga moslashuvchan shaxslarni shakllantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy shaxs nafaqat tayanch kompetensiyalar va tashabbuskorlikga ega shuning bilan birgalikda, mas’uliyat, javobgarlik hissi va yuksak ma’naviy, insoniy fazilatlarga, ekstremistik va korrupsion kuchlarning buzg‘unchi ta’siriga qarshi turish qobiliyatiga, fazililatlarga ega bo‘lishi talab etilmoqda.

Ilm-fanda shaxsning korrupsiyaga qarshi fazilatlarini aniqlash va tavsiflashning turli formatlari mavjud. Ular ikki turga ajratilgan bo‘lib, ulardan biri individual xususiyatlarni bildiradi va tavsiflaydi, ikkinchisi – korrupsiyaga qarshi fazilatlarning umumiy yig‘indisi bo‘lib, integrativ shaxsiy fazilatlarni ta’lim orqali shakllanishini belgilaydi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim tizimi barcha ilm-fan yo‘nalishlari hamkorligida aniq harakatlar strategiyasini va tobora murakkablashib borayotgan dunyoda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan zamonaviy shaxsning modeli, sifat, fazilatlarini shakllantirishning pedagogik texnologiyalar majmuini ishlab chiqish zarurdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashning pedagogik jihati, korrupsiyaga qarshi kurash ta’limining maqsadlarini aniqlashdan iborat, bunda, qaysi shaxsiy fazilatlar korrupsiyaga qarshi shaxs qiyofasiga mos kelishini aniq tushunishni aks ettirishi lozim. Kontent tahlil asosida korrupsiyaga qarshi shaxs xususiyatlarini tasniflandi, ularning birlamchilari, adolatliylik, fidoyilik, xolislik, kamtarlik va b. intelektual parametrlar sifatida bilimliylik va huquqiy savodxonlik nazarda tutilgan.

Pedagogika va psixologiyada korrupsiyaga qarshi xususiyatlar, sifatlar va fazilatlar yaxlit shaxs modeli orqali ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi ta’sirning maqsadlari sifatida “korrupsiyaga qarshi yo‘naltirilganlik”, “korrupsiyaga qarshi barqarorlik”, “korrupsiyaga qarshi pozitsiya” va b. ko‘riladi.

Korrupsiyaga qarshi shaxsni shakllantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– korrupsiyaning mohiyati, uning mazmuni, maqsadi, subyektlari, shakllari va turlari, amalga oshirish sohalari, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida umumiy tasavvur;

– ma’naviy-axloqiy, madaniy sifatlarni shakllantirish;

– huquqiy savodxonlik asoslarini shakllantirish;

– jamiyat a’zolarini korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarga qarshi turishlarini rag‘batlantirish;

– manfaatlar to‘qnashuvining barcha ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni shakllantirish.

Shu munosabat bilan quyidagilar talab etiladi:

– korrupsiyaga ongli munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga nisbatan ma’naviy “immunitet”ni shakllantirish va shu asosda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va uning oldini olish kompetensiyalarini rivojlantirish;

– fuqarolar uchun xulq-atvor modelini shakllantirish, unda korrupsiyaga nafrat, ma’naviy qarshilik, murosasizlikga ustivorlik berilishi;

– huquqiy qadriyatlarni inkor etish, qonun va tartib-qoidalarni hurmat qilmaslikdan iborat huquqiy nigilizmni yengish;

– uzluksiz ta’lim orqali huquqiy savodxonlikni to‘liq ta’minlash.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim muayyan ijtimoiy tizimning hayotiy faoliyatini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy xususiyati korrupsiyaning barcha axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik jihatlariga yaxlit, tizimli qarashni nazarda tutadi.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim jamiyat a’zolarining korrupsiyaga qarshi murosasizlikga birlashtirishning asosiy omili bo‘lib, jamiyatning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurash muvaffaqiyatini belgilaydi.

Korrupsiyaga qarshi kompetensiyaning shakllantirilishi jamiyat a’zolarida quyidagi sifatlar mavjud bo‘lishini nazarda tutadi:

– korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida tan olish qobiliyati;

– korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni, hodisalarni, axborotlarni tanqidiy va xolisona baholash qobiliyati;

– korrupsiyaga qarshi kurash nima ekanligini aniq tushunish, hayot davomida va mehnat faoliyati sohalarida korrupsiyani kamaytirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish qobiliyati.

Korrupsiyaga qarshi kompetensiya shuningdek, har bir inson quyidagilarni bilishi va bajara olishi zarurligi bildiradi:

– Qonunlarning kerakli qismlarini sharhlay olish va ularning amal qilish doirasini belgilay olishni;

– huquqiy bilimlarni hayotiy faoliyatda korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llay olish;

– chalkash huquqiy vaziyatlardan chiqish yo‘lini topish, ulardan o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanish.

Korrupsiyaga qarshi ta’lim quyidagi funksiyalarining amalga oshirilishini nazarda tutadi:

Kognitiv funksiya – bu shaxsning korrupsiya hodisalarini tushunishi bilan tavsiflanadi. Ushbu funksiyani amalga oshirish jarayonida jamiyatning turli tizimlarida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash jarayonlari o‘rganiladi va tushuntiriladi. Kognitiv funksiya faqat korrupsiyaga qarshi turli hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash yoki tushuntirish bilan cheklanmaydi, unda korrupsiya ko‘rinishlarining mohiyati, asosiy sabablarini, korrupsiyaga qarshi kurashdagi muammolarni hal etishga asoslangan chuqur jarayonlarni ochishga qaratilgan;

Modellashtirish funksiyasi – korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishlari, xatti-harakatlarining modelini shakllantirish asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu funksiyani amalga oshirish jarayonida huquqiy me’yorlarga mos keladigan shaxsning korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarining standarti yaratiladi;

Tartibga solish funksiyasi – korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarni qonuniy talablarga moslashtirish imkonini beradi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi ta’lim ushbu yo‘nalish-

da huquqiy jarayonlarni tartibga solishga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin; jamiyatda huquqiy tartibni saqlash va mustahkamlashda turli ijtimoiy guruhlarning birlashishiga ko‘maklashish; fuqarolarning qonunni hurmat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bu esa haqiqatda huquq tizimining samarali faoliyat yuritishiga ko‘maklashishi demakdir.

Ta’lim oluvchilarda korrupsiyaga qarshi kompetensiyalarning shakllantirilishi ularning fuqarolik faolligini oshiradi va ularning o‘z huquqlari, xavfsizliklari va huquqiy himoyalarini amalga oshirishga yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurash kompetensiyalarining shakllanganligi har bir insonning huquqiy savodxonligini oshishiga xizmat qiladi, bu pirovardida konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligiga, qonun ustuvorligini mustahkamlashga, qonunchilikning ochiqligiga, demokratik huquqiy institutlarga hurmat va qonunlarga qat’iy rioya qilinishiga olib keladi.

Binobarin, ma’naviy-axloqiy tarbiyada quyidagilarni ajratib ko‘rsatishni lozim topdik: birinchidan, vijdon va ijtimoiy adolat me’yorlari asosida o‘z harakatlari uchun shaxsning mas’uliyatini rivojlantirish; ikkinchidan, ta’lim oluvchilarda korrupsiyaga qarshi dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar majmuini tatbiq qilish; uchinchidan, ta’lim oluvchilar uchun ma’naviy-axloqiy tarbiya dasturini o‘z ichiga olgan tarbiyaviy faoliyatni tizimli yuritish; to‘rtinchidan, ta’lim oluvchilarning ijtimoiy, fuqarolik harakatlarida faol ishtirokni ta’minlash; to‘rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ko‘ngillilik harakatlarini tashkil etish va bunda ustoz-shogird an’analarini inobatga olish; beshinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarda korrupsiyani ijtimoiy yovuzlik sifatida qabul qilinishini ta’minlash.

Umuman olganda, nafaqat davlat iqtisodiyotiga, balki insoniyatga ham halokatli ta’sir ko‘rsatayotgan korrupsion holatlar evolyutsiyasi bizni yoshlar bilan faol ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy ishlar olib borish haqida jiddiy o‘ylashga majbur qiladi.

Korrupsiyani oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimida pedagogika fanining rolining uning asosiy vazifasidan kelib chiqib oshirish ya’ni, aholini, ayniqsa yosh avlodni korrupsiyaga oid bilim, qadriyatlar tizimi, qarashlar, e’tiqodlar, manfaatlar, jamiyatning faoliyat yuritishi va o‘z rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish. Korrupsiya va u bilan bog‘liq hodisalar jamiyatning faoliyatiga va shaxsning o‘z rivojlanishiga bevosita tahdid solayotganligi sababli, bizning fikrimizcha, pedagogika fani yutuqlari va imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish zarur.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda huquqshunoslik, kriminologiya fanlari bilan pedagogika fani bog‘liqligining yo‘qligi, bir-biridan uzilib qolganligi korrupsion holatlarning davom etayotganligini ko‘rsatmoqda. Vaholanki, profilaktika (yun. profilaktikos – saqlovchi, oldini oluvchi) pedagogikaning asosi, ajralmas qismidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda pedagogika fanining imkoniyatlaridan foydalanishni ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishning dolzarbligi shunda ko‘rinadiki, pedagogika har bir shaxsda shuning bilan birga jamiyatda ijobiy sifat va fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi (huquqshunoslik, kriminologiyadan farqli ravishda).

Quyida korrupsiyaning ilmiy yo‘nalishlar doirasida tadqiq qilinishi tahlilini ko‘rib chiqamiz. Bunda, huquqshunoslik, sotsiologiya, iqtisodiyot va siyosatshunoslik ilmiy yo‘nalishlari doirasida korrupsiya tadqiqot predmeti sifatida belgilanib, ushbu fanlarning konseptual apparati va metodologiyasi tizimida ko‘rib chiqiladi.

Ilm-fan	Tadqiqot predmeti	Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari
Huquqshunoslik	Korrupsiya – shaxsiy manfaatlar uchun hokimiyatni suiiste’mol qilish. Korrupsiya – jinoyatning eng yashirin turi hisoblanishi	Qonun hujjatlarining nomukammalligi, huquqiy normalarning korrupsionligi, qonunlarning bevosita ta’sir ko‘rsatish normalariga to‘g‘ri kelmasligi
Sotsiologiya	Korrupsiya – murakkab ijtimoiy hodisa, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning mahsuli	Korrupsiya ijtimoiy institut, boshqaruv tizimining elementi sifatida turli ijtimoiy guruhlar va jamiyatdagi turli qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelishi
Iqtisodiyot	Korrupsiya ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakli, korrupsion to‘lovlar, ranzaksiyalar, harajatlar shakllari	Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: “Korrupsiyani idrok etish indeksi”, “Pora beruvchi indeksi”, “Global korrupsiya barometri” va boshqalar.
Siyosatshunoslik	Korrupsiya hokimiyatdan siyosiy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanish usuli sifatida	Ijtimoiy siyosiy ong, siyosiy madaniyat va siyosiy institutlarning korrupsiyasi

Korrupsiyani tizimli hodisa sifatida o‘rganish va tadqiq qilish uchun ushbu hodisani boshqa fanlar, xususan, falsafa, tarix, pedagogika va psixologiyaning tadqiqot predmeti sifatida ko‘rib chiqish zarurati aniq namoyon bo‘lmoqda.

Quyida korrupsiyaning dolzarb, istiqbolli (kam o‘rganilgan yoki o‘rganilmagan) tadqiqot yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Ilm-fan	Tadqiqot predmeti	Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari
Falsafa	Korrupsiya falsafiy kategoriya sifatida, korrupsiyaning falsafiy ontologiyasi, korrupsiya epistemologiyasi, korrupsiyaning falsafiy antropologiyasi	Korrupsiyaning ijtimoiy falsafasi va tarixi, axloq va axloqiy nuqtayi nazardan buzilish tabiati, estetik ideallarning tanazzulga uchrashi natijasida korrupsiya
Tarix	Korrupsiya jamiyat taraqqiyotida tartibsiz, buzg‘unchi omil sifatida	Turli tarixiy davrlarda korrupsiyaning rivojlanish dinamikasi; korrupsiyaning madaniy va tarixiy shartlari
Pedagogik	Shaxsning korrupsiyaga qarshi kurashda barqarorligini maqsadli, tizimli rivojlantirish va shakllantirish	Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun pedagogik ta’sir tizimini, texnologiyalarini ishlab chiqish; korrupsion xulq-atvor mexanizmlarini o‘rganish va korrupsiyaga qarshi kurash vositalarini takomillashtirish

Psixologiya	Korrupsiya subyektning xatti-harakati hodisasi sifatida	Korrupsion xulq-atvorni tizimli ravishda aniqlash; korrupsion xatti-harakatlarning motivatsion, qadriyatli, semantik determinantlari; korrupsiyaga qarshi barqarorlik va shaxsiy xususiyat; korrupsiyaga moyillik va boshqalar.

Ko‘rinib turibdiki, korrupsiyani tadqiq qilishda kompleks yondashuv kutilayotgan natijani berishi mumkin.

Ayniqsa, korrupsiya muammosini pedagogika fanining bir qismi sifatida tadqiq qilinishi fuqarolarimizni huquqiy bilimga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Qonunlarni o‘rganish, uni hurmat qilish va o‘z huquqlarini anglab yetish, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish har bir fuqaroning burchidir. Qonunlarni bilmaslik, ularni ijro etmaslikka olib keladi. Zero, Qonunlarni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захарук Т., Марциниак-Папроска К. Педагогика против коррупции как патологического явления // Рос. науч. журн. 2015. № 5.

2. Николаев С.М. Понятие и сущность антикоррупционного воспитания // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. 2011. № 7.

3. Ванновская О. В. Личностные детерминанты коррупционного поведения // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2009. № 102. С. 323–328.

4. Румянцева Е. Е. Противодействие коррупции в системе школьного образования // Народное образование. 2012. № 10. С. 38–45.

5. Балабушевич Г. К. К вопросу о формировании антикоррупционного сознания учащихся образовательной школы // Право и соврем. гос-ва. 2016. № 4. С. 35–41.

6. Лопашенко Н. А. Коррупция: методология исследования как научная основа антикоррупционной политики // Антикоррупц. политика в соврем. России. Саратов, 2006. С. 40–75.

7. Махмудов С.Ю. Информационная безопасность в зеркале педагогических изданий // “InfoCOM.UZ”. – T., 2015. -№9. – Б. 48-49.

8. Maxmudov S.Yu. Ilmiy-pedagogik va o‘vquv-metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlar monitoringi: Tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish // Uslubiy tavsiyanoma. – T.: O‘zPFITI nashri, 2005. -116 b.

9. Maxmudov S.Yu. Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali o‘qituvchilarda informatsion taxdidlarni oldini olish mexanizmi // Monografiya. – T.: O‘zPFITI nashri, 2017. -159 b.

10. Maxmudov S.Yu. Ta’lim tizimii isloh qilishning asosiy omili – pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish // Xalq ta'limi. – T., 2023. -1. – B. 6-10.

Shahnoza UCHQUROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA’LIMNI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA TIL MALAKALARINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning mustaqil ta’limni takomillashtirish jarayonida til malakalarining rivojlanishi muhokama etilgan. Shuningdek, til malakalarini o‘qitishni rivojlantirishning ahamiyati va tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘rganilgan mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayonida til malakalarining rivojlantirish jihatlari tahlil etib yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil ishlash, mustaqil ta’lim, til malakalari, mashg‘ulot, ta’lim natijalari, mustaqil faoliyat, kognitiv mustaqillik, tavsifiy o‘rganish, funksional o‘rganish, til immersiyasi.

В статье рассматривается развитие языковых навыков будущих учителей английского языка в процессе совершенствования самостоятельного обучения. Также освещается важность развития обучения языковым навыкам и анализ аспектов развития языковых навыков в процессе совершенствования самостоятельных образовательных навыков, изучаемых учеными-исследователями.

Ключевые слова. Работать самостоятельно, самостоятельное образование, языковые навыки, обучение, результаты обучения, самостоятельная функция, самостоятельная деятельность, когнитивная независимость, описательное исследование, функциональное обучение, языковое погружение.

The article examines the development of the language skills of future English teachers in the process of improving independent learning. It also highlights the importance of developing language skills training and analyzes aspects of language skills development in the process of improving independent educational skills studied by research scientists.

Key words. To work independently, independent education, language skills, training, learning outcomes, independent function, independent activity, cognitive independence, descriptive study, functional learning, language immersion

Jamiyatimizda xorijiy tilni bilish, o‘rganish, o‘rgatish muhim ahamiyatga ega va til sohasi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Til muloqot vositasidir. Til tabiiy muhit bo‘lmish oila, jamiyatda, shuningdek, uyushgan holda amaliy egallanadi. Hozirda xalqaro munosabatlar avj olgan davrdamiz va ta’lim olishda, yangi innovatsion g‘oyalar, bilimlarni tadbiq etishda, muhokama etib, uning negizini asoslashda tillarni bilish, poliglossiya ya’ni ko‘p tillilik katta ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tilini o‘qitishda oliy ta’lim muassasasi talabalarining bilim ko‘nikmalarini oshirish, talabalarning chet tilini o‘rganishdagi faolligini rivojlantirishda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Talabalar bilimni oliy ta’lim muassasida olibgina qolmay, shaxsiy mustaqil ta’lim faoliyati jarayoni davomida chuqur bilimga ega bo‘ladilar. Tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, bilim oluvchi talaba yoki o‘quvchi imkon qadar mustaqil ishlashi zarur, pedagog esa mustaqil ishga rahbarlik qilishi va unga mavzu materiallarini berishi kerak.

Komil insonni tarbiyalab, shakllantirishda uni tizimli ravishda mustaqil faoliyatga kiritish zarur. Fan doirasidagi o‘quv vazifalari mustaqil ish jarayonida muammoli qidiruv faoliyati xarakterini ifodalaydi.

Til malakalarini o‘qitishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mashg‘ulotni o‘tkazishdan tortib talabalarning faolligi va ta’lim natijalarigacha ta’sir qiladi. O‘qish, yozish, gapirish va tinglashda ustun bo‘lgan o‘qituvchilar yanada samarali va dinamik ta’lim muhitini yaratadi. Til malakalarini doimiy ravishda rivojlantirish va o‘qitish amaliyotiga integratsiyalash orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining akademik muvaffaqiyatlari va bitmas tuganmas ta’lim qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishlari mumkin. Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayonida til malakalarining rivojlanishi ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Li S. Shulman pedagog-psixologi reformator, o‘qituvchilar bilimi va kasbiy kompetensiyasi bo‘yicha o‘z faoliyati bilan tanilgan. U o‘qituvchilarning o‘z fanlarini samarali o‘qitishi uchun zarur bo‘lgan mazmun bilimlari va pedagogikaning uyg‘unligi bo‘lmish “Pedagogik mazmun bilimi” tushunchasini fanga kiritdi.

“O‘qitish – idrok etish. Idrok etish mazmunli bilimning noodatiy turini nazarda tutadi, pedagogik mavzu bo‘yicha bilim, muayyan mavzularni tushunish tuzulmasini va pedagogikaning uyg‘unligini ifodalaydi, muammolar yoki masalalar tahsil oluvchilarning turli qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi va o‘qitish uchun taqdim etiladi,” – deydi Li S. Shulman. U til o‘qituvchilari nafaqat o‘zlari o‘rgatayotgan tilni bilishlari, balki tahsil oluvchilarning turli xil o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni qanday samarali o‘rgatish kerakligini ham tushunishlari muhimligini ta’kidlaydi.

Avstraliyalik tilshunos David Nunan aytishicha, til o‘rganish passiv emas, balki faol jarayon bo‘lsa, samaraliroq bo‘ladi. Nunan til o‘rganuvchilarni ma’lumotni passiv qabul qilishdan ko‘ra, til ko‘nikmalarini (gapirish, tinglash, o‘qish va yozish) faol qo‘llashga jalb qilish muhimligini ta’kidlaydi. Mashg‘ulotlarda faol qatnashish talabalarga tilni yanada samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Janubiy Kaliforniya universitetining nafaqadagi professori, tilshunos, amaliy tilshunoslik bo‘yicha mutaxassis S.D.Krashen “Biz tilni bir yo‘l bilan va faqat bitta yo‘l bilan o‘zlashtiramiz – xabarlarni tushunganimizda yoki tushunarli ma’lumot olganimizda” – deya ta’kidlaydi.

Krashenning “Kirish” gipotezasi shuni ko‘rsatadiki, tushunarli ma’lumotlarni kiritish tilni o‘zlashtirish uchun zarurdir. O‘qituvchilar tushunish orqali o‘rganishni osonlashtirish uchun talabalarning hozirgi malaka darajasidan (i+1) bir oz yuqoriroq bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak.

“O‘zaro ta’sir – bu tilni o‘zlashtirish mexanizmi”- deb yozadi Michael Long o‘z gipotezasida. Suhbat almashinuvi orqali talabalar o‘zlarining til ko‘nikmalarini mashq qilishlari va yaxshilashlari, ma’noni muhokama qilishlari va fikr-mulohazalarini olishlari mumkin. Tilni o‘zlashtirish o‘zgartirilgan o‘zaro ta’sir orqali osonlashadi, bu ona tilida so‘zlashuvchilar yoki ko‘proq malakali ma’ruzachilar o‘quvchilarga tushunishlariga yordam berish uchun nutqlarini moslashtirganda sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zgartirishlar tilni soddalashtirish, sekinroq gapirish yoki ko‘proq kontekstni taqdim etishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Genri Duglas Braun ta’kidlashicha, “Auditoriyada o‘qituvchining roli mazmunli muloqot qilish uchun imkoniyatlar yaratishdir.” O‘qituvchining tahsil oluvchilarni tildan mazmunli foydalanishga o‘rgatish faoliyati va kontekstlarni loyihalashdagi roli talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi.


S.A.Boltaboev “talabalarga yuqori darajadagi bilimni o‘quv auditoriyasidagi mashg‘ulotlar to‘liq bera olmaydi”- deya ta’kidlagan. Yuqori darajadagi talabalar bilimini oshirishda mustaqil o‘quv faoliyati to‘ldiruvchi, rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi.


Shuningdek, mustaqil faoliyat muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan, talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ishlar turlari bo‘yicha vazifa va topshiriqlar ishlab chiqiladi. Zeroki, ma’naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Oliy ta’lim tizimida mustaqil o‘z fikriga ega bo‘lmagan, o‘z nuqtayi nazariga, fikrlash dunyoqarashiga ega bo‘lmagan talaba ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi.

Nutq faoliyatining maqsadi talabalarga chet tilini o‘rganishda kognitiv mustaqillikka erishishga yordam berishdir. Nazorat qilinadigan mustaqil kognitiv faoliyat tarkibiy qismlari auditoriyadan tashqari mustaqil ish (ATMI) va auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyat (ATMF) talab qiladi. Shu bilan birga, ATMI til o‘rganishning muhim bosqichidir va ATMF nutq qobiliyatini rivojlantirish bilan oqilona yakunlangan nutq bosqichidir.

L.V. Sherba fikricha, “Til murakkab va dinamik ijtimoiy hodisa, kognitiv jarayonlar va madaniy kontekstlar bilan chuqur bog‘langan.” Til ko‘nikmalari shunchaki o‘rganilishi kerak bo‘lgan qoidalar to‘plami emas, balki insoniyatning tafakkuri, idrok etishi va atrofdagi dunyo bilan qanday munosabatda bo‘lishi bilan chuqur bog‘liqdir.

Til ko‘nikmalarining tavsifiy va funksional o‘rganish strukturasi o‘qitish va o‘rganishga kompleks yondashishni o‘z ichiga oladi, bunda asosiy e’tibor tavsifiy jihatlarga (ko‘nikmalar nimadan iborat?) va funksional jihatlarga (ko‘nikmalar amaliy sharoitlarda qanday qo‘llaniladi?) qaratiladi. Har bir til ko‘nikmalari talabalarga ingliz tilini o‘zlashtirish va undan samarali foydalanishga yordam beradigan tavsiflovchi va funksional elementlarga ega. Ular 1.1-rasmda quyidagicha ifodalangan:





1-rasm. Til ko‘nikmalarini tavsifiy va funksional o‘rganish strukturasi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonida til ko‘nikmalarini rivojlantirishi har tomonlama, samarali va barqaror tilni bilishni ta’minlaydigan bir nechta talablarni o‘z ichiga oladi:

– resurslardan foydalanish;

– malaka oshirish;

– tuzilgan yo‘riqnoma;

– amaliy qo‘llash;

– davomiy baholash.

Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini takomillashtirishda til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun talablar quyidagichadir:

Sifat darajasi yuqori manbalarga kirish. Bu o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

Keng qamrovli materiallar: til ko‘nikmlarini rivojlantirishga oid darsliklar, ilmiy jurnallar, ilmiy maqolalar va o‘quv qo‘llanmalarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamdagi yuqori sifatli materiallarga kirish.

Raqamli manbalar: elektron kitoblar, til o‘rganish ilovalari, ta’lim veb-saytlari va onlayn kurslar kabi onlayn resurslarning mavjudligi.

Multimedia kontenti: audio-vizual materiallar, jumladan, podkastlar, videolar, vebinarlar va interaktiv til o‘rganish platformalaridan foydalanish.

Tizimli mustaqil ta’lim dasturlari:

O‘quv dasturlarini loyihalash: aniq maqsadlar, bosqichlar va o‘quv faoliyati ketma-ketligini ko‘rsatadigan yaxshi ishlab chiqilgan mustaqil o‘quv dasturi.

Modulli yondashuv: O‘quv dasturini boshqariladigan modullar yoki bo‘limlarga bo‘lish, ularda tilning muayyan ko‘nikmalari (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) va pedagogik strategiyalarga e’tibor qaratiladi.

Ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish:

Integratsiyalashgan malaka amaliyoti: ma’ruzalarni tinglash va ularni umumlashtirish yoki tadqiqotga oid maqolalarini o‘qish va ularni muhokama qilish kabi real hayotda foydalanishni aks ettiruvchi bir nechta til ko‘nikmalarini birlashtiradigan faoliyat.

Yuqori darajadagi til malakasi: Murakkab grammatikaga, lug‘atga, talaffuzga va o‘qitish kontekstiga tegishli idiomatik iboralarga urg‘u berish.

Pedagogik bilim: Til o‘rgatish metodikasi, sinfni boshqarish va baholash usullari haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

Amaliyotda qo‘llanilishi:

O‘qitish amaliyoti: Bo‘lajak o‘qituvchilar darsni rejalashtirish, o‘tkazish va sinfni boshqarish bo‘yicha o‘qitish amaliyotlari orqali amaliy qo‘llash imkoniyatlari.

Mikrota’lim mashg‘ulotlari: Mikrota’lim mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ularda ular o‘qitish usullari va tildan foydalanish bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish.

Tilning immersiyasi: Til almashish dasturlari, chet elda o‘qitish amaliyoti yoki virtual ta’lim almashinuvi kabi tillarni o‘rganish tajribasida ishtirok etishni rag‘batlantirish.

Mentorlik va tengdoshlar qo‘llab-quvvatlashi:

Mentorlik dasturlari: O‘z-o‘zini o‘rganish jarayonida yo‘l-yo‘riq, fikr-mulohaza va yordam ko‘rsatadigan murabbiylardan o‘rganish.

Tengdoshlar hamkorligi: o‘quv guruhlari, muhokama forumlari va hamkorlikdagi loyihalar orqali tengdoshlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari.

Texnologik integratsiyadan foydalanish:

Til o‘rganish ilovalari: Lug‘at va grammatika amaliyoti uchun Duolingo, Babbel yoki Anki kabi dastur ilovalardan foydalanish.

Interfaol vositalar: Kahoot, Quizlet yoki Nearpod kabi interfaol dastur vositalardan foydalanish til amaliyoti va baholash uchun.

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini takomillashtirishda til ko'nikmalarini rivojlantirishni amalda qo'llash strategiyalari quyidagichadir:

Mustaqil ta'lim rejasini tuzish: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari aniq maqsadlar, vaqt jadvallari va resurslarni o'z ichiga olgan batafsil mustaqil o'rganish rejasini ishlab chiqishlari zarur.

Texnologiyadan foydalanish: Resurslarga kirish, til ko'nikmalarini mashq qilish uchun texnologiyadan foydalanish.

Reflektiv amaliyot bilan shug'ullanish: muntazam ravishda o'rganish tajribasi haqida fikr yuritish va fikr-mulohaza, o'z-o'zini nazorat qilib baholash asosida strategiyalarni o'zgartirish.

Amaliy tajribani izlash: nazariy bilimlarni mashg'ulotda qo'llash uchun amaliy o'qitish tajribasini faol ravishda izlash.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun mustaqil ta'lim jarayonida til ko'nikmalarini rivojlantirish tizimli, resurslarga boy va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni talab qiladi. Sifatli resurslardan foydalanish, tizimli dasturlar, amaliy qo'llash, murabbiylik, doimiy baholash, texnologik integratsiya va ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining til bilish va o'qitish imkoniyatlarini samarali oshirishlari mumkin. Ushbu kompleks yondashuv ularning zamonaviy til ta'limi talablariga javob berishga puxta tayyorgarlik ko'rishlarini va talabalar uchun ijobiy ta'lim muhitini yaratishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lee S. Shulman. "Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching". Educational Researcher, 1986 , Volume 15, Issue 2, pages 4-14.

2. Nunan D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. Prentice Hall.p 252

3. Krashen S.D.The Input Hypothesis. Addison-Wesley Longman Ltd.Longman Group. 128p. UK. 1985

4. W.C.Ritchie, T.K. Bhatia. Handbook of second language acquisition New York: Academic Press. 1996. (pp. 413-468).

5. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman. 2007.p 423

6. Boltaboev S.A. Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlari//Zamonaviy ta'lim/ Современное образование № 7(80).2019.17-22 b.

7. Бурденюк, Г.М. Управление самостоятельной учебной деятельностью при обучении иностранным языкам взрослых: дис. … д-ра пед. наук: 13.00.08 / Бурденюк Г. М. – М., 1993. – 268 с.

8. Щерба Л. В. Язиковая Система и Речевая Деятелъност. Л., 1974

Barno ZIYATOVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
‘‘Xorijiy filologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA INNOVATSION TAVAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI (Pedagogika ta’lim muassasalari talabalari misolida)

Annotatsiya

Maqolada fan va jamiyatning hozirgi rivojlanish davrida innovatsion ta’limni qo‘llash haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, oxirgi o‘n yillikda bu yo‘nalishda olib borilgan yangi tadqiqotlar haqida gapirish maqsadga muvofiqligi va ushbu yondashuvni amalda qo‘llash doirasini nazariy boyitishi va kengaytirishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Aqliy operatsiyalar, kompleks yondashuv, intellektual faoliyat, tafakkur, tadqiqot, algoritm, tafakkurni rivojlantirish.

В статье рассматривается применение инновационного образования в современном развитии науки и общества. Также стоит рассказать о новых исследованиях, проведенных в этом направлении за последнее десятилетие, и дать рекомендации по теоретическому обогащению и расширению сферы применения данного подхода на практике.

Ключевые слова. Развитие мыслительных операций, комплексного подхода, интеллектуальной деятельности, мышления, исследования, алгоритма, мышления.

The article reflects on the application of innovative education in the current development period of Science and society. It is also advisable to talk about new research in this direction in the last decade, and recommendations have been made that theoretically enrich and expand the scope of applying this approach in practice.

Key words. Development of mental operations, an integrated approach, intellectual activity, thinking, research, algorithm, thinking.

Ta’lim maqsadiga o‘qituvchi harakatlarining aniq algoritmi, metodlari, usullari, ta’lim vositalari mavjud bo‘lganda erishiladi, ularning yordami bilan ta’lim natijasi olinishi kerak. Maqsadlarga erishish uchun ta’limga kompleks yondashuvni amaliyotda qo‘llash muhimdir. Uning ma’nosi pedagogika fanida mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashdir. Ular o‘zaro bog‘langan bo‘lishi va biror obyektga biriktirilgan ma’lum bir mexanizmni tashkil qilishi kerak. Inson tafakkuri – bu uning miyasining mahsuli va qobiliyati, aqliy operatsiyalar yordamida real voqiylikni aks ettirish va idrok etish, tabiat, jamiyat va intellektual faoliyatning rivojlanish qonuniyatlarining mohiyatiga kirib borishdir. Bu insonning dunyoga munosabati, bilimi, o‘zlashtirilishi, voqeylikni o‘zgartirishining asosidir. Inson obyektiv dunyoning qaysi sohasini bilishiga qarab, uning tafakkuri, undagi narsa va hodisalarning rivojlanish dialektikasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, ma’lum xususiyatlarga ega bo‘ladi, muhim bir turga aylanadi va shakllanadi.

Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish mulohaza yuritishda qayd etilgan o‘z tajribasini rivojlantirish bilan bog‘liq, u talabalarning o‘quv faoliyati va ular shaxsiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning tayyor usullarining asoslarini topish, yangi uslublar asoslarni qat’iy rasmiylashtirish va ularni texnologik shaklda ifodalash, shuningdek, muayyan pedagogik qarorlarni ma’lum bir vaqtda qabul qilish va hodisalarni oldindan

ko‘rish bilan bog‘liq. Tafakkur pedagogik faoliyatning turli qismlariga kiradi, shuning uchun uning mazmuni talabaning harakati va intiqosiga aylanadi. Pedagogik tafakkurning xilma xilligi o‘qituvchidan ma’lum mahorat va madaniyatni talab qiladi.

Pedagogik tafakkur madaniyati o‘qituvchining o‘z fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritishi, tanqidiy fikr yuritishi va rasmiylashtirilgan tafakkurni loyihalashtirishida namoyon bo‘ladi. Fikrlash madaniyati mutaxassisning kasbiy fikrlash uslubi orqali amalga oshiriladi, bu stereotipik tuzilma bo‘lib, nihoyatda sekin va katta qiyinchilik bilan o‘zgaradi. Bu o‘qituvchining ishida “ta’lim-tarbiya” munosabatlari tizimidagi to‘siqlar hodisalarining namoyon bo‘lishi tufayli yuzaga keladi (Yu.V.Senko). Ushbu to‘siqlar ta’limni insonparvarlashtirish va zamonaviy pedagogik tafakkur tamoyillari: tushunish, dialogiklik, refleksivlik, metaforani amalga oshirishni rad etish sifatida paydo bo‘ladi. Bunday to‘siqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: – o‘qituvchining pedagog uchun qat’iy munosabat kuchiga ega bo‘lgan pedagogik hodisalarning aniq ta’riflariga moyilligi; – “o‘rganish” va “o‘qitish” tushunchalarining mazmunli tomonlarini aniqlash asosida talabalar qiyofasi, ularning haqiqiy ta’lim imkoniyatlarini birlashtirish. Bular:

– o‘qituvchining amaliy faoliyatida mavjudlik va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillari bilan o‘quv materiali tarkibidagi metodologik komponent o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘qligiga;

– o‘qituvchi tomonidan yaratilgan bo‘lajak mutaxassisning kasbiy modelida uning kasbiy faoliyatining me’yoriy – qiymat tuzilishiga qo‘yiladigan talablarning yo‘qligiga;

– o‘qituvchi faoliyatining bir tomonlamaligi va parchalanishiga olib keladi, bu ba’zan unga butun pedagogik jamoaning birgalikdagi faoliyati zarurligini tushunishga imkon bermaydi;

– o‘qituvchining turli tushunchalarni texnologiyalar yig‘indisi sifatida tushunishiga olib keladi. O‘qituvchi uchun didaktik qonuniyatlar uni metodik tavsiyalarni asoslash mantig‘iga kirmasdan amalga oshirishga majbur qiladi.

Metod pedagogik faoliyatning real sharoitida tafakkur paydo bo‘lishining to‘rtta motivi aniqlangan, ular ma’lum darajada ijodkorlikka ta’sir qiladi.

1. Tafakkur nima sodir bo‘layotganining sabablarini aniqlash va muammo, muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchiliklar yuzaga kelsa, o‘qitish faoliyatini ko‘zda tutilgan yo‘nalishga qaytarish uchun paydo bo‘ladi. O‘qituvchi dars rejasida aks ettirilgan narsaga qaytishga, darsning rejalashtirilgan yo‘nalishini tiklashga intiladi.

2. Motiv o‘qituvchining pedagogik monotonlik holatidan chiqish istagi bo‘lishi mumkin. Monotonlikdan chiqish o‘qituvchining “dunyoning kasbiy qiyofasi”, o‘quv materialining xususiyatlari yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi haqidagi tasavvuriga asoslanadi.

3. O‘qituvchining axloqiy va kasbiy qadriyatlari ijodiy fikrlash motiviga aylanadi. Bunday holda, bu qadriyatlar o‘qituvchining va uning talabalarining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyati rolini o‘ynaydi.

4. Motiv – bu o‘qituvchi tomonidan o‘zi tomonidan shakllantirilmagan, ammo shu o‘qituvchi tomonidan bajarilishini talab qiladigan vazifani qabul qilish zaruratidir. Masalan, pedagogik kengash yoki fan kafedralarida pedagogik jamoa oldiga qo‘yilgan vazifalar bo‘lishi mumkin.

Tafakkur yetukligi haqida gapirganda, o‘qituvchi madaniyati va mahoratining muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan ilmiy tafakkur uslubining xususiyatlarini aniqlash zarur: tizimli fikrlash – hodisalarni ko‘p o‘lchovli tarzda qamrab olish, ularning quyi tizimlardagi o‘zaro bog‘liq komponentlari majmualarini aniqlash, muammolarni hal qilish uchun keng bilim olish qobiliyati; tafakkurning determinizmi – sabab-oqibat munosabatlarini o‘rna-

tish, pedagogik tizimdagi hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash qobiliyati; fikrlash ehtimoli – ta’lim jarayonini rivojlantirishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini, shaxslar, guruhlar va jamoalarning harakatlarini aniqlash va bashorat qilish qobiliyati; fikrlashning konkretligi – nazariyaning umumiy qoidalarini joriy fakt va vaziyatlarni tushuntirish, ularni tahlil qilish va tezkor xulosalar chiqarish uchun uzatish (foydalanish) qobiliyati; istiqbolli fikrlash – voqealar istiqbolini ko‘rish, “yaqin rivojlanish zonasi”ni modellashtirish qobiliyati; iqtisodiy fikrlash – eng kam kuch va vaqt, muammolarni hal qilishning eng qisqa usullarini talab qiladigan yo‘lni tanlash qobiliyati; fikrlashning refleksivligi – o‘z faoliyatini tashqi tomondan, xuddi talabalarning ko‘zlari bilan baholash qobiliyati; evristik fikrlash – gipotezalarni shakllantirish va sinab ko‘rish, turli mezonlar asosida muqobillarni filtrlash, ma’lumot yaratish, xulosalar chiqarish qobiliyati (L.F.Spirin).

Natijalar va muhokamalar Pedagogik tafakkurning muhim xususiyatlarini tavsiflash asosida shuni ta’kidlash kerakki, u kasbiy pedagogik faoliyatni tushunishga yordam beradi, uni ijodkorlik darajasiga ko‘tarishga imkon beradi, paydo bo‘lgan atipik pedagogik vaziyatlarning oldini oladi va bartaraf etadi, shuningdek, pedagogik faoliyatni rag‘batlantiradi. Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ta’limdagi zamonaviy innovatsiyalar qarama-qarshiliklarining mohiyatini tushunish uchun eng avvalo, bizning davrimizda ta’lim institutlarini isloh qilishga turtki bo‘lgan ijtimoiy motivlarning mohiyatini aniqlab olish uchun kerak. Motivlarning birinchisi – maktabning rivojlanish sur’atlari bilan jamiyat taraqqiyoti sur’atlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir.

XX asrning oxiriga kelib, sanoat va axborot inqilobi natijasida bu tafovut keskin oshdi. Boshqacha aytganda, XX asr texnikasi va g‘oyalari bilan XX asr boshida maktab bolalarini hayotga tayyorlab bo‘lmaydi. U jamiyatda o‘zining shakllantiruvchi rolini o‘ynamaydi. Ba’zi holatda, u talabalarni hayotga emas, balki imtihonlarga tayyorlaydi. Ta’lim sohasidagi islohotlarning ikkinchi, uncha kuchli bo‘lmagan ijtimoiy motivi nafaqat sur’atlarning nomutanosibligi, balki ijtimoiy taraqqiyotning mohiyatini tubdan o‘zgartirishdir. Ijtimoiy va ilmiy-texnik inqiloblar bilan birga insoniyat jamiyati “tezkor” taraqqiyot davriga kirdi. Ijtimoiy tizimlar raqobati va axborot inqilobi iqtisodiy mexanizmning o‘ta tez ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Shunday qilib, “tezkor” rivojlanish jamiyati “yangi” odamlarga, ijtimoiy hayotning barcha sohalari rivojlanishining jadallashuviga javob berishga qodir bo‘lgan “yangi” ta’lim tizimiga ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlar ana shu ijtimoiy talablarga ozmi-ko‘pmi ongli javob beradi. “Innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchasining o‘zi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslarning ilmiy izlanishlarida paydo bo‘lgan va bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqasiga kiritishni bildirgan. Pedagogik innovatsion jarayonlar 50-yillarning oxiridan boshlab ta’lim tizimini isloh qilish an’analarining paydo bo‘lishi bilan G‘arb olimlari S.Frene va R.Galya, guruhda ishlash metodi R.Kuzin (Fransiya); shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, “Iste’dodlarni izlash” dasturi (AQSh), Valdorf maktablari, M. Montessorining “Bolalar uyi” va boshqalarning maxsus tadqiqot obyektiga aylandi. Ta’limdagi innovatsion jarayonlar aynan 60-80-yillarda keng rivojlangan. Maktab ta’limining yangi islohotlari, vositalari va mazmunini izlash bilan bog‘liq ommaviy harakat maktab o‘quvchilarining intellektual va axloqiy rivojlanishini boshqarish usullari haqidagi g‘oyalarni kengaytirdi.

Mualliflik o‘quv dasturlarining paydo bo‘lishi, ularda ijodkorlarning yuksak kasbiy madaniyati va ma’naviy intilishlari ifodalanganligi maktabda ta’lim mazmunini belgilab beruvchi an’anaviy tuzumni buzishning muhim asoratiga aylandi. Rassomlar va mu-

siqachilar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar: (B.M.Nemenskiy, D.D.Kabalevskiy), faylasuflar (V.S.Bibler, G.S.Batishev), yozuvchilar va matematiklar (ye.N.Ilin, P.M.Erdniyev va boshqalar) o‘quv dasturlari mazmunini butun zamonaviy madaniyat miqyosi bilan bog‘liq holda qayta ko‘rib chiqish kabi yangi g‘oyalarning kirib borishi uchun kanal bo‘lgan. Innovatsiyalar nafaqat o‘quv faoliyatini, balki bolalarning darsdan tashqari vaqtini ham qamrab oldi. Madaniy va ishlab chiqarish loyihalari (tiklash, xayriya, ekologiya, tarixiy-ma’rifiy turizm, shaxslararo muloqot) bilan birlashtirilgan bolalar va kattalarning birgalikdagi hayotining turli tashkiliy shakllari aniqlangan. Yopiq bolalar muassasalari - mehribonlik uylari, imkoniyati cheklangan bolalar internatlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan harakatlarning innovatsion shakllari ishlay boshladi.

Turli ko‘rinishdagi hissiy va aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalashga bo‘lgan separatizm munosabatlari buzila boshladi, oddiy bolalar muhitiga aralashgan bunday bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yangi tajribalar paydo bo‘ldi. Islohotlar amaliyoti innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga bo‘lgan mavjud ehtiyoj va o‘qituvchilarning ularni amalga oshirishga tayyorligi o‘rtasidagi jiddiy qarama-qarshiligiga duch keldi. Bunda birinchi navbatda, bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, “yangi”, “yangilik, “yangilik kiritish”, “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat” tushunchalarini erkin yo‘naltirish kerak. Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga innovatsion yondashuv doirasida shaxsning individual ijodiy hissasi, shaxsiy tashabbusi, o‘zini o‘zi rivojlantirish erkinligi huquqi amalga oshiriladi. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy psixologiya va pedagogikada ham innovatsion ta’limning turli modellari mavjud, ammo ta’lim jarayonidagi innovatsion strategiyasining asosiy xususiyati shaxsni rivojlantirishdir. Bunday modellarning asosini o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ijodiy faoliyati tamoyili tashkil etadi, u rivojlanishning ikkita sharti bo‘yicha amalga oshiriladi:

a) talabaning faoliyati;

b) uning o‘qituvchi bilan hamkorligi.

Ta’lim kelajakka tayyorlikni oshirish, kutishni shakllantirish bilan bog‘liq ijodiy muammolarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

Demak, innovatsiyalar yuqori darajadagi sifatga erishishga imkon beruvchi prinsipial jihatdan yangi faoliyat shakllaridir. Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga innovatsion yondashuv agar yangilanishning yaxlit nazariy, texnologik konsepsiyasi bo‘lsa, ijodkor, sog‘lom, yuksak ma’lumotli shaxsni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. An’anaviy ta’limdan innovatsion ta’limga o‘tish o‘qituvchilar va o‘qituvchilarning talabalar bilan munosabatlarini demokratlashtirishga, ta’lim sharoitida “o‘qituvchi – talaba” ijtimoiy rollarining qat’iy birlashuvidan voz kechishga, hamkorlikning (avtoritar boshqaruvdan – hamkorlikdagi faoliyatga o‘tish; reproduktiv ta’lim vazifalaridan – samarali va ijodiy aqliy faoliyatga yo‘naltirish) yangi ijtimoiy pozitsiyalarini qabul qilishga tayyorligi muammosini kuchaytiradi.

O‘qituvchining ijodiy qobiliyati va kasbiy mahorati yuqori bo‘lgan taqdirda ham, shaxsiy munosabatni o‘zgartirish, talabalar bilan munosabatlarni va muloqotni demokratlashtirish usullarini o‘zlashtirish qiyin vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy tafakkur, hamkorlik, muloqot madaniyati va faoliyat madaniyati, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati va talabaning o‘zini o‘zi anglashiga bo‘lgan ehtiyoj, kasbiy kompetentlik – bu o‘qituvchining innovatsion maktabda kasbiy faoliyatining asosidir. Bularning barchasi ta’limni innovatsion o‘zgartirishda ta’lim-tarbiya jarayonining vazifalari o‘zaro boyitish, bir-birini hurmat qilish, o‘qituvchilar, talabalar, ota-onalar, ma’muriyatning hamkorligi tamoyillari asosida kompleks tarzda hal qilinadigan innovatsion ta’lim maydonini yaratish kerakligini bildiradi. Shuningdek, bolalarni

shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish amaliyotiga (ularning histuyg‘ularini, sezgilarini, muloqotlarini, xatti-harakatlarini va o‘z “Men”ini loyihalash usullarini boshqarish) kiritadigan ta’limning maxsus mazmunini o‘ylash va ajratib ko‘rsatish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga innovatsion yondashuv ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish, maqsad va strategiyani isloh qilish, joriy qilingan innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni ishlab chiqish va qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratishni aniq bilishni ta’minlaydigan yana bir jihati – boshqaruv madaniyati va demokratlashuvini alohida ta’kidlash lozim.

Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga innovatsion yondashuvning asosiy yo‘nalishlari: – maktabning ta’lim sohasini rivojlantirish; – ilmiy-metodik ishlar; – ta’limning uzluksizligi va izchilligi (ta’limning 1 va 2 bosqichlari); – tilshunoslik, modulli ta’lim; – universitet bosqichlari, “iqtidorli bolalar” va ixtisoslashtirilgan maktablar; – integratsiya; – tuzatuvchi-rivojlantiruvchi ta’lim; – ekologik ta’lim va tarbiya; – maktab televideniyasi; – harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi; – qobiliyat va iste’dodlarni rivojlantirish; – talabalar va o‘qituvchilar salomatligi; – psixologik-pedagogik diagnostika; – “Men-odam”, “Men-shaxs” tarbiyaviy dasturi orqali tarbiya ishini birgalikda boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish.

Ta’lim sohasining rivojlanishini ta’minlaydigan prognoz qilingan pedagogik shartlarning samaradorligi quyidagi mezonlar bo‘yicha nazorat qilindi: – bolaning sog‘lig‘i (kompleks tibbiy diagnostika); – jismoniy rivojlanish darajasi; – bolaning ruhiy holati; – o‘rganish motivatsiyasi; – ta’lim darajasi; – shaxsning rivojlanish dinamikasi; – ijodiy laboratoriya va guruhlarda ishtirok etishi; – faollik va o‘z-o‘zini baholash; – ta’lim samaradorligi; – o‘quv dasturlari va o‘qituvchilar faoliyatini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish; – o‘qituvchining ilmiy va innovatsion ishining sifati. Ma’lumotlarning qiyosiy tahlili o‘zlashtirish samaradorligi dinamikasini, integratsiyalashgan, tezlashtirilgan, modulli, shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi ta’limning jismoniy va ruhiy salomatlik holatiga ta’sirini, tabaqalashtirish asosida intellektual rivojlanish darajasining hissiy holati, maktab intererining o‘rni, maktab o‘quvchilarini yangi ta’lim sharoitlariga moslashtirishdagi muloqot uslubi, sog‘lomlashtirish-davolash va profilaktika choralarining samaradorligi va boshqalar asosida sinflarni birlashtirishning ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Ta’limning yangi muammolari: insonparvarlashtirish, tabaqalash, individuallashtirish, integratsiyani amalga oshirish sharoitida talabalarning shaxs va uning rivojlanishidagi asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim modelini yaratish zarurati dolzarb bo‘lib qoldi. O‘qituvchilar jamoasining ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish, ta’lim mazmunini yangilash yo‘nalishlari: bilimlarning yaxlitligini nazarda tutadigan rivojlantiruvchi ta’lim tizimini yaratish, fanlarni chuqur o‘rganish, fanlararo aloqalarni o‘rnatish, integratsiya, modulli ta’lim, erta mutaxassislik sinflari orqali dunyoqarashning yaxlit tasvirini aniqlashga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Батищев Г. С. Философская концепция человека и креативности в наследии С.Л. Рубинштейна // Вопросы философии, 1989. - №4176. Френе С. Формирование личности ребенка и подростка: Пер. с фр-М.: Прогресс, 1990

2. Djuraev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. Sano-standart, – T., 2010.- 87 b.

3. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T., Fan, 2004

Maqsuda BADALOVA,
A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti ITB boshlig‘I, PhD falsafa doktori

TA’LIM KLASTERI VA UNING MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim klasteri mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta’lim klasterining nazariy asoslari va uning xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, klaster elementlarining o‘zaro aloqaga asoslangan belgilari yoritilgan va o‘rganilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy xulosalar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Klaster, ta’lim klasteri, model, nazoratchi, element, sinergitik, model, klaster subyektlari, nazoratchi, element, sinergitik, yaxlitlik, innovatsiya, biznes tuzilma, “Barkamol avlod”.

Статья посвящена теме образовательного кластера, в ней раскрываются теоретические основы образовательного кластера и его особенности. Выделены признаки элементов кластера, основанные на взаимосвязи, и представлены научные выводы, полученные в результате проведенных исследований.

Ключевые слова. Кластер, образовательный кластер, модель, контроллер, элемент, синергетический, модель, субъекты кластера, контроллер, элемент, синергетический, целостность, инновации, бизнес-структура, “идеальное поколение”.

The article focuses on the topic of the educational cluster, which reveals the theoretical foundations of the educational cluster and its features. The interaction-based characters of cluster elements have been highlighted and scientific conclusions have been reported from the studies studied.

Key words. Cluster, educational cluster, model, supervisor, element, synergistic, model, cluster entities, supervisor, element, synergistic, integrity, innovation, business structure, “harmonious generation”.

“Klaster” so‘zi ilmiy atama sifatida birinchi marta Maykkl Evgeniy tomonidan ishlatilgan inglizcha so‘z bo‘lib, cluster, cluster, clyster (dasta, to‘plash, bir-biriga juda yaqin bo‘lgan narsalar yoki odamlar hamkorlik tizimi) kabi so‘zlar ma’nosiga borib taqaladi. Klaster atamasi o‘tgan asrning 90-yillarida iqtisodiy adabiyotlarda faol qo‘llanila boshlandi va xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, u asosan, hozirgi kungacha iqtisodiyot va tibbiyot sohalarida keng qo‘llanilgan. Rus olimi S.P. Postnikov ta’rifi bo‘yicha, Klaster[1] bu – birlashtiruvchi murakkab tuzilmadir – fan, ta’lim va ishlab chiqarishning yagona butunligi, demakdir. Ta’lim klasteri esa – ta’lim muassasasi va ish beruvchilarning hamkorlik asosida korxona uchun mutaxassislarni bir necha bosqichli kadrlar tayyorlashning ajralmas tizimi bo‘lib, uning bir qancha afzalliklari mavjud. O‘zingizga ma’lumki, ba’zi maktablar markazdan yiroqda (olis hududlarda joylashgan) va juda kam resurslarga ega va ta’lim nazoratchilari ularga kamdan-kam tashrif buyurishadi va kerakli maslahat va metodik yordamlarni o‘z vaqtida ola olmaydilar. Xalqaro tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shu muammoni hal qilish maqsadida 1960-yillarda Lotin Amerikasida jamiki, ta’lim resurslarini integratsiya qilish, ko‘nikma va tajribalarni almashish uchun maktablarni bir-biri bilan bog‘lash g‘oyasi paydo bo‘lgan va bu amalda qo‘llanilib, ijobiy natijalar bergan[2]. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kirgan: tayyorlanayotgan kadr (kompetentligini) sifatini oshirishga,

[1] С.П. Постников Екатеринбург “ Концептуальные основы учебно-научного производственного кластера (гендерний аспект)” / НаУКМА. т. 18. -К., 2010 -б . 479.

[2] Global education cluster 2010-2011, 3-bet

darslardan tashqari mashg‘ulotlar davomida maktabda olingan bilimni mustahkamlash va ta’lim muassasasini bitirgandan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish bilan ta’minlanishga, bitiruvchilarni hamkorlikdagi korxonaga nisabatan pozitiv munosabatini ta’minlash(ish shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishgan bo‘lajak mutaxassis o‘zining oldiga malaka oshirgan korxonasida ishlash uchun istak paydo bo‘ladi) kabilar.

Klaster atamasi yaqinda keng qo‘llanila boshlangan so‘z bo‘lib, ingliz tilidan tarjima qilinganda “klaster” – “to‘da”, “bog‘”, “shingil” ma’nosini anglatadi. Ilmiy termin sifatida bir necha o‘xshash narsalarning guruhlashishi, deb tushunish mumkin. Ta’limda esa maktab klasteri bu – maktablarning o‘zaro boshqaruv va ta’lim maqsadlarida hamkorligi yoki birlashuvidir. Umumiy klaster modulida bir maktab asosiy, markaziy va lider maqomida bo‘ladi va boshqalari esa unga birlashgan maktablar bo‘ladi. Asosiy maktab boshqalarini birligini, resurslarni bo‘lishishni va shuningdek, pedagoglarni kompetentlik darajasini rivojlanishini nazorat qiladi.

Ta’lim klasteri atamasi Maykl Evgeniy Porter tomonidan ilmiy qo‘llanishga kiritilganligi yuqorida qayd etilgandi, u o‘z ilmiy ishlarida klasterga shunday ta’rif beradi: “klaster” – bu bir-biriga bog‘langan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, ma’lum sohalardagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobatlashadigan, lekin shu bilan birga birgalikdagi ishlarni olib boradigan tashkilotlardir[3].

Shuningdek, klasterni tizim, deb ham hisoblash mumkin, ushbu tizim element qo‘shilishi natijasida uning ishlashi yaxshilanadigan va tizimdan bir elementni olib tashlash salbiy oqibatlarga olib kelmaydigan maxsus turdagi tizim bo‘lib, olib tashlangan element tizim yaxlitlikni buzmaydi. Ta’lim klasterining elementlari – bu tashkilot (universitet, biznes tuzilmasi, ta’lim muassasasi va boshqalar) yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Ta’lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to‘ldirilishi mumkin. Klasterda maktab infratuzilmasi – zamonaviy maktab infratuzilmasini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ro‘yxati turli sohalarda ta’lim muassasalari va tashkilotlar, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, biznes va boshqa muassasalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirishni o‘z ichiga olishi kerak. Infratuzilma ta’lim makonining o‘lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi, bu ta’lim xizmatlarining hajmi, ta’lim ma’lumotlarining imkoniyatlari va intensivligi bilan tavsiflanadi.

Ta’lim klasteri – bu maktab infratuzilmasini tashkil etish usullaridan biri, ta’limga bog‘liq undagi muassasalar esa – bu infratuzilmaning elementlaridir. Klasterni shakllantirish jarayoni sheriklar o‘rtasida ehtiyojlar, texnologiyalar haqida ma’lumot almashishga asoslangan. Klasterli yondashuvda klasterning barcha a’zolari uchun turli aloqa vositalari yordamida erkin ma’lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud. Klasterli yondashuv metodining rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biri uning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan o‘zaro aloqaga asoslanligidir. Klaster munosabatlarining asosiy belgilari:

– izchillik;

– maqsad birligi;

– innovatsiyaga yo‘nalganlik;

– yaxlitlik;

[3] Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals

– sinergitik;

– natijaviylik.

Ta’lim klasteri uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo‘lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi, deb fikr bildirish mumkin.

Klaster miqyosida qator ta’lim muassasalari birlashadi va o‘z resurslarini o‘zaro bog‘laydi. Ta’lim muassasalari bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta’lim muassasalari (“Barkamol avlod” bolalar maktablari, bandlik markazlari, o‘quv markazlari va shu kabilar), mahalliy sanoat korxonalari va turli ijtimoiy birlashmalar ham qo‘shilishi mumkin. Shu tarzda o‘sha hududdagi maktablar o‘zaro aloqalari jadallashadi.

Xulosa o‘rnida, ta’lim klasterining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– yagona umumiy aniqlangan maqsadning mavjudligi;

– klaster subyektlari faoliyatining birgalikdagi huquqiy asosining mavjudligi;

– subyektlarning o‘zaro birgalikda harakat qilish mexanizmlarining mavjudligi;

– subyektlarning klasterni boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan mexanizmlarining mavjudligi;

– maqsadlarni amalga oshirish metod va texnologiyalarining mavjudligidan iborat.

Tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ta’lim klasteri nazariyasining rivojlanishini quyidagi asosiy tamoyillarini sanab o‘tish mumkin:

– geografik joylashuvga e’tibor qaratish;

– mutaxassislik-yo‘nalishiga e’tibor berish;

– klaster subyektlarining sonini miqdoriga;

– raqobatdoshlik prinsiplariga;

– bir - birini qo‘llab quvvatlash tamoyiliga;

– klasterning hayotiy sikliga;

– innovatsiyalarni joriy etish;

– tizimli natijalar nazoratini tashkil etish;

– monitoring natijalari asosida tuzatish va o‘zgartishlar kiritish;

– doimiy rivojlanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гао Иншуан От концентрации к совершенству: исследование французской кластерной организации высшего образования // Образовательное исследование Университета Цинхуа. — 2012г.

2. Постников С.П. Екатеринбург “ Концептуальные основы учебно-научного производственного кластера (гендерний аспект)” / НаУКМА. т. 18. -К., 2010г.

3. Global education cluster 2010-2011г.

4. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals.

Najmiddin QODIROV,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar inistituti
“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrasi assistenti

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LOYIHALASH-KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, shuningdek, o‘zlashtirmayotgan hamda intizomsiz talabalar ta’lim va tarbiyasiga individual yondashuv orqali ijodiy faoliyatini rivojlantirish va talabalarni kasbiy tayorlash haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Individual yondashuv, talabalar, mualliflar, qobiliyat, ta’lim, tarbiya, faoliyat, kasbiy tayyorlov, mutaxassislar, muhandislar.

В статье рассматривается организация обучения на основе индивидуального подхода, а также развитие творческой деятельности и профессиональной подготовки учащихся посредством индивидуального подхода к обучению и воспитанию неосвоенных и недисциплинированных учащихся.

Ключевые слова. Индивидуальный подход, студенты, авторы, способности, образование, воспитание, деятельность, профессиональная подготовка, специалисты, инженеры.

The article reflects on the organization of education on the basis of an individual approach, as well as the development of creative activity and professional training of students through an individual approach to education and upbringing of non-assimilated and undisciplined students.

Key words. Individual approach, students, authors, abilities, education, upbringing, activities, professional training, specialists, engineers.

O‘zlashtirmayotgan va intizomsiz talabalar uchun individual yondashuv zarur. Bu muammolariga L.S.Slovina, A.A.Budirnoylarning tadqiqotlari bag‘ishlangan mualliflarning e’tibori o‘zlashtirmaslik sabablari, talabalarning qobiliyatlari, ta’lim olganligi va o‘quv faoliyatida munosabati bo‘yicha turlarga ajratish sabablarini aniqlashga bag‘ishlangan edi. Munosabatlar ular tomonidan o‘quv jarayonida shaxsning yo‘nalganligi shakli sifatida ko‘rib chiqiladi. Individual yondashuv muammosini A.A.Kirsanov tomonidan chuqur o‘rganilgan “O‘quv faoliyatini individualshtirish pedagogik muammo sifatida” monografik asarda u quyidagilarni chuqur tekshirib chiqdi:

– individual yondashuv muammosining tarixiy-nazariy tahlili;

– o‘quv faoliyatini individuallashtirishning nazariy-metodologik asoslanishi;

– individual bilish faoliyatini o‘rganish va tashkil etishga tizimli yondashuv;

– talabalarning ta’lim va tarbiyasiga individual yondashuv asosida ijodiy faoliyatni rivojlantirish.

A.A.Kirsanov individuallashtirishni individual yondashuvga nisbatan kengroq plandagi tushunchalarga kiritadi. U pedagog va talabalar faoliyatini individuallashtirishni, o‘quv materialini faol o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ko‘rinishidan, bunday yondashuv ma’lum bir masalani ko‘rib chiqish uchun asoslidir. Biroq falsafada yondashuv haqida bir oz boshqacha tushuncha mavjud.

Ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv ta’lim oluvchilarni individuallash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish uchun asosni yaratadi. Bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda individual yondashuv maqsadida individuallashtirishni quyidagi imkoniyatlarini beradi:

– bilish faoliyatida shaxsning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajratish;

– talaba shaxsini kasbiy bilish faoliyatini metodolgik, nazariy va amaliy darajalarda tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

– talabalarni bilish qadriyatlarida yo‘naltirilganlik darajasini hisobga olish;

– shaxsning kasbiy qadriyatlarga yo‘naltirilganlik darajasini aniqlash.

Shuning uchun, individual yondashuv talabalarni kasbiy tayyorlashda individual yondashuvni tashkil etish uchun zamin yaratadi. Shu bois, XX asrning oxirida individual-tabaqalashtirilgan yondashuv ishlab chiqila boshlanadi “individual ta’lim”, “individual o‘qitish” tushunchalari kiritildi.

Individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, biz ta’kidlaganimizdek oliy ta’limning ustuvor vazifasidir. Ushbu yondashuv barcha mutaxassisliklar professionallarini tayyorlash asosida yotadi. Bunda “individual ta’lim” va “individual yondashuv”ni farqlash kerak. Individual ta’lim talabalarni kasbiy tayyorlashning boshqariladigan jarayoni sifatida chiqadi, uning mazmuniy tomoni o‘quv reja bilan aniqlanadi, amalga oshirish esa talaba shaxsi ehtiyojlari, motivlari va qiziqishlari bilan aniqlanadi. Ta’lim taktik yondashuv esa strategik vazifalarni, jarayonni o‘rganish va tashkil etishda hal qiladi.

Ta’limning individuallashtiruvi tamoyillaridan ko‘rinadiki, kredit-modul tizimida talabalarning individual reja va ta’lim dasturlariga ega bo‘lishi ta’limning samaradorligini ta’minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’limda “individuallashtirish” tushunchasi Respublikamizda sobiq ittifoq davrida ta’limning kollektiv tabiati sharoitida “o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi” sifatida qo‘llanilgan. O‘sha yillar adabiyotlarida “Kollektiv mehnatni boshqarish bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qituvchi o‘qitishda talabalarga individual yondashadi, auditoriyani jamoaviy ishga jalb qilish uchun talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladi, deb ta’kidlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu kontekstda individuallashtirish talaba uchun muhim bo‘lgan boshqa individual ta’lim natijalarini olish maqsadini ko‘zlamaydi, aksincha, talabalarning “individual xususiyatlari” asosida “jamoa”ning umumiy natijaga erishishi uchun shaxsni “moslashtirish”ga mo‘ljallangan.

“Individual” tushunchasi lotincha bo‘lib, yakka tartibda yolg‘iz va maxsus shug‘ullanish ma’nolarini bildiradi. Individuallashtirish tabaqalashtirilgan ta’limning bir turi sifatida modulli o‘qitishda to‘liq o‘z ifodasini topgan.

Ta’limni individuallashtirish muammosini ilmiy tadqiq qilish uchun ushbu konsepsiyaning mohiyatini aniqlash kerak. Pedagogikada u turli, ba’zan noaniq ma’nolarda qo‘llaniladi va har bir aniq holatda uning mazmuni qanday maqsad va vositalar nazarda tutilganiga bog‘liq. “Individuallashtirish” atamasini qo‘llashda turli mamlakatlarda ham, turli mualliflar orasida ham, kundalik amaliyotda ham katta farqlar mavjud.

Individuallashtirish va differensiallash g‘oyasini ilk bor, individual va umumsinf (guruhiy) o‘quv faoliyatini biriktirish lozimligini pedagogika fanining asoschisi Ya.A. Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida asosladi, bu uning sinf-dars ta’lim tizimida aks etadi. U didaktikani “Hammani hamma narsaga o‘qitish san’ati” sifatida tushunadi, bolalarning ruxiy kuchlariga ularni ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatiga ishonadi. Ya.A. Komenskiy ta’lim bolalarni rivojlantirishga imkon beradi deb hisoblardi. Individuallashtirishni o‘quvchilarning ta’limga tayyorgarlik darajasi bo‘yicha guruhlash

vositasi sifatida va o‘quvchilarning ularning qobiliyatlaridan kelib chiqib ilgarilashi vositasi sifatida qaraydi.

XX asrning 50-yillarida ta’limda individual yondashuv muammosini B.P.Esipov, M.A.Danilov, I.T.Ogorodnikov va boshqalar ko‘rib chiqishdi. Tadqiqotchilarning diqqati bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratildi.

XX asrning 70-80 yillarida Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.L.Lernev, B.S.Rubenskiy, V.I.Zvezenskiy, YU.N.Kulyutkin, G.S.Suxobsiya, V.S.Merlin, Yu.A.Sanarin, E.A.Klemov va boshqalar individual-differensial yondashuv muammosini, o‘quv jarayonini optimallashtirish, darsda o‘quv faoliyatini individual va jamoaviy uslublari orasida ziddiyatlarni yengib o‘tish, ta’lim oluvchilarning frontal, guruhiy va individual faoliyat turlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Individuallashtirish va differensiallash ularning yo‘nalganligi shaxsning motivatsiya va qiziqishlari, aqli, tafakkuri, xarakteri, tezkor xotira hajmi, faoliyat stili nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqiladi.

Shu sababli pedagogikada differensiallash va individuallashtirish bu yillarda quyidagilarga asoslanadi:

– bilish faoliyatining mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini optimallashtirish (Yu.N.Bebenskiy, V.A.Cherkasov, M.M.Pitalinik va boshqalar);

– bilish faoliyatini faollashtirish (M.A.Danilov, B.P.Esipov, M.N.Skatkiy, A.P.Aristova, T.I.Shatova, M.I.Maxmutov va boshqalar);

– nazariy tafakkurning rivojlanishi (D.V.Elnonin, V.V.Davidov, X.I.Liymete va boshqalar);

– bilish qiziqishlari va ta’limning motivatsiyasi xarakteri (F.I.Shukinya, L.M.Frizmon, A.B.Orlov va boshqalar);

– o‘rnatishning mazmuniy tomoni (D.I.Uznadzey, S.P.Rubenshteyn, I.T.B Jalova va boshqalar).

Individual yondashuv muammosini A.A.Kirsanov tomonidan chuqur o‘rganilgan “O‘quv faoliyatini individualshtirish pedagogik muammo sifatida” monografik asarda u quyidagilarni chuqur tekshirib chiqdi:

– individual yondashuv muammosining tarixiy-nazariy tahlili;

– o‘quv faoliyatini individuallashtirishning nazariy-metodologik asoslanishi;

– individual bilish faoliyatini o‘rganish va tashkil etishga tizimli yondashuv;

– o‘quvchilarni ta’lim va tarbiyasiga individual yondashuv asosida ijodiy faoliyatni rivojlantirish.

A.A.Kirsanov individuallashtirishni individual yondashuvga nisbatan kengroq rejadagi tushunchalarga kiritadi. U pedagog va o‘quvchilar faoliyatini individuallashtirishni, o‘quv materialini faol o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ko‘rinishidan, bunday yondashuv ma’lum bir masalani ko‘rib chiqish uchun asoslidir. Biroq, falsafada yondashuv haqida bir oz boshqacha tushuncha mavjud.

M.A.Zaynetdinovga ko‘ra, Individuallashtirish individlar mavjudligi shakllaridan biri bo‘lib, individuallikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini ham, uning tashqi dunyoda o‘zini o‘zi anglash jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Keng ma’noda bu tushuncha o‘quv jarayonida didaktik tamoyil sifatida individual yondashuvga asoslangan individuallashtirish tamoyilini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni amaliy tashkil etish sifatida talqin etiladi.

E.S.Vrublevskaya ta’limni individuallashtirish bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlaydi: “Pedagogik ensiklopediyada individuallashtirish-o‘quv jarayonini tashkil etish, unda o‘qitish usullari va sur’atini tanlashda talabalarning individual farqlari va ularning o‘quv

qobiliyatlarining rivojlanish darajasini hisobga olish” tushuniladi. Bu yerda individuallashtirish har bir talabaning xususiyatlarini hisobga olishni anglatmaydi, ko‘pincha u bazi fazilatlar to‘plamida o‘xshash guruhlarni hisobga olish bilan cheklanadi”.

E.V.Korolkova ta’limni individuallashtirish quyidagilarni ta’kidlaydi: Pedagogikada ikkita tushuncha “individuallashtirish” va “differentsiatsiya” chalkashtirib yuborishi holatlari kuzatiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar individual va differentsial yondashuv haqida bir xil ma’noda gapirishadi. Asilda “differentsiatsiya” atamasini ancha tor ma’noda – ta’lim muassasasining oqimlarga bo‘linishi yoki maxsus maktablar va sinflarning shakllanishidir.

S.E.Korkovaga ko‘ra ta’limda individuallashtirish, eng avvalo, talabalarning individual xususiyatlariga mos ravishda mustaqil ishlarini takomillashtirishni anglatadi. AQShda bu konsepsiya odatda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishning har qanday shakllari va usullarini qamrab oladi.

G.A.Bordovskiy, S.L.Vdovina, Y.A.Klimov, B.C. Merlin, N.N. Surtayeva, I.S.Yakimanskaya va boshqalarning fikricha, ta’limni individuallashtirish kengroq ma’noga ega va amalga oshirishning bir necha yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

– mustaqil (o‘zgaruvchan o‘quv rejalari va individual ta’lim yo‘nalishini belgilaydigan o‘quv dasturlari);

– faoliyat (maxsus pedagogik texnologiyalar);

– protsessual (tashkiliy jihat).

G.I.Kitaygorodskaya individual faoliyatni talaba tomonidan o‘qituvchi bilan birgalikda ishlab chiqilgan, uning jamiyatning maqsadlari va qadriyatlari, umumiy ta’lim va mustaqil ta’limga yo‘naltirilganligi haqidagi tushunchasini aks ettiruvchi o‘quv faoliyati dasturi sifatida tushutiradi va ularni jamiyat ehtiyojlari, ta’lim mazmuni va shakllarini erkin tanlash natijalari bilan uyg‘unlashtirish zarurati sifatida izohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi 824-son Qarori.

3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – T., 2020 y.

4. Тимофеев А.А., Н.А. Ушко, М.А. Ярифа. Кредитно-модульная система обучения. Журнал Современная стоматология, 1/2013, стр:134.

5. Уразгалиева Р.И. ‘‘Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательной деятельности студента”. Автореф. Дисс к.п.н., – Оренбург. – 2010.

6. Шамова, Т. И. Управление образовательными процессами Текст. / Т. И. Шамова, Т. М. Давыденко, Г. Н. Шибанова. М. : Академия, 2002. – 384 с.

7. O‘rinov V. “O‘zbekiston Respublikasi oily ta’lim muassasalarida ECTS kreditmodul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar”. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

8. Ibraimov X. I. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi 209-215 b.

Dilfuza KAMOLJONOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini oshirishning xalqaro va milliy tajribalari haqida fikr yuritib, bugungi kunda bolalar uchun nashr etilayotgan badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarning yosh va qiziqish nuqtayi nazaridan tasnifi, bolalarni kitobxonlikga qiziqtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qanday pedagogik bilim va tajribalarga ega bo‘lishi kerakligi haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Kitobxonlik kompetensiyasini oshirishning zarurati, bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy adabiyotlar, ilmiy adabiyotlarning ahamiyati, sinf kutubxonasi, mutolaa muhiti.

В статье автор размышляет о международном и отечественном опыте повышения читательской компетентности учащихся младших классов, классификации художественных и научно-популярных книг, издаваемых сегодня для детей, по возрасту и интересам, а также интересам учащихся младших классов. в привитии интереса детей к чтению говорится о том, какими педагогическими знаниями и опытом они должны обладать.

Ключевые слова. Необходимость совершенствования читательской компетентности, детская художественная литература, значение научной литературы, классная библиотека, среда чтения.

In the article, the author reflects on the international and domestic experience of improving the reading competence of elementary school students, classifying fiction and popular science books published today for children by age and interests, as well as the interests of elementary school students. in instilling children's interest in reading, it is said what kind of pedagogical knowledge and experience they should have.

Key words. Improve reading competence, children’s fiction, the importance of scientific literature, classroom library, reading environment.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni targ‘ib etish pedagogik jarayonning bir qismi bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlarida kitobxonlik kompetensilarini rivojlantirish bilan birga, boshqa fanlarni o‘zlashtirish natijalarini o‘stirib boradi. Maktab kutubxonasi o‘quvchilarni badiiy adabiyotlar bilan ta’minlaydigan asosiy ma’lumotlar bazasi bo‘lib, bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga doir barcha adabiyotlarni topish mumkin. O‘quvchilarni kitobxonlikga jalb etishda avvalo oilaviy muhit, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimi, maktab kutubxonachisining kasb mahoratiga bog‘liq. Yer yuzida 129.864.880 dona kitob bor. 4-6 yoshli bolalar kitob o‘qishga oson o‘rganadilar. Kitob o‘qish so‘z boyligini oshirib, xotirani mustahkamlaydi.

Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ta’lim tizimini yuksak darajada rivojlantirish, O‘zbekistonda uchinchi renessans davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu masalalar Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalq ta’limi sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha belgilagan vazifalarida ham yaqqol bayon etib berildi.

Texnika rivojlanib, gadjedlar asriga aylangan bir paytda bolalarning mutolaaga qiziqtirish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Lekin kitob mutolaasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ilm-fan, texnika sohasida ilgarilash, o‘sish bo‘ladi.

Tadqiqodlarga ko‘ra, jahonda nashr etilayotgan kitoblarning 70 foiz bolalar uchun, 30 foiz kattalar uchun nashr etiladi. 2023-yil O‘zbekistonda nashr etilgan kitoblarning 25 foiz bolalar uchun nashr etilgan 1400 nomdagi adabiyotlardir.

Bugun Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining samaradorligi bilan dunyoda yetakchi o‘rinda turadi, Finlandiyaliklar kutubxonalar xizmatidan foydalanish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Har bir Finlandiya fuqarosi yiliga o‘rtacha 11 marta kutubxonaga tashrif buyuradi.

Kutubxonalar Finlandiya hayot tarzining bir qismi bo‘lib, kitob do‘konlarida bolalar va yoshlar uchun mo‘ljallangan kitoblar eng ko‘p sotiladigan kitoblar hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxon bolalar qilib tarbiyalashda avvalo, bolalar uchun mutolaa muhitini yaratish zarur. Mahallalarda, maktabda, oilada mutolaa targ‘ibotini kuchaytirish kerak. Kitobxonlikni sinf kutubxonasidan boshlash zarur. O‘quvchilar o‘rtasida kitob marafoni o‘tkazilib, sinfda tashkil qilingan javon bolalarning yoshi va qiziqishiga mos badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan to‘ldirilishi zarur. Sinf rahbari bilan kelishilgan holda o‘quvchilar orasidan sinf kutubxonachisi saylanadi. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalari qanday shakllanayotganini bilish uchun har o‘n besh kunda o‘quvchilar o‘rtasida erkin mavzuda asar qahramonlari, kitobning o‘quvchiga yoqqan syujeti mavzusida yozma ishlar olinadi va baholab boriladi. Eng yaxshi ijodiy ish muallifi badiiy kitob bilan rag‘batlantiriladi. Sinfda o‘quvchilar kitobxonlik kompetensiyasining oshishi boshqa fanlarni o‘zlashtirishda ham ijobiy samarasini beradi. Alisher Navoiy hikmatlarining birida shunday deydi: “Kitob beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir”. Shu sabab maktab kutubxonachilari ham o‘quvchilarni kitobxonlikka to‘g‘ri yo‘naltira bilishi, kutubxonani bolalar bilan gavjum joyga aylantira olishi zarur. “Mutolaa aql uchun eng zarur ne’matdir”. Bolalarni mutolaaga qiziqtirishda maktab kutubxonachisi bilan birga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalar yoshiga mos adabiyotni to‘g‘ri tanlay bilishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishiga ko‘ra adabiyotlarni to‘g‘ri tavsiya eta olishi zarur. Bugun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining hammasi bolalar adabiyoti to‘g‘risidagi bilim, badiiy asarning shaxs tarbiyasiga ta’siri, fanlarni o‘zlashtirishda mutolaaning o‘rni va kitobni o‘quvchiga saralagan holda taqdim etish malaka va ko‘nikmalariga ega, deb aytolmaymiz. Sababi “Bolalar adabiyoti” fani pedagogika yo‘nalishidagi oliygohlarda tanlov fan sifatida kiritilgan.

Bolalarga ilmiy-ommabop va badiiy kitob tanlashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi mezonlarni bilishi zarur:

1. Bola yosh auditoriyasini inobatga olgan holda o‘quvchiga badiiy estetik zavq bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblar: Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi zarur. Bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar o‘quvchida ijobiy fazilatlarni shakllantirishi kerak: (7-8 yoshdagi bolalarga 100-180 so‘zdan iborat kichik hajmdagi matnlarni o‘qish tavsiya etiladi. Bunda matn shrifti 14-16 kenglikdan kichik bo‘lmasligi zarur.) Katta hajmdagi kitoblar o‘quvchini zeriktirib qo‘yishi mumkin. Suratlari rangli, kitob varog‘ining 50 foizdan kam bo‘lmagan qismini egallashi zarur. Bugungi kunda xorijda 3D formatdagi visual kitoblar keng nashr etiladi.

2. O‘quvchiga bilim berishi bilan birga, unda mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan ilmiy kitoblar. (Mening birinchi ensiklopediyam, Quvnoq tadqiqotlar turkumidan.)

Badiiy kitoblar qanday tanlanadi? O‘quvchiga badiiy kitob tavsiya qilishdan avval badiiy asarlarning janr jihatdan biri biridan farqini bilib olamiz.

Badiiy kitoblar janriga ko‘ra nazm (poetik), nasr (prozaik) turga bo‘linadi. Poetik janrdagi kitoblar she’riy uslubda yoziladi.

Bolalar shoirlari Zafar Diyor, Shukur Sa’dulla, Po‘lat Mo‘min, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Qambar Ota, Dilshod Rajab, Xudoyberdi Komilov, Kavsar Turdiyeva, Orif To‘xtash kabi shoirlarning asarlari kichik yoshdagi kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydi, qofiyalari jarangdor, bo‘g‘inlari sodda, so‘z tarkibi bola lug‘atiga mosligi bilan ajralib turadi va mutolaaga tavsiya etiladi.

Nasriy asarlarga ertak, hikoya, qissa kiradi. Prozaiklardan Xudoyberdi To‘xtaboyev, Yayra Sa’dullayeva, Erkin Malik, Farhod Musajonov, Xidoyat Olimova, Muhabbat Hamidovalar sara qissa, hikoya, ertaklari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik kompetensiyasini oshirish uchun avvalo, kitobxonlik so‘g‘lom mutolaa muhitini yaratish zarur. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zi kitobxon bo‘lishi kerak. Respublika bolalar kutubxonasi tashabbusi bilan 2023-yil 3-mayda kitobxonlik forumi o‘tkazildi. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra 1994- yil maktab o‘quvchilarining kitobxonlik darajasi 24 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatgich biroz pasaygan.

Yangi avlod bolasi qanday kitoblarga qiziqadi? 20-30 yil avval bolalar uchun eng yaxshi asarlar zamonaviy bolalar uchun biroz eskirmaganmi? Bu kabi savollarni ham ko‘rib chiqish, fantastik ruhdagi adabiyotlarni zarur bo‘lsa, buyurtma asosida yozdirish kerak.

Rivojlangan davlatlarda bolalarning badiiy adabiyot mutolaasiga ota-onalar alohida vaqt ajratadilar, farzandlari bilan kitob do‘konlariga borish va kitob tanlashga katta e’tibor qaratadilar. Kichik yoshdagi bolalar to‘g‘ri ovqatlanish, sport to‘garaklariga qatnashish, badiiy va musiqiy san’atning istalgan bir turi bilan shug‘ullanib qolmay, kitob o‘qishga ham shunday vaqt ajratadilar. Bolalarga tanlanadigan kitoblar me’yor va standartlar asosida tasniflanadi.

Internet ijtimoiy tarmoqlarda mutolaaga chorlaydigan reklama, layfxak va vaynlarni tomosha qiladilar.

Yangi nashr etilgan kitob reklamasi tarmoqlarda tez-tez aylanadi va bu uning yanada ommalashishiga sabab bo‘ladi. Kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar shaklan o‘zgarib, takomillashmoqda. Bosma ko‘rinishdagi kitoblar audio va vizual kitob ko‘rinishiga kelmoqda. Bolalar uchun nashr etilayotgan kitoblarni ikki katta guruhga tasniflash mumkin. Bular: badiiy va ilmiy kitoblar. Bolalar uchun nashr etiladigan badiiy kitoblar she’riy kitoblar (she’riy ertak, she’riy qissa va h.k.) va nasriy kitoblar (roman, qissa, fantastik asarlar, ertak, hikoya, rasmli hikoyalar, kichik hajmdagi komikslar)ga ajratiladi.

Yevropada kichkintoylar uchun ertak kitoblar (Fairy tales) keng ommalashgan kitoblardir. Ilmiy va badiiy kitoblar har birining muqovasiga qaysi yoshdagi o‘quvchiga mo‘ljallangani to‘g‘risida +0, +2-3, +5 kabi aniq ko‘rsatmali belgilar qo‘yiladi. Mutolaa madaniyati gazeta va jurnallarni o‘qish orqali ham shakllanadi. Shuning uchun bolalarni ko‘proq badiiy adabiyot, kitob mutolaasiga qiziqtirish ahamiyatli. Germaniyada boshlang‘ich ta’limda badiiy adabiyotga ham alohida e’tibor qaratiladi. Maktablarida boshlang‘ich sinflarda ustoz kichkintoylarga bitta badiiy kitobni (yilda bir marta) tavsiya qiladi. Ota-onalar do‘konga borib o‘sha kitobni sotib olishar ekan. So‘ngra hamma bolalar kitobni uyida o‘qib, sinfda keng muhokama qilishar ekan. Kitob nima haqida, u qaysi tomondan yoqdi yoki aksincha nega yoqmadi?... Bu metod orqali bolalar kichikligidan kitob mutolaasiga o‘rgatib boriladi.

Alohida ta’limga muhtoj bolalarga imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kitoblar ovozli, visual, 3 D shakldagi kitoblar tavsiya etiladi.

Bilim kitob orqali qo‘lga kiritiladi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig" asarida bilimning ahamiyatini yuksak darajaga ko‘taradi. “Kishi bilimi bilan yechilmaydigan jumboq yo‘q” deydi. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilqish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Yosh kitobxon” tanlovi bo‘lib o‘tmoqda. O‘quvchilarga avtomashinalar taqdim etilayotgani maktab o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Mahalla, maktablarda “Zukko kitobxon”, “Eng yaxshi kitobxon”, “Kitobxon oila” tanlovlarini joriy etilishi, yoshlar qalbida badiiy adabiyotga mehr uyg‘otishga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda kitibxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo‘lgan Xitoy kichik yoshdagi bolalarga fantastik ruhdagi adabiyotlarni o‘qishni vazifa qilib topshiradi. Oradan yillar o‘tib, aynan shu avlod misli ko‘rilmagan darajada ixtirolar qildilar. Fantastik asarlardagi ruh ishlab chiqarish sanoatida o‘z aksini topdi, mashinasozlik, maishiy texnika, qurilish, shaharsozlik kabi o‘nlab sohalar rivojlandi.

Taklif sifatida bermoqchi bo‘lgan tavsiyalarimiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv rejasiga haftada ikki soat sinfdan tashqari o‘qish soatlarini kiritish, ta’til topshiriqlari uchun fantastik asarlarni o‘qish uchun vazifa qilib berish bolalar o‘rtasida kitobxonlik kompetensiyasining oshishida samarali natija beradi. Mutolaa soatida tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar yuzasidan insho, bayon yozish yozma nutqini rivojlantirish, o‘g‘il-qizlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To‘xliyev B., Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, –T., 1991.

2. “Baxtli bola ma’naviyati” – Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. II qism. 3-7 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2018. - 260 b.

3. “Umumiy pedagogika” – Ibraimov X., Quronov M. – T.: “Shaffof”, 2023-y.

4. Abdullayeva N. “Bolalar adabiyoti” – T.: “Evrika” nashriyoti, 2024-y.

5. http:t.me/RespublikaBolalarKutubxonasi

Sayyora AZIMOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti tayanch doktoranti

OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH – TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI (Oiladagi ta’lim-tarbiya muhitida)

Annotatsiya

Maqolada oilada farzand tarbiyasi, tarbiyaning turlari, ota-onalarning bola tarbiyalashda yo‘l qo‘yadigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tajriba va takliflar berilgan. Shuningdek, muallif demokratik tarbiya haqida fikr yuritib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Tarbiya turlari, ota-ona burch va vazifalari, demokratik tarbiya, ko‘p bolali va kam bolali oilalar, tarbiyadagi xatolar.

В статье представлен опыт и предложения по воспитанию детей в семье, виды воспитания, недостатки, которые допускают родители в воспитании детей, и их устранение. Автор также размышлял о демократическом воспитании.

Ключевые слова. Виды воспитания, родительские обязанности и обязанности, демократическое воспитание, многодетные и малодетные семьи, ошибки в воспитании.

The article provides experience and suggestions on the upbringing of children in the family, types of upbringing, the shortcomings that parents allow in raising children and their elimination. The author also reflected on Democratic upbringing.

Key words. Types of upbringing, parental duties and responsibilities, democratic upbringing, large and small families, mistakes in upbringing.

O‘zbek xalqining eng mo‘tabar va mas’uliyatli mashg‘ulotlaridan biri tarbiyadir. Zotan xalqni xalq, millatni millat qilib ko‘rsatuvchi rango rang narsa va hodisalar tarbiya tufaylidir.

Milliy istiqlol tantanasidan ong va milliy taffakurni shakllantrish, manaviyat va ma’rifatni yuksak pog‘onaga ko‘tarishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu muhim muammolar faqat tarbiya tufayli hal qlishi mumkin. Darhaqiqat, tarbiya hikmati istiqbol qudratidir. istiqbol qudrati deganda, inson aql zakovatining yuksakligi, jamiyat va davlat ravnaqi, nurli ufqlari, jahon miqyosidagi obro‘ e’tiborini anglamoq lozim. Bu ulug‘vorlikka shak shubhasiz, tarbiya tufayli erishiladi.

Shuning uchun hamisha ajdodlarimiz tomonidan tarbiyaga juda katta ahamiyat berilgan. Tarbiya deganda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi turli-tuman muomala-munosabat, faoliyat, sa’y-harakat, o‘zaro tasirini tushunmoq kerak. Inson ma’naviyati va ma’rifati, aql-zakovati, yuksak axloq va odobi, serqirra iqtidori va salohiyati, diyonati va jasorati va shu kabilar tarbiya mahsulidir. Tarbiya bir qolipga solingan yohud raqamga joylangan jarayon emas. Bu haqida tarbiyashunos Safo Ochil shunday yozadi: “Tarbiya berish deganda kimnidir maxsus bir xonaga o‘tqazib, faqat pand-nasihat berishni emas, balki o‘yin davomida, uy yumushlari jarayonida, ta’lim va ilm o‘rgatish vaqtida hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo‘sinda tushuntirish, qolaversa, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim. Shu omillar bir-biri bilan qo‘shib

olib borilishi lozim. Inson, asosan, ikki yo‘l bilan tarbiyalanishi mumkin: birovlarning bevosita ta’siri, o‘rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o‘gitlari, asarlarini o‘qish oraqali; inson o‘zining fikrlashi, odamlar xatti-harakitidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosa chiqarib olishi, eng qudratlisi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin”.

Tarbiyachi deganda bizningcha, faqatgina ota-ona, bolalar bog‘chalari tarbiyachilari yoki maktab o‘qituvchi-murabbiylar emas, balki qo‘ni-qo‘shni, qishloq yoki mahalla ahli, xullas, shu o‘rinda bolalarining tanqidchilik psixologiyasini ham unutmaslik zarur. Ular o‘z ota-onasidan tashqari boshqalarga ham taqlid qilishi mumkin. Demak, bolalarning tarbiyalanganligi ularni qurshab olgan insonlar va atrof-muhitga ham bevosita bog‘liq.

Bugungi tarbiya istiqbol ko‘zgusidir. Zotan, kelajak buykligi tarbiya orqali yaratiladi. Tarbiyasiz odam hech narsaga qodir emas. bu o‘rinda “hech narsaga” so‘zini ezgulikka, yaxshilikka ma’nosida ishlatamiz. Ezgulik va yaxshilik iymon-e’tiqod farzandidir.

Oila jamiyatning bosh bo‘g‘ini, jamiyatning taraqqiyoti va rivoji oilalarning farovonligi, unda tarbiya topayotgan o‘g‘il-qizlarning tarbiyasiga bevosita bog‘liq. Go‘dak dunyoga kelishining ilk kunidanoq ota-ona uni parvarish qilishi bilan birga pedogogik tarbiya beradi.

Tarbiya uzluksiz va uzviy jarayon bo‘lib, ota-onalarning pedogogik tarbiyasi va tajribasi yetarlicha bo‘lmasa, bu jarayonda kamchiliklar va tuzatib bo‘lmas xatolar yuzaga kelishi mumkin.

Oilada tarbiya bolaning hayotiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, quyidagi turlarga ajraladi:

– aqliy tarbiya;
– ruhiy tarbiya;
– jismoniy tarbiya;
– axloqiy tarbiya;
– estetik tarbiya;
– huquqiy tarbiya;
– vatarparvarlik ruhidagi tarbiya;
– iqtisodiy tarbiya;
– ekologik tarbiya;
– kognitiv;
– mehnat tarbiyasi;
– ma’naviy tarbiya;
– qadriyatlar tarbiyasi;
– badiiy tarbiya
– ijtimoiy tarbiya.

Farzandni tarbiya qilishdan avval ota-onalarning o‘zi yuqoridagi tasniflar bo‘yicha yetarli bilim va malakaga ega bo‘lishlari zarur. Chunki turmush davomida bularning barchasi bola tarbiyasida zarur bo‘lgan bilim va omillar sanaladi. Farzand go‘dakligida ota-onalar uning aqliy va jismoniy tarbiyasi bilan ko‘proq shug‘illanadilar, esini tanib ulg‘aya boshlagach, unga ekologik (atrof-muhitni toza saqlash, jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish, suvdan tejab foydalanish kabi) bilimlar qo‘shilib boradi. Maktab yoshiga yetgach, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy tushunchalar bosqichma-bosqich singdiriladi[1]. Mehnat tarbiyasi esini taniy boshlagandan boshlab, kasb-hunarli bo‘lgunga qadar uzviy davom etadi.

Shaxs tarbiyasi oilada shakllanadi, sog‘lom muhitli oilada sog‘lom fikrli o‘g‘il-qizlar

[1] http://wekepediya.ru

ulg‘ayadi. Afsuski, bu jarayon barcha oilalarda bir xil kechmaydi. Sotsiologlar oilalarni quyidagicha tasniflaydi:

Oila turlari:

Butun tarkibli (ota-ona va farzandlar).

Yolg‘iz boquvchili (ota yoki ona va farzandlar).

Ko‘p bolali (uch va undan ortiq bolali oilalar).

Kam bolali (2 nafar farzand va farzandi yo‘q oilalar);

Katta oilalar (bir necha avlod va oilalardan tarkib topgan oila) bo‘linadi. Yosh oilalardagi muhit, buva-buvisi bor oilalardagi muhitdan biroz farq qiladi.

Bola voyaga yetadigan oilaviy muhit ma’naviy va moddiy sharoit uning tarbiyasiga bevosita va bilvosita ta’sir etadi. Ota-onalar bolani to‘g‘ri tarbiyalashi uchun farzandlari bilan o‘zaro do‘stona munosabatda, xushmuomila bo‘lishi, kattalarga hurmat, kichiklarga bag‘rikenglik, ko‘p bolali oilalarda aka-uka, opa-singillari bilan totuvlik hislatlarini shakllantirishi kerak. Chunki tarbiyaning asosiy qismi oilada beriladi. Ta’lim muassasalarida bu tushunchalar to‘liriladi. Ba’zi bir oilalarda ota-onalar demokratik tarbiya tamoyillari asosida yo‘l tutadilar. Demokratik tarbiya nima?

Demokratik tarbiya ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar suhbat va o‘zaro ta’sir orqali qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, ota-onalar o‘z farzandlarini tarbiyalash jarayonida qanchalik muhimligini tushunishadi, shu bilan birga o‘z-o‘zini rivojlantirish huquqini bolaning o‘zida qoldiradilar. Bolaning qarorini hurmat qiladilar, qo‘llab-quvatlaydilar, inobatga oladilar. Bunday tarbiya uslubi farzandning o‘z-o‘zini rivojlantirishga ota-ona munosabati ochiqligini ko‘rsatadi.

Aksincha yana bir guruh ota-onalar farzandining xatti-harakatlariga qarab bolaga munosabatlarini ham o‘zgartirishadi. Ammo bu kabi yo‘l tutish to‘g‘ri emas. Quyida bola tarbiyasida ota-onalar yo‘l qo‘yadigan xato va kamchiliklar sanab o‘tiladi: Bu kamchiliklar ota-onalarning pedagogik bilimlari yetishmasligidan vujudga keladi.

– bolaning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaslik;

– bolada o‘zi amalga oshira olmagan orzularni ko‘rish;

– tarbiyada me’yoridan tashqari qattiqqo‘llik;

– bola orzusiga befarqlik;

– qaysidir xatti-harakati uchungina bolani yaxshi ko‘rish[2].

Ko‘pchilik ota-onalar bolani boshidan egib olish zarur, degan tushunchada bo‘lishadi. Farzand tarbiyasida bolagi me’yoridan ortiq qattiqqo‘l bo‘lishadi. Bu tarbiyaning eng to‘g‘ri usuli, deb o‘ylashadi. Bola bajaradigan har bir xatti-harakat ota yoki onaning istagiga binoan amalga oshirilish kerak, deb o‘ylashadi. Bu toifadagi ota-onalarning bolalari mustaqil fikriga ega bo‘lmagan, ota-onasining ixtiyoridan tashqari o‘zi biror ishni mustaqil bajara olmaydigan bola bo‘lib voyaga yetishishadi. Bolani imkon qadar mustaqil qaror chiqarishga, uning imkoniyatlarini yuqori baholashga o‘rganish zarur. Bola imkoniyatlari to‘g‘ri baholansa, o‘ziga ishonchi yanada ortadi.

Bolada o‘zi amalga oshirolmagan orzularni ko‘rishni xohlash ham ota-onalarning xato mulohaza yuritayotganidan dalolat beradi. Bolaning erkinligini chegaralaydi. Chunki u alohida individ, fe’l-atvori o‘xshash bo‘lgani bilan qiziqishlari ota-ona qiziqishlariga butunlay yot bo‘lishi mumkin. Bunda tabbiy muhit ham sabab bo‘lolmaydi. Masalan bastakorlar oilasida dunyoga kelgan farzand musiqaga qiziqadi, degan fikrga kelish noo‘rin. Garchi bu farzand barcha musiqa asboblari bilan yaxshi tanish va ularni cha-

[2] Ibraimov X., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., 2023..

lishdan xabardor bo‘lsa-da.

Bola orzusiga befarqlik – ota-onalar yo‘l qo‘yadigan eng katta xatolardan. Har bir bolaning qaysidir sohaga qaratilgan qobiliyati bo‘ladi, bu qobiliyat rag‘bat va e’tibor orqali rivojlantiriladi. Agar ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va orzulari qo‘llab-quvatlanmasa, individdagi qiziqish so‘nib borishi mumkin.

Farzandni qaysidir qilgan ishi yoki xatti-harakati uchun yaxshi ko‘rish bolaning ruhiyatida ta’magirlik, maqsadidan chalg‘ish tuyg‘ularining shakllanishiga olib keladi. Bolani to‘g‘ri tarbiyalash uchun ota-onaning pedagogik bilimi boy bo‘lishi kerak. Bu jarayonda bolaning jinsi, fe’l-atvori, yosh xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratish zarur bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuksak axloqli, madaniaytli, bir so‘z bilan aytganda jamiyat talablariga mos yosh avlodni tarbiyalashda eng muhim vazifalarimizdan biri tarbiyachilarimizning tarbiya borasida namuna bo‘lishini ta’minlashdir. Zero ming yillar davomida faylasuflar, pedagoglar tarbiyachi bergan nasihatiga o‘zi amal qilmas ekan, tarbiyadan ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmasligini ta’kidlaganlar. Har bir ta’lim subyekti hoh u o‘qituvchi, hoh murabbiy, yoki ota-ona bo‘lsin haqli ravishda o‘ziga savol berishi lozim bo’ladi. Ya’ni tarbiyachi sifatida bolalarga namuna bo’la oladimi? Demak, barkamol avlod tarbiyalashda ta’lim tizimiga keng e’tibor qaratayotgan hukumatimiz ushbu maqsadni amalga oshirishda bo‘lg‘usi ota-onalarimining pedagogik madaniyatini shakllantirish masalasini hal qilmasdan turib ko’zlangan maqsadga erishib bo’masligini e’tiborga olishlari maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musurmonova O. Oila – jamiyat tayanchi: monografiya / – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.

2. Ibraimov X., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., 2023.

3. Safarova R.G. Iqtidorli o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari va vositalari. “Ta’limda kognitiv jarayonlarni faollashtirishning ilmiy-metodik talqini (5 yondashuvi: muammoga, loyihaga, ishlab chiqarishga, jarayonga va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish)” mavzusidagi an’anaviy ko‘p tarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023-yil 16-17-iyun.

4. Quronov M. “Otalar kitobi”. – T.: “G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 2007. 190 b.

4. http://pedago.uz.

Muattar UMAROVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti kimyo (kechki) yo'nalishi, V-bosqich talabasi, ToshDAU, ''Biokimyo va fiziologiya'' kafedrasi kabinet mudiri
Rixsivoy ZIYAYEV,
Toshkent davlat agrar universiteti, ''Biokimyo va fiziologiya'' kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

ORGANIK KIMYODA OKSIDLANISH REAKSIYALARINI O'RGANISH-II
(Spirt, aldegid va ketonlar misolida)

Annotatsiya

Maqolada organik kimyoda oksidlanish reaksiyalarning o'rganishning davomi bo'lib, spirtlar, aldegid va ketonlarning kimyoviy xossalarini o'rganishi yoritilgan va laboratoriya tajribalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlar, aldegidlar, ketonlar, oksidlanish reaksiyalar, "kumush ko'zgu" reaksiyasi, Popov qoidasi, α-uchlamchi uglerod atomi, kaliy permanganat, kaliy bixromat.

Статья является продолжением изучения реакций окисления в органической химии, в процессе изучения химических свойств спиртов, альдегидов и кетонов в статье освещено изучение их окислительных свойств, а также представлены лабораторные эксперименты.

Ключевые слова. Первичные, вторичные и третичные спирты, альдегиды, кетоны, реакции окисления, реакция "серебряного зеркала", правило Попова, α-третичный атом углерода, перманганат калия, бихромат калия.

The article is a continuation of oxidation reactions in organic chemistry; in the process of studying the chemical properties of alcohols, aldehydes and ketones, the article highlights the study of their oxidative properties, and also presents laboratory experiments on their oxidation

Key words. Primary, secondary and tertiary alcohols, aldehydes, ketones, oxidation reactions, "silver mirror" reaction, Popov's rule, α-tertiary carbon atom, potassium permanganate, potassium biromate.

Umumta'lim maktablarning 10-sinfi organik kimyoda organik birikmalarning oksidlanish reaksiyalarini o'ganishni davom ettirib, bu maqolada kislorod saqlovchi organik birikmalarning (spirtlar, aldegid va ketonlar misolida) oksidlanish reaksiyalari, ularning oksidlovchilik xossalariga oid laboratoriya tajribalar asosida chuquroq o'rganiladi.

1. Spirtlarning oksidlanish reaksiyalari. Spirtlarning oksidlanish reaksiyasida gidroksil guruhining (– OH) vodorodi, ham radikalning vodorod atomlari reaksiyada qatnashadi.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlar bir xil sharoitda, masalan, sulfat kislota ishtirokida $KMnO_4$ yoki $K_2Cr_2O_7$ oksidlovchilar ta'sirida oksidlansa, birlamchi spirtlardan aldegidlar, ikkilamchi spirtlardan ketonlar hosil bo'ladi. Uchlamchi spirtlar esa kuchli oksidlovchilar ta'sirda – C – C – bog'lar uzilib, kichik molekulali birikmalar aralashmasi hosil bo'ladi:

$$\overset{-1}{5CH_3\text{-}CH_2\text{-}OH} + 2\overset{+7}{KMnO_4} + 3H_2SO_4 \longrightarrow 5\overset{+1}{CH_3\text{-}CHO} + K_2SO_4 + 2\overset{+2}{MnSO_4} + 8H_2O$$

$$C^{-1} - 2e^- = C^{+1} \quad 2 \mid 5$$
$$Mn^{+7} + 5e^- = Mn^{+2} \quad 5 \mid 2$$

$$\overset{-1}{3CH_3\text{-}CH_2\text{-}OH} + \overset{+6}{K_2Cr_2O_7} + 4H_2SO_4 \longrightarrow 3\overset{+1}{CH_3\text{-}CHO} + K_2SO_4 + \overset{+3}{Cr_2(SO_4)_3} + 7H_2O$$

$$C^{-1} - 2e^- = C^{+1} \quad 2 \mid 3$$
$$2Cr^{+6} + 2\cdot 3e^- = 2Cr^{+3} \quad 6 \mid 1$$

Organik kimyoda ko‘pincha organik birikmalarning oksidlanish reaksiyalari qisqa yozilib, oksidlovchilar shartli (O) bilan ifodalanadi:

$CH_3 – CH_2 – CH_2OH + (O) \rightarrow CH_3 – CH_2 – CHO + H_2O$
birlamchi spirt — propion aldegid (propanal)

$CH_3 – CHOH – CH_3 + (O) \rightarrow CH_3 – CO – CH_3 + H_2O$
ikkilamchi spirt (propanol-2) — dimetilketon (propanon)

Metil spirti yuqori temperaturada mis(II)-oksidida oksidlansa chumoli aldegid hosil bo‘lganligini uning o‘ziga xos hididan bilish mumkin. Bu reaktsiya birlamchi spirtlarni identifikatsiyalashda sifat reaktsiya hisoblanadi:

$CH_3\text{-}OH + CuO \rightarrow CH_2 = O + Cu + H_2O$

Metanol va etanollar havoda katta alanga berib to‘liq yonadi. Spirtlarda uglevodorod radikallari kattalashgan sari ularni havoda dud hosil qilib yonishi kuchayadi. Spirtlarning yonishini umumiy tenglamasi:

$$C_nH_{2n+1}OH + 3n/2O_2 \rightarrow nCO_2\uparrow + (n+1)H_2O\uparrow + Q$$

Etil spirtining yonishi:

$$CH_3CH_2OH + 3O_2 \rightarrow 2CO_2\uparrow + 3H_2O$$

Aldegidlarning oksidlanish reaksiyalari. Aldegidlar oson oksidlanadigan birikmalardir. Ular hatto havo kislorodi yoki kuchsiz oksidlovchilar, masalan, kumush oksidining ammiakdagi eritmasi va mis(II)-gidroksid ta’sirida oson oksidlanadi. Aldegidlarning kumush oksidining ammiakli eritmasi bilan oksidlanishi “kumush ko‘zgu reaksiyasi” deyiladi. Bu reaksiyadan aldegidlarning sifat analizida keng foydalaniladi:

$CH_3 – CHO + 2[Ag(NH_3)_2]^+OH^- \rightarrow CH_3 – COOH + 2Ag\downarrow + 4NH_3\uparrow + H_2O$
sirka aldegid — sirka kislota

Bu reaksiyani soddalashtirilgan tenglamasi:

$$CH_3\text{-}CHO + Ag_2O \longrightarrow CH_3COOH + 2Ag\downarrow$$

Yangi hosil qilingan $Cu(OH)_2$ cho‘kmasiga aldegid eritmasi qo‘shib qizdirilganda aldegid karbon kislotagacha oksidlanadi. Bunda $Cu(OH)_2$ esa CuOH ga qaytarilib, so‘ngra Cu_2O ning chiroyli qizil-sariq cho‘kmasini hosil qiladi:

$R – CHO + 2Cu(OH)_2 \rightarrow R – COOH + 2CuOH + H_2O$


$CuOH \rightarrow Cu_2O\downarrow + H_2O$

Bu reaksiya ham “kumush ko‘zgu reaksiyasi” kabi aldegidlarga xos sifat reaksiyadir.


Ketonlarning oksidlanish reaksiyalari. Ketonlar oksidlovchilar ta’siriga aldegidlarga nisbatan ancha chidamli. Ular havo kislorodi va kuchsiz oksidlovchi, masalan, kumush oksidining ammiakli eritmasi ta’sirida oksidlanmaydi. Ketonlar faqat ishqoriy va kislotali muhitda $KMnO_4$ yoki $K_2Cr_2O_7$ kabi kuchli oksidlovchilar ta’siridagina oksidlanadi. Oksidlanish jarayonida keton molekulalari parchalanadi.

Rus kimyogari Aleksandr Nikiforovich Popov (1840-1881) turli tuzilishli ketonlarning oksidlanish reaksiyalarini izchil o‘rganish natijasida, keton molekulalari karbon kislotalar yoki ketonlarga parchalanishini aniqladi.

Agar nosimmetrik tuzilishli ketonlar oksidlanishi natijasida mumkin bo‘lgan to‘rt kislotaga parchalanadi (Popov qoidasi):



Agarda keton karbonil gruppaga nisbatan α-holatda joylashgan uchlamchi uglerod atomi tutsa, u holda oksidlanish natijasida uch karbon kislota va bir yangi keton hosil bo‘ladi:



Quyida kimyodan laboratoriya ishlarida va maktablarda “Mo‘jizasiz mo‘jizalar”, “Mo‘jizalar olamiga sayohat” nomli kimyo kechalarida o‘tkaziladigan spirt va aldegidlarning oksidlanishiga doir mo‘jizaviy kimyoviy tajribalardan namunalar keltiramiz.

Laboratoriya tajribalar:

1-tajriba Etil spirtini oksidlanishi. 1) Probirkaga 2-3 ml etil spirt va 1ml atrofida $KMnO_4$ ning 1 foizli eritmasidan quyiladi, so‘ngra 1-2 ml 10 foizli H_2SO_4 eritmasidan qo‘shib, aralashma bir oz ohista qizdiriladi. Bunda $KMnO_4$ eritmasining pushti rangi yo‘qoladi va etil spirti oksidlanib, sirka aldegid hosil bo‘ladi. Etil spirtining oksidlanishini quyidagi mo‘jizaviy tajriba orqali ham olib borish mumkin.

2) Suv ostida “mushakbozlik”. 25 ml yoki 50 ml hajmli silindrga 4-5 ml konsentrlangan sulfat kislota, uning ustiga ohistalik bilan silindrning ¾ qismigacha devori orqali etil spirti quyiladi. Bunda silindr ichida ikkita: ostida kislota, ustida esa spirt qatlami hosil bo‘ladi. So‘ngra kaliy permanganat kukunidan ozgina tashlanadi, natijada kukun spirt qatlamidan pastga o‘tib, kislota qatlamiga kelganida ikki qatlam orasida uchqunlar chaqnay boshlaydi. Keyinchalik bu uchqunlar ko‘payib, mushakka o‘xshab yonib yuqoriga ko‘tarila boshlaydi.

Tajriba qorong‘ida jozibali chiqadi. Bunda $KMnO_4$ sulfat kislota ta’sirida atomlar kislorod hosil qiladi. Bu kislorod juda faol va kuchli oksidlovchi bo‘lganligi sababli spirtni yondirib yuboradi. Bu mo‘jizali reaksiyaning tenglamasini tuzish o‘quvchilarga topshiriq beriladi.

2-tajriba. Metanolni oksidlab metanal olish. Probirkaga 2-3 ml metil spirti quyib, unga qip-qizil cho‘g‘ holatigacha qattiq qizdirilgan spiral qilib o‘ralgan mis simi tashlanadi va darhol probirkani chayqatiladi. Bunda qizdirish natijasida hosil bo‘lgan mis (II)-oksid sof holdagi misgacha qaytariladi, metil spirti esa chumoli aldegidga ay-

lanadi. Hosil bo‘lgan chumoli aldegidni hididan yoki aldegidlarda xos sifat reaksiya (“kumush ko‘zgu reaksiyasi”) orqali bilish mumkin.

3-tajriba. Aldegidlarga xos sifat reaksiyalar.

a) “Mis ko‘zgu reaksiyasi”. Toza probirkaga 2-3 ml 2 foizli chumoli (yoki sirka) aldegidi eritmasidan olib, unga NaOH eritmasidan 1-2 ml qo‘shing. So‘ngra propirkaga havorang cho‘kma hosil bo‘lguncha tomchilatib mis (II)-sulfat eritmasidan qoshiladi va aralashma qizdiriladi. Bunda avvalo CuOH ning sariq cho‘kmasi, so‘ngra chiroyli qizil cho‘kma Cu_2O hosil bo‘ladi.

*b) “Kumush ko‘zgu reaksiyasi”*ni quyidagi jozibakor tajriba orqali bajarish mumkin. 250 ml hajmli toza tagi dumaloq kolbaning ¼ qismigacha $AgNO_3$ ning 2 foizli eritmasi quyiladi. Uning ustiga ammiakning 2 foizli eritmasidan sekin-asta qo‘shiladi. Bunda dastlab kumush giroksidining rangsiz cho‘kmasi hosil bo‘ladi va ammiak eritmasini qo‘shish davom ettirib, cho‘kma eritiladi. So‘ngra kolbaga uning bo‘g‘zigacha formalin (20 foizli) eritmasi qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan aralashma ehtiyotkorlik bilan suv hammomida (yoki spirt lampachasida) qizdirilsa, shisha kolbaning sirti toza kumush bilan qoplanib, chiroyli “ko‘zgu” hosil bo‘ladi. Fanda “kumush ko‘zgu” reaksiyasi deb nom olgan bu reaksiyadan yangi yil archasini bezatish uchun turli shakldagi chiroyli kumush rangli bezak va o‘yinchoqlar tayyorlashda, kimyoviy sifat analizda esa aldegidlarni identifikatsiyalashda foydalinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyayev R., Umarova M. “Organik kimyoda oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini organish”. Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali, 2023-yil, 5-son, 54 -57 b.

2. Primqulov M., Ziyayev R., Akbarov B., Xaydarov U. Kimyo olamiga sayohat. –T.: O‘zbekiston nashriyoti, - 2015, 123 – 135 b.

3. Ziyayev R., Mirzayev R., Abdusamatov A. Organik kimyo. – “Qaldirg‘och” nashriyoti, –T., 2019, 105-107; 136-137 b.

Mexriddin KUCHKAROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Musurmon YUSUPOV,
Kimyo o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

KIMYOVIY TAJRIBALARNI IJODIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING USLUBIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarda kimyoviy tajriba o‘tkazish qobiliyatini shakllantirishda eksperimentlarning ko‘rgazmalilik, xavfsizlik, tejamkorlik darajalarini oshirish yo‘nalishidagi ijodiy yondashuvning imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda kimyo ta‘limidagi laboratoriya tajribalarining muqobil variantlarini ishlab chiqishga urg‘u berilgan. Eksperimentlarning ko‘p muqobil variantlariga ega bo‘lish, tanlov, qiyosiy, tanqidiy o‘rganish imkoniyatlarini vujudga keltirishi asoslangan.

Tayanch so‘zlar. Eksperiment, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv, kimyoviy qonunlar, kimyoviy nazariya, muqobil variant, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash.

В статье аналитически описаны творческие подходы и их возможности в направлении повышения уровня наглядности, безопасности, экономичности химических экспериментов. Он подчеркивает развитие альтернатив лабораторным экспериментам в химическом образовании. Он основан на том факте, что наличие множества альтернатив экспериментам создает возможности для выбора, сравнительного, критического обучения.

Ключевые слова. Эксперимент, индуктивный подход, дедуктивный подход, химические законы, химическая теория, альтернатива, критическое мышление, творческое мышление.

The article, creative approaches and their possibilities in the direction of increasing the levels of demonstration, safety, economy of chemical experiments are analytically described. It emphasizes the development of alternatives to laboratory experiments in chemistry education. It is based on the fact that having many alternatives to experiments creates opportunities for choice, comparative, critical learning.

Key words. Experiment, inductive approach, deductive approach, chemical laws, chemical theory, alternative, critical thinking, creative thinking.

Hozirgi vaqtda maktab o‘quvchilari egallagan bilim darajasidan tashqari, o‘zlashtirilgan kompetensiyalardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishi, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish qobiliyati, kolloborativ muhitda ishlash qobiliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetenligiga ega, o‘z harakatiga real baho bera oladigan faol shaxs bo‘lishi kerak[1]. Binobarin, maktab dasturida belgilangan kimyoviy tajribalar yuqoridagi o‘quv maqsadlarga xizmat qilishi uchun ijodiy yondashuv asosida uning muqobil variantlarini ishlab chiqish ta‘lim jarayonini maqsaqli tashkil etilishi dolzarblik kasb etadi.

Kimyoviy eksperiment vositasida o‘quvchilarning faolligi va kimyoviy tajriba o‘tkazish qobiliyatini shakllantirishda o‘qituvchining o‘qitish ishini aqliy va amaliy faoliyat uyg‘unligi asosida ijodiy tashkil etish mahoratiga bog‘liqdir.

H.V.Lisichkin o‘z asarlarida o‘quvchilarning kimyoviy tajriba o‘tkazish qobiliyatini “kimyoviy qo‘llar” va “modda va kimyoviy jarayonni his qilish” tushunchalari bilan tavsiflaydi.

“Kimyoviy qo‘llar” tushunchasi harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirish, rivojlangan kinestetik va tortishish hissi, vosita reaktsiyasining tezligi, manipulyatsiya qobiliyatlari

va qo‘lda ishlaydigan avtomatizmni rivojlantirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday xususiyatlar “eksperimentni chiroyli, tez, keraksiz harakatlar va texnik xatolarsiz o‘tkazish uchun asboblarni yig‘ish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda eksperiment o‘tkazish va hokazo ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”.

“Modda va kimyoviy jarayonni his qilish” tashqi xususiyatlarni (rang, hid, dispersiya) va kimyoviy reaktsiyalar paytida sodir bo‘ladigan moddalarning o‘zgarishini aniq his qilish va idrok etish, massa va hajmni “ko‘z bilan” baholash, vaqtni his qilish deb hisoblanadi.

V.P.Gorkunov va E.G.Zlotnikov ijodiy eksperimental ko‘nikmalarni quyidagi turlarga bo‘lish to‘g‘risida fikr bildirdilar:

– umumiy ijodiy eksperimental ko‘nikmalar;

– ko‘rsatish malakalari;

– laboratoriya amaliy ko‘nikmalari;

– ijodiy loyihalash malakalari va tashkilotchilik qobiliyatlari.

Ushbu tasnif o‘qituvchining darsdagi faolligini hisobga oladi va shuning uchun o‘quv kimyoviy eksperimentini o‘tkazish ko‘nikmalarining butun tizimiga qo‘llanilishi mumkin.

G.I.Strempler majburiy eksperimental ko‘nikma va malakalarni uch guruhga ajratdi:

– texnik (faoliyatda kimyoviy moddalar, asbob-uskunalar, idishlardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana bilish);

– o‘lchash (suyuqlik va gazlarning harorati, zichligi va hajmini o‘lchash, tortish, olingan natijalarni qayta ishlash); dizayn (qurilmalar va qurilmalarni ishlab chiqarish, ularni ta‘mirlash, takomillashtirish va grafik dizayn).

P.O.Gloriozov fikricha, o‘quvchisining kimyoviy ijodiy eksperiment o‘tkazish kompetensiyalari quyidagilarga ajratish mumkin:

– eksperimental;

– tajriba natijalarini qayd etish qobiliyati va malakasi;

– kimyoviy tildan foydalanish qobiliyati va ko‘nikmalari;

– adabiyot va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalari;

– umumiy tashkiliy va mehnat malakalari va qobiliyatlari.

Kimyoviy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etishning muqobil variantlarini ishlab chiqishda ma‘lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Kimyoviy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etish o‘qitishning interaktivligini ta‘minladi, chunki o‘qituvchi o‘quvchi tomonidan namuna, kimyoviy eksperiment o‘tkazish ko‘nikmalarining tashuvchisi, o‘quvchilar bilan hamkorlik qiladigan va o‘z mahoratidan faol foydalanadigan shaxs sifatida qabul qilinadi. O‘quvchilarda ham o‘zlarining eksperiment o‘tkazish motivi shakllanadi, kimyoviy eksperiment o‘tkazish malakalarini shakllantirishda o‘qituvchi darajasiga erishishga harakat qiladi va bir xil yorqin kimyoviy reaksiyalarni o‘tkazish malakalarini egallash zarurati vujudga keladi. Bunday eksperimentdan foydalanish o‘quv kimyoviy eksperimentini o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishning kognitiv komponentini sezilarli darajada rivojlantirdi. Zero, o‘quvchi o‘qituvchining harakatlarini kuzatib, uning yangi materialni tushuntirishini idrok etib, o‘zining kimyoviy bilimlarini sezilarli darajada kengaytirdi, kimyoviy tajribani ilmiy ijodiy eksperiment sifatida tashkil etish bo‘yicha elementar bilimlarga ega bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchining kimyoviy tajribani ijodiy tashkil etish mahorati o‘quvchilarda hayyotiy muammoli vaziyatlarni real baholash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quvchilarni moddalar dunyosi bilan tanishtiruvchi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradigan ijodiy yo‘lni taqdim etadi.

Kimyoviy eksperimentlarning muqobil variantlariga ega bo‘lish, laboratoriya sharoitiga, reaktivlar ta‘minotiga imkon qadar mos keluvchi, xavfsiz variantlarni tanlab olish va yangi o‘zgartirilgan, yanada takomillashtirilgan variantlarni keltirib chiqarishga imkon yaratadi. Kimyoviy tajribani o‘tkazishda biz algoritmik yondashuvdan foydalanib, o‘quvchilarda maktab kimyoviy ko‘rgazmali tajribalarni o‘tkazish, o‘zlashtirilgan harakatlar va mantiqiy fikrlash operatsiyalarini rivojlantirish, bilimlarning to‘liq tizimini yaratish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyatini beramiz. Masalan, amaldagi uslubiy tavsiyalar asosida laboratoriyada xlor gazini olish, uning xossalarini o‘rganish uchun, vyurs kolbasi, tomizgichli voronka asosida yig‘ilgan qurilma hamda reaktivlardan kaliy permanganat kristallari, konsentrlangan xlorid kislota kerak bo‘ladi.


Mo‘rili shkafda yig‘ilgan qurilmadan foydalanib, tomizgichli voronka yordamida xlorid kislota tomchilatib vyurts kolbasidagi kaliy permanganatga yuboriladi. Xlor hosil bo‘lganligini ko‘rish uchun, uni kolbaga yig‘ib sarg‘ish yashil rangi namoyish etiladi. Bu miqdordagi xlor gazini olish uchun yetarlicha kaliy permanganat va xlorid kislota talab etiladi, bu holat tajribaning xavflilik darajasini yanada oshiradi. Albatta, tajriba mo‘rili shkafda bajarilishi talab etiladi. Bu tajribaning texnokimyoviy variantini ishlab chiqib, bir vaqtda ham tejamkorlikka hamda jarayonning xavfsizligini ta‘minlashga erishish mumkin. Buning uchun ikki tubli probirkani bir tomoniga kaliy permanganat eritmasi 2 ml, ikkinchi tomoniga shuncha miqdorda xlorid kislotadan (kons) solinadi.

Probirka og‘zi o‘tkazuvchi nay o‘rnatilgan tiqin bilan berkitilib, nayning ikkinchi uchi kaliy yodid eritmasi solingan probirkaga tushirib qo‘yiladi. Ikki tubli probirkadagi eritmalar aralashtirilganda, ajralib chiqqan xlor gazi o‘tkazuvchi nay orqali o‘tib probirkadagi kaliy yodid eritmasi bilan ta‘sirlashadi. Natijada hosil bo‘lgan yod rangsiz kaliy yodid eritmasini qo‘ng‘ir rangga bo‘yaydi.

Taklif etilayotgan tajriba variantining quyidagi afzalliklari mavjud.

Ko‘rgazmalilik jihatidan afzalligi: an‘anaviy variantda kaliy permanganat kristallaridan foydalanilgani uchun idish tubidagi qoramtir kristallar o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinmaydi.

Taklif etilgan variantda kaliy permanganatning to‘q qizil rangli eritmasidan foydalanilgani uchun aniq ko‘rinadi. Eritmalar qo‘shilgandan keyin kaliy permanganat rangining o‘zgarishi ham reaksiya belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Laboratoriyada xlorning olinishi

An‘anaviy tajribada variantida hosil bo‘lgan xlor gazining sarg‘ish yashil rangi o‘quvchilarga ko‘rinishi uchun kolbaga yig‘ib olinadi va turli rangdagi fonlarda namoyish etiladi. Mazkur variantda esa hosil bo‘lgan xlor kaliy yodid eritmasiga yuborilishi natijasida yodning qo‘ng‘ir rangi paydo bo‘lishi, oz miqdordagi xlor hosil bo‘lishini ham payqash imkonini beradi. Bundan tashqari eritmalarda o‘tkazilgan tajribada oz miqdordagi xlor gazining hosil bo‘lishi va uni to‘g‘ridan to‘g‘ri kaliy yodid eritmasiga yuborilishi mo‘rili shkafga ehtiyoj qoldirmaydi va jarayonni aniqroq kuzatish, hatto individual bajarib ko‘rish imkonini ham beradi.

Qo‘llaniladigan idish va jihozlarning afzalligi: an’anaviy usulda tajriba uchun vyurts kolbasi, tomizgichli voronka, saqlagichli sklyankalar, mo‘rili shkaf zarur bo‘ladi. Tavsiya etilayotgan tajriba variantida ikki tubli probirka va oddiy probirka talab etiladi, xolos. Jihozlar bilan yaxshi ta‘minlanmagan laboratoriya sharoitida ham ushbu tajribani o‘tkazish imkoni mavjud.


Xavfsizlik jihatidan afzalligi: an’anaviy tajriba variantida qurilmaning germetik bo‘lmasligi, xlorning o‘tkazuvchi nay orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri ishqor eritmasiga botirib qo‘yish natijasida eritmani vyurts kolbasiga tortilib ketishi, ozgina ehtiyotsizlik oqibatida idishlarning shikastlanishi natijasida havoga xlor gazi ajralish xavfi bor. Kichik idishlarda, eritma holatidagi moddalardan oz miqdordagi xlorning olinishi va to‘g‘ri eritmaga yuborilishi bunday xavflardan holi.

Tejamkorlik jihatidan afzalligi: reaktivlar eritma holida juda oz miqdorda foydalaniladi. Ko‘rgazmalilik darajasini oshirgan holatda an’anaviy tajriba variantiga nisbatan 20-30 marta kam reaktiv sarflanadi.

Sarflanadigan vaqt jihatidan afzalligi: rn’anaviy tajriba variantida reaksiyani boshqarib turish uchun tomizgichli voronkadan foydalaniladi va hosil bo‘lgan xlorni yig‘ib olish uchun ko‘p vaqt talab etiladi. Tavsiya etilgan variantda bir necha daqiqa ichida jarayonni kuzatish imkoniyati mavjud.

Qo‘shimcha afzalliklari: ayni bir tajribada xlorning olinishi, xlorning oksidlovchilik xossasi, yodning olinishi jarayonlarini o‘rganish mumkin.

Kaliy permanganat eritmasidan foydalanib xlor olish uchun, gaz olish asbobidan foydalanish ham mumkin. Buning uchun gaz olish asbobiga kaliy permanganat eritmasidan solib, uning voronkasi orqali eritma tubidan xlorid kislota yuboriladi. Hosil bo‘lgan xlor suvda erigan holatda qolsa ham, ehtiyot chora sifatida gaz o‘tkazuvchi nay bromli suvga botirib qo‘yiladi. Xlorid kislota quyilganda kaliy permanganatning rangi o‘zgarishi va hosil bo‘lgan eritmani bromli suvga yuborilganda rangsizlanishi xlor hosil bo‘lganligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Gaz olish asbobi yordamida xlor eritmasini hosil qilish

Maktab kimyoviy tajribalarni o‘tkazishga ijodiy yondashuv o‘quvchilarda faol, tizimli, moslashuvchan bilimga hamda ilmiy bilimlar mazmunini tahlil qilish va tizimlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lganda, shuningdek, darslarda mantiqiy ketma-ketligi bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy harakatlarni amalga oshirgandagina maktab kimyoviy tajribalarini o‘tkazish qobiliyatini samarali shakllantirish mumkin.

Ta’lim samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning bilim saviyalari bilan birga ularning tanqidiy, ijodiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini ham oshirishga xizmat qiluvchi eksperimentlarning yangi variantlarini tashkil etish va ularni ommalashtirib borish, doimo kimyo o‘qituvchilari oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asamovich K. M. Organizing laboratory work in the view of a didactic game. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2022, 2(12), p. 403-406.

2. Лисичкин Г. В. Химические способности и возможности их диагностики /Г.В.Лисичкин // Естественнонаучное образование: взаимодействие средней и высшей школы:– М.: Изд-во Московского университета, 2012. – С. 157–174.

3. Гаркунов В. П. Формирование экспериментальных умений студентов на практических занятиях по методике химии / В. П. Гаркунов, Э. Г. Злотников // Совершенствование химической и методической подготовки будущего учителя химии средней школы и профессиональной школы. – Л., 1989. – С. 33–42.

4. Штремплер Г. И. Методика учебного химического эксперимента в школе: учеб.-метод. пособ. для студ. химич. спец. / Г. И. Штремплер. – Саратов: Ин-т химии СГУ, 2018. – 284 с.

5. Глориозов П. А. Формирование умений и навыков в процессе обучения химии / П. А. Глориозов. – М. : Учпедгиз, 1963. – 69 с.

6. Asamovich, K. M. Possibilities of wide use of practical methods in chemistry education. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities 2023, Vol. 2, No. 1, p. 44-47.

7. Kuchkarov, M. Kimyodan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda turli mantiqiy yondashuvlardan foydalanish. Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology, 2023, 1(01).

8. Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. Eksperimental tajribalar yordamida o‘quvchilarda tadqiqotchilik, amaliy va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2023, 1 (5), p. 59-67.

Shaxnoza RAXMATULLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA TAVSIFIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv metodik materiallarning mazmuni, unda berilgan o‘quv-topshiriqlarning o‘rni va ahamiyati, turlari va tavsifiy jihatlari haqidagi fikr va mulohazalari ifodalangan. Shuningdek, o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning samarali yo‘llari ishlab chiqilgan hamda darslikdagi o‘quv-topshiriqlar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Til materiallari, til, nutq, nazariy ma’lumot, dogmatik usullar, reproduktiv usul, tushuntirish va illyustrativ usul, samarali usullar, evristik, qisman da’vo usullari.

В статье излагается содержание создаваемого учебно-методического материала для начальных классов, его мысли и суждения о месте и значении, видах и описательных аспектах поставленных в нем учебных заданий. Также были разработаны эффективные способы использования учебных заданий и проанализированы учебные задания в учебнике.

Ключевые слова. Задание, языковой материал, язык, речь, теоретическая информация, догматические методы: репродуктивный метод, объяснительно-иллюстративный метод, эффективные методы, эвристический, частичный методы.

The article expresses the content of the educational methodological materials being created for the primary classes, their opinions and reflections on the place and importance, types and descriptive aspects of the training and assignments given in it. Effective ways of using teaching assignments have also been developed, and textbook study-assignments have been analyzed.

Key words. Task, language material, language, speech, theoretical data, dogmatic methods: reproductive method, explanatory-descriptive method, effective methods, heuristic, partial methods.

Hozirgi vaqtda pedagogikada o‘quv topshiriqlari nazariyasi bo‘yicha katta miqdordagi tadqiqotlarni to‘pladi. Olimlar, jumladan, S.F.Ruykov, I.K.Juravlev, I.Y.Lerner, F.B.Sushkova, A.I.Uman, M.A.Fedorova va boshqalar o‘quv topshiriqlarining terminologiyasi, funksiyalari, tuzilishi, turli tasniflari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganganlar.

O‘quv topshiriqlari muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu tushunchaning yagona ta’rifi mavjud emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar ushbu didaktik toifani turli yo‘llar bilan izohlaydilar, ko‘pincha “topshiriq”, “mashq”, “savol” atamalarini bir-birining o‘rnida ishlatadilar, bu esa ularda so‘zlarni nutqda erkin qo‘llash ko‘nikmasini va ularning ma’nosini tushunishni qiyinlashtiradi[1].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mashq atamasiga shunday ta’rif berilgan: “mashq” 1. (Arabcha. – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti. Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko‘p mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar qo‘lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar.

[1] Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. – Т., 10.- 2019.- № 1. - С. 30-35.

2. Ma’lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar, jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar.

“Pedagogika ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta’rifning ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko‘rish mumkin:

Mashq (Arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Masalan, o‘qish, yozish mashqi ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi[2].

Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Topshiriq[1]. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan”[3].

Ko‘rinib turibdiki, har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Ya’ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma’lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, deya ta’kidlangan, fikrimizcha, “ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir. O‘quv topshirig‘i didaktik tushuncha sifatida ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatma turi sifatida belgilanadi, unda o‘quv mazmunini o‘zlashtirish uchun har qanday o‘quv harakatlarini bajarish talabi mavjud[4].

O‘quv topshiriqlari nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan A. Uman o‘quv topshirig‘ini ta’lim mazmuning prizmasi orqali ko‘rib chiqdi. Tadqiqotchi o‘quv topshirig‘ini maxsus vosita deb ataydi, uning yordamida haqiqiy o‘quv jarayonida ta’lim mazmuni bilan bevosita aloqada bo‘lmagan o‘qituvchi va o‘quvchi undan foydalanishi mumkin (o‘qituvchi – uzatish uchun, o‘quvchi – qabul qilish va o‘zlashtirish uchun)[5].

Bundan tashqari, A. I. Uman o‘quv topshirig‘ining yana bir xususiyatini-ta’lim mazmunining o‘zida mujassam etgan shakl sifatida ochib beradi. Olim ushbu qoidani o‘qituvchi ta’lim mazmunini sof shaklda emas, balki o‘quv topshirig‘i shaklida tarjima

[2] Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. –T.: J – M., 2012. – 223-b.

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4-jild.–T.: O‘zME, 2004, – 150-b.

[4] Бимбад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.- С. 89-90.

[5] Шилова Е.С. Учебные задания развивающего характера как средство повышения эффективности обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 1980. - 12 с.

qiladi, deb ta'kidlaydi. talaba, tarkibning u yoki bu tarkibiy qismini tayinlab, o'z faoliyatida olgan topshiriq'ini bajaradi, natijada "ta'lim mazmuni, go'yo, o'z qobig'idan – topshiriqni tashlaydi va talabalarga beriladi"[6]. Shunday qilib, o'quv topshirig'i o'quvchi tomonidan ko'rib chiqiladi va ta'lim mazmunini amalga oshirish vositasi va mujassamlashgan shakli sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, o'qituvchi o'quv mazmunini topshiriqlar qobig'iga joylashtiradi va ularni o'quvchilarga bajarish uchun norma sifatida taqdim etadi; o'quvchi o'quv mazmunini o'zlashtirgan holda topshiriq talablarini bajaradi. Shu munosabat bilan, S.I.Pozdeyeva ta'kidlaganidek, "o'qituvchining topshiriqlarni, ularni bajarish namunalarini taqdim etish madaniyatini; algoritmlarni (eslatmalar, ko'rsatmalar) bosqichma-bosqich qo'llanma sifatida tushuntirish madaniyatini" nazarda tutadigan maxsus madaniyat muhimdir; mashqlarni bajarishni tashkil etish madaniyati (tayyorgarlik, ijro va nazorat bosqichlari), algoritm bo'yicha o'quv harakatlarining aniqligi va to'g'riligini ishlab chiqish; tashqi nazorat madaniyati va o'quv topshiriqlarining to'g'riligini baholash"[7] alohida ahamiyatga ega.

Didaktik tadqiqotlar mavzusi, shuningdek, o'quv topshirig'ining maqsadi, ilmiy adabiyotlarning retrospektiv tahlili shuni ko'rsatdiki, dogmatik ta'lim davrida o'quv topshiriqlari ko'pincha o'rganilayotgan materialni yodlash, eslab qolish talabidir. Turli xil o'quv muassasalarida o'quv jarayoni "o'qish-eslab qolish-takrorlash" algoritmi yordamida amalga oshirildi.

K.D.Ushinskiy – boshlang'ich ta'lim metodologiyasining nazariy prinsiplarini asoslab berib, shunday deb yozgan edi: "Ona tilini osongina va qiyinchiliksiz o'rganish orqali har bir yangi avlod bir vaqtning o'zida o'zidan oldingi avlodlarning fikrlari va his-tuyg'ularini o'zlashtiradi"[8]. Ushbu qonuniyatdan, birinchi navbatda, tilning boyligini – uning so'zlarini, nutq burilishlarini, so'z ustalari tomonidan o'zbek tilida yaratilgan eng yaxshi asarlarning matnlarini va shu asosda – tilning tuzilishi va mexanizmlarini ramziy tizim sifatida o'rganish zarurati kelib chiqadi. "Bola nafaqat so'zlarni, ularning qo'shimchalarini o'rganadilar, balki cheksiz tushunchalar to'plami, obyektlarga qarashlar, teran fikrlash, his-tuyg'ular, badiiy tasvirlar, til mantig'i va falsafasini ham oson o'zlashtiradilar.

Tilni o'qitish metodikasi, ba'zan amaliy tilshunoslik deb ataladi.

Darhaqiqat, metodologiya – bu tilning xususiyatlari va qonuniyatlarini, nutqni, ularni o'zlashtirish jarayonlarida qo'llash yo'llarini o'rganadi. Masalan, tilda (tilshunos L.V.Sh cherba asarlariga ko'ra) uch mintaqa:

1. Nutq faoliyati (ya'ni gapirish, tinglash, yozish, o'qish).

2. Til materiallari – barcha aytilgan va yozilgan, eng yaxshi adabiyot namunalarida yaratilgan barcha matnlar to'plami.

3. Til tizimi, ya'ni uning darajalari, tuzilishi, bo'limlari: fonetika, grafika, imlo, orfoepiya, leksika, frazeologiya, morfemika, so'z shakllanishi, morfologiya, sintaksis, semantika, stilistika, matn sintaksisi.

Didaktika pedagogika, psixologiya bilan birgalikda ta'lim tushunchalarini ilgari suradi, ta'lim taraqqiyotini ta'minlaydi. Natijada mavjud usullar tarixini o'rganish o'quvchilarning bilim faolligi va mustaqilligining asta-sekin o'sib borish tendentsiyasini ko'rsatadi. Didaktik olimlar M.N.Skatkinva I.Ya.Lerner quyidagi tipologiyani ishlabchiqdilar

[6] Уман А.И. Учебное задание и его типы // Новые исследования в педагогических науках. -М.: Педагогика, 1983. - №2.- С. 32-35.

[7] Поздеева С.И. Типология уроков в концепции педагогики совместной деятельности // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). - 2016. - Вып. 3.- С. 39-40.

[8] Ушинский К.Д. Педагогическая поездка по Швейцарии //Педагогические сочинения: В 6 т. Т.2 /сост. С.Ф. Егоров. - М.: Педагогика, 1988.- 496 с.

va maktab o‘quvchilarining bilim faolligida darajasini uning asosi sifatida qabul qilib, o‘qitish usullarini quyidagicha belgiladilar:

1. Dogmatik usullar: material majburiy tushunmasdan yodlanadi.

2. Reproduktiv usul: material nafaqat yodlanadi, balki takrorlanadi.

3. Tushuntirish va illyustrativ usul: materiallar tushuntiriladi, misollar keltiriladi, namoyish etiladi va o‘quvchilar tomonidan tushunilishi kerak.

4. Samarali usullar: material nafaqat tushunilishi, balki amaliy harakatlarda ham qo‘llanilishi kerak.

5. Evristik, qismanda vousullari: o‘quvchining o‘zi yangi bilimlarni individual elementlarini maqsadli kuzatuvlar, kognitiv muammolarni hal qilishi orqali oladi[9].

Tilni o‘zlashtirish orqali o‘quvchi: uning o‘nlab, yuz minglab umumiy so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at tarkibini, uning frazeologiyasini uning eng boy so‘z yasash tizimini, morfemikasini bilib oladi. Ularda modellar, uning grammatikasi, tilning ishlash mexanizmlarini qaytatiklash, shakllarni shakllantirish va ularni jumlada birlashtirish kabi qobiliyati shakllanadi, ya’ni shaxsning shakllanishi sodir bo‘ladi. Shuningdek, sintaktik xilma-xillikning cheksiz xilma-xilligi, intonatsiyalar bilan bo‘yalgan tuzilmalar fikrning eng nozik soyalarini yetkazishga imkon beradi.

Til (va tillar) bilan doimiy shug‘ullanish aqlni boyitadi. Bu o‘quvchida, aniq leksik vositalar va katta-kichik jumlalarni tez, xatosiz qurish, ularni matn tarkibiga bog‘lash; mantiqiy aloqalar va asoslilikka rioya qilish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. Nutq – bu to‘liq tinglash va o‘qish, qayta o‘qish orqali tilning tuzilishi va mexanizmlarini tushunish, tilning estetikasi-nutqning ekspressivligi, chiroyli, xattotlik yozuvi, adabiy ijodning birinchi tajribalarini o‘zlashtirish orqali yuzaga chiqadi. Tilni chuqur o‘rganish yangi mavzularni qo‘shish, nazariy materialni miqdoriy kengaytirish bilan emas, balki analitik materialni chuqurlashtirish bilan belgilanadi. Maktabga kelgan bolalar ona tilidan allaqachon erkin amalda foydalanadilar, mohiyatan namunali materialni o‘rganishdan azariy ma’lumotga ehtiyoj sezmaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflar uchun yaratilayotgan o‘quv metodik materiallarning mazmuni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Bunda asosiy, tayanch vosita o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlaridan, asosan, mashqlardan samarali foydalanish zarur, zero o‘quvchida nutqiy ko‘nikmalar boshlang‘ich sinfda, shu yoshda shakllanib bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda juda kam ijobiy natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жданова Е.А. Особенности разработки многоцелевых учебных заданий в процессе формирования универсальных учебных действий у младших школьников // Герценовские чтения. Начальное образование. - 2019. – Т., 2019.- № 1. - С. 30-35.

2. Закирова С.К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - М., 2007.- 23 с.

3. Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. –T.: J – M., 2012. – 223-b.

4. Бимбад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2008.- С. 89-90.

[9] Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 464 с.

Maxbuba ALIJONOVA,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, “O‘zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri, dotsent

BO‘LAJAK AGRONOMLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING MAVJUD HOLATI

Annotatsiya

Maqolada respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy ta’lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta’lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga doir ma’lumotlar bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy ta’lim, kasbiy mahorat, kasbiy maorif, kasbiy diagnostika, kasbiy layoqat sifatlar.

В статье в результате реформ, реализуемых в системе образования в нашей республике, представлена информация о развитии профессиональной компетентности будущих специалистов-агрономов, проблеме специальной подготовки по рабочим профессиям, формировании профессиональных навыков и способности у обучающегося.

Ключевые слова. Профессиональное образование, профессиональные навыки, профессиональное образование, профессиональная диагностика, профессиональные компетентностные качества.

The article, as a result of reforms implemented in the education system in our republic, provides information on the development of professional competence of future agronomist specialists, the problem of special training in blue-collar professions, the formation of professional skills and abilities in the student.

Key words. Vocational education, professional skills, vocational education, professional diagnostics, professional competence qualities.

Oliy o‘quv yurtining talabalari, ayniqsa iqtisodiy yo‘nalishdagi o‘quv yurtining talabalari esa iqtisodiy fikrlashni o‘rganibgina qolmay, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o‘zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini ko‘z o‘ngida keltira bilishni o‘rganishi zarur.

Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni o‘z vaqtida anglab yetgan holda ularni oqilona hal qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilash soha mutaxassislaridan juda katta bilim va malakani talab etadi. Bo‘lg‘usi iqtisodchilar bugungi davr talablariga javob berish uchun o‘z bilim va malakasini tinimsiz oshirib borishi, zamonaviy tajribalarni qunt bilan o‘rganishi, izlanishi lozim. Bu nafaqat bugungi kun kishilari, balki kelajak avlod oldida ham juda katta mas’uliyatni bo‘yniga olish demakdir.

Kasb ta’limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasining pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o‘z bilimini takomillashtirib borish va o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Shu sababli kasbiy mahorati yetishmaydigan, ijodiy izlanishlardan yiroq, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar ishida

no‘noq kishilar ham shu sohaga aralashib qoldilar. Oliy ta’lim tizimida yo‘l qo‘yilgan bunday xato va kamchiliklar ijtimoiy hayotimizda o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon qildi. Respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta’lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta’lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Ma’lumki, kasb mahorati deyilganda, bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo‘yicha raqobatbardoshlik darajasida o‘z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o‘zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o‘ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Respublikamizda ta’limni rivojlantirishning bugungi bosqichida “Kasb pedagogikasi” fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e’tibor qaratish lozim. Kasbiy ta’limga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Ta’lim islohotlari natijasida gimnaziya, litsey, kollej va boshqa turdagi yangi o‘quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi.

2. Oliy o‘quv yurtlarida kasb ta’limini tashkil qilish, alohida bo‘lim va fakultetlarning tashkil etilishi.

3. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog‘lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi.

Umuman olganda kasb ta’limi islohotlarini amalga oshirishdan asosiy maqsad ta’lim-tarbiya jarayonini yuqori cho‘qqilarga olib chiqishdir. Islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kasb pedagogikasi fani oldiga ko‘proq ijodiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Hozirgi zamon har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlarni o‘qitish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ta’limning eski usullaridan voz kechish, faqat muayyan bilimlar majmuigagina ega bo‘lgan yosh kadrlarni tayyorlashdan o‘zining butun bilim va imkoniyatini namoyon etishga qodir, yuksak axloqli, har tomonlama yetuk insonni tayyorlashga o‘tish kerak. Kasbiy pedagogikaning jahon miqyosida erishgan yutuqlari darajasini, axloqiy-estetik me’yorlar rivoji ustuvorligi hisobga oluvchi milliy maktabga tayanuvchi, milliy madaniyat o‘chog‘i hisoblanuvchi, shu bilan birga madaniyatlarning oqilona dialogini olib borishga qodir uzluksiz ta’limni rivojlantirish strategiyasi haqidagi masala dolzarb bo‘lib qoldi. Bunday ta’lim umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to‘g‘risida o‘ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa maktabda beriladigan ta’lim-tarbiya o‘quvchining turli fanlarga bo‘lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo‘lgan

qiziqishi tez seziladi, ya’ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O‘smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko‘pgina o‘quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma’lum bo‘ladi: ular “Men shifokor bo‘laman”, “Bizning o‘g‘limiz, qizimiz, tibbiyot insititutiga hujjat topshiradi. Shunday bo‘lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ro‘yobga chiqishi bo‘yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi. Omadsizlikka uchrasa-chi? Ayrim o‘quvchilar uchun to‘qqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo‘nalishlarini tanlash eng dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatsak bo‘ladi:

Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

Iqtisodiy fuksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi.

Shunday qilib kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan-kasbiy yo‘nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto‘g‘ri, o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o‘zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas.

Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi)va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog‘lom inson uchun imkon darajasida bo‘lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi).

Kasbiy saralashda shaxslarning anotomik xususiyatlarini hisobga olish. Kasb tanlashda o‘quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog‘liqlarini e’tiborga olgan holda kasbni to‘g‘ri tanlaydi deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, batafsil tavsiyalarni tegishli tekshiruvlardan so‘ng vrach beradi, lekin dastlabki cheklovlarni (agar ular mavjud bo‘lsa) tanlovchining o‘zi belgilashi lozim. Bu undan qandaydir maxsus bilimlarni talab qilmaydi, chunki, ko‘pchilik asosiy qarshi ko‘rsatgichlar organizm anomaliyasining (normadan chetga chiqish) to‘rt guruhi bilan belgilanadi:

Changlangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning teskarisi bo‘lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, yoki yuqori harorat sharoitlari bilan bog‘liq kasblar va boshqalar.

Kasb tanlashda yana bir qadam-bu o‘zining qobiliyatlari va sog‘lig‘iga baho berishdir. Bunda ushbu baholashning zarur, lekin yetarli bo‘lmagan muolaja ekanligini inobatga olish lozim.

Har qanday kasb jamiyat uchun muhim, ishlayotgan kishilar uchun sharafli bo‘lib, ularning mehnatga talabini qanoatlantirishi mumkin. Ularga bo‘lgan munosabatlardagi farqlar jamiyat bahosi, ularning obro‘yi, yoshlarning shaxsiy manfaati, istagi va mayli bilan izohlanadi. Bularning barchasi esa ijtimoiy muhit va o‘z qobiliyatiga o‘zi baho berish natijasida vujudga keladi. U yoki bu kasbga bo‘lgan iste’dodlarini, orzu, mayl va istaklarini o‘quvchilarda oldindan uyg‘otish va har tomonlama rag‘batlantirish zarur. Umumiy ma’lumot darajasiga qiziqishni uyg‘otish bilangina chegaralanmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

3. To‘xtamatov X. Zamonaviy ta’limda an’anaviy va masofadan o‘qitish shakllari integratsiyasi // Pedagogika. –T., 2015. -№4. –B. 59-64

4. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlangich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 204 b.

5. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlangich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 205-206 b.

6. Ergashev R.N., Ergasheva G.M., Eshonqulova M.X. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik. –T., 2022. - 182 b.

7. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlangich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 209 b.

8. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlangich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 210 b.

9. Ergashev R.N., Ergasheva G.M., Eshonqulova M.X. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik. –T., 2022. -5 b.

10. Ergashev R.N., Ergasheva G.M., Eshonqulova M.X. M.X. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik. –T., 2022. - 5-6 b.

11. Kololojvari I. Sechenikova L. Kak organizovat integrirovanniy urok? (o metodike integrirovanie obrazovaniya). \\Narodnoe obrazovanie. - M., 1996, №1. S - 87-89.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ‘‘O‘zbek adabiyotshunosligi’’
kafedrasi p.f.f.d. PhD, dosent v.b.

O‘QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA HIKOYA JANRIGA MUROJAAT

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda hikoya janrining ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida badiiy asarlar bilan ishlashda dastlab tez va oson o‘qiladigan hikoya janri bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Hikoya, kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, matn talqini, matn yaratish, integratsiya, ta’lim sifati, ilm olish, tahlil.

В статье рассматривается значение жанра рассказа в формировании компетенции учащихся по созданию текста. Автор также дал рекомендации по работе с художественными произведениями, которые изначально были быстрыми и легкими для чтения жанром рассказа, с целью формирования у читателей текстообразовательных компетенций.

Ключевые слова. Повествование, компетентность, инновационные технологии, интерпретация текста, создание текста, интеграция, качество образования, приобретение знаний, анализ.

The article explores the importance of the narrative genre in shaping the competency of reader Text creation. The author has also made recommendations on how to work with the story genre, which is initially quick and easy to read, when working with fiction in order to form the competencies of students to create text.

Key words. Storytelling, competence, innovative technologies, text interpretation, Text creation, integration, educational quality, knowledge acquisition, analysis.

Dunyoda o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash va takomillashtirish, o‘quvchi shaxsida tayanch ta’limiy kompetensiyalar, xususan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ham til va adabiyot ta’limi yoshlarga ta’lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, kelajakda o‘z so‘ziga ega va zamonaviy ehtiyojlarga hozirjavob yetuk ma’naviyatli shaxsni kamol toptirishdek mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan.

Yangilanib borayotgan O‘zbekistonda ta’limga e’tibor, uning sifatini oshirish va buning natijasida o‘sib kelayotgan yosh avlodga sifatli, har tomonlama mukammal bilim berish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanmoqda. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda matn yaratish kompetensiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Matn yaratish kompetensiyalarini shakllntirish badiiy asarlar mutolaasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon o‘z-o‘zidan o‘quvchining kitobxonlik salohiyatini rivojlantiradi. O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida badiiy asarlar bilan ishlashda dastlab tez va oson o‘qiladigan hikoya janri bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Hikoyalar qisqa va lo‘nda bo‘lishi bilan birga didaktik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, kitobxonga hayot falsafalaridan saboq berayotgandek tuyuladi. Hikoyalardagi qahramonlar qismati kishini bundan ogoh qiladi. Demak, kishini hayotni

qadrlashga, to‘g‘ri yashashga, iymonga undaydi.

Millatning ma’naviyati qaror topishida adabiyot muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yoshlarning muayyan hayotiy vaziyatlarda qaysi yo‘lni tutishi, qanday to‘xtamga kelishi, ko‘zda tutgan ishlarni qay saviyada bajarishlari, ko‘p jihatdan, adabiyotning rivojiga bog‘liqdir. Ardoqli adibimiz S.Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasini modulli ta’lim texnologiyasi asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, dastlab ushbu hikoyaning umumiy didaktik maqsadini aniqlab olamiz. So‘ngra hikoyani mantiqiy tugallangan 4 qismga ajratamiz va har bir qismga alohida xususiy didaktik maqsadlarni belgilaymiz.

1-qismda it obrazi birinchi planga chiqadi.

1-topshiriqda “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “As'hobi kahfning vafodor itidir” (Al-jome al-Kabir.) hadisi sharif tahlil qilinadi va o‘quvchilar fikrlari maqsad sari yo‘naltiriladi. Asarda Saodat ayaning iti Qorako‘z bilan qizining uyiga qarab yo‘lga chiqishi jarayoni ajoyib tasvirlanadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating.

Yo‘l bo‘yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, deylik, “bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik” qilishlarini, yo‘lda uchragan mushuklarni “tiraqaylatib quvishi”, “daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab” akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Kampir itini oilasining bir a’zosidek e’zozlaydi. Shuning uchun ham u itiga qarab: “Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan”, – deb bemalol gapiradi. Yo‘l bo‘yi Saodat kampir iti bilan shu zaylda suhbatlashib boradi va suhbatlashib iziga qaytadi. Yozuvchi mehr bilan ta’riflagan:

– kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor,

– tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora, bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi bor it.

Hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo‘lsa xafa, xursand bo‘lsa xursand, kampir o‘yga cho‘msa, u ham o‘y surgandek bir nafas tinchiydi. Hikoyada Saodat aya vafotidan so‘ng yozuvchi ham Qorako‘zning ruhiyatini kitobxonlarga anglatish maqsadida o‘tkir qalami bilan uning qora ko‘zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo‘yadi. Hikoya oxiridagi Qorako‘z majnunning o‘limi o‘quvchini mahzun qiladi. It bilan bog‘liq o‘rinlar o‘quvchilar bilan shu zaylda alohida tahlil qilinadi.

2-qismda Saodat ayaning fitratidagi insoniylik, mehr-oqibat haqida o‘quvchilar suhbatga tortiladi. Saodat aya bilan bog‘liq jihatlarga urgu‘ beriladi. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonalarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutishi va Xudoning bergan kuni sahar namozlarida uni eslashi sabablari o‘quvchilar bilan muhokama qilinadi. Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulohazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampirdagi bu o‘zgarishni: “Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi”,– degan tarzda bayon qiladi. Ona uchun din-diyonat, milliy, diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixondan ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi. Saodat ayaning go‘zal yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi og‘zaki tahlil qilinadi. Vafot etar mahalida ham Saodat ayaning hayot mazmunini, bu dunyoga kelish va ketish

hodisasini juda tabiiy – muslimona anglagani farzandlari hamda nevaralarini chaqirib, ularga qilgan vasiyatidan bilib olamiz.

Bu qismda “Jannat onalar oyog‘i ostidadur” hadisi sharif tahlil qilinadi. 3-qismda Qur’oni karimdan keltirilgan ushbu oyat: “Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar” (Baqara surasi, 217-oyat.) haqida suhbat uyushtiriladi. Bo‘riboyning qismati tahlil etiladi. Yozuvchi u tug‘ilayotganda quyoshli kun edi, lekin yomg‘ir sharros quyib turardi deb nimaga ishora qilmoqda. Bo‘riboy kirgan yo‘l inson bolasiga xosmi kabi savollar bilan o‘quvchilarni bahs-munozaraga jalb qilinadi. Bo‘rixon kelibdi, ya‘ni kampirning “g‘oyiblari hozir” bo‘libdi. Bu yangilik “Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini” tarqatishi, “ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni” ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o‘zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois “notanish odamga g‘ashlik qilib tinmay irillaydi”. Ona bag‘rida Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi.

Chunki “undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi”. Xursandchilikdagi ona avval bunga e’tibor bermadi. Sekin asta o‘g‘li Bo‘rixonning ota-bobolari e‘tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani xususida o‘quvchilar bilan bahs-munozara qilinadi va xulosalanadi.

4-qismda o‘zbek millatiga xos qadriyatlar haqida fikr yuritiladi.“Vatanni sevmoq iymondandir” hadisi bilan ishlanadi. Hikoyada juda katta ma‘no-mazmun jamlangan. O‘zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali ta‘kidlanadi. To‘g‘risi, itning vafosi bir o‘g‘ilning ona ko‘nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma‘naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug‘vorlik kasb etadi. Hikoya 4-qismga bo‘lib o‘rganilishi o‘quvchilarda har bir detalni nazardan qochirmaslik, sinchkovlik kabi ziyraklik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qismlardan olingan xulosalar bilan bir butunlikka, yaxlitlikka erishish umumiy xulosaga kelishga o‘rganadi. Har bir qismdan chiqarilgan xulosa xususiy didaktik maqsadga yo‘naltiriladi va bu maqsadlar umumiy didaktik maqsadga bo‘ysundiriladi.

Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg‘u va kechinmalarini ifodalash bosh omillardan biridir. Shunday ekan, inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo‘lib qolaveradi. Adabiyotshunoslikda inson ruhiyati ifodasi badiiy psixologizm deyiladi va psixologizmda qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e’tibor berish kabi masalalar birlamchi o‘rinda turadi. Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o‘qishning beqiyos o‘rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haq-u nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatlari qaror topadi. Odam o‘zini o‘zga bilan solishtira bilganda, o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Shundagina shaxs ijtimoiylashadi, ijtimoiylashmagan odam esa individdan farqi yo‘q. Chunki unda iste’molchilikdan o‘zga biror ezgu sifat shakllanmagan bo‘ladi.

Badiiy asar va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam o‘ziga yoqimli bo‘lgan narsaning o‘zgaga ham ma’qul bo‘lishini, o‘ziga yoqmaydigan tutum o‘zgaga ham yoqmasligini bilib olsa, tuyib yetsa, unda odamiylik sifatlari tarkib topa boradi. Albatta, yangi vaziyat, yangi sharoit adabiy jarayonda ham yangicha yo‘lga qo‘yishni talab qiladi. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmagani singari, ijod ahli bugungi milliy rivojimiz uchun ham ochun tajribasidagi yangiliklardan chetda turib, ko‘zlagan

natijalarga erisha olmaydi.

Bugunni bilish, ertaning yo‘nalishlarini belgilash zamon bilan hamnafas yashashdan, dunyo yangiliklarini yaxshilab o‘zlashtirishdan boshlanadi. Badiiy asar o‘qish kitobxonga ikki jihatdan g‘oyat muhim yumush sanaladi. Birinchidan, u odamni kitobga bog‘lab qo‘yadi: asar qahramonlari bilan keyin nima bo‘lganini bilishga qiziqish uyg‘otadi, hayotdagi turli-tuman kutilmagan voqea-hodisalar bilan tanishtiradiki, buning o‘zi kitobxonda qiziqish uyg‘otadi. Inson o‘ziga mutlaqo notanish odamlar, o‘zgacha taqdirlar bilan tanishadi, ijodkor mahorati sabab ularga befarq bo‘lolmaydi, yangi hayot bilan tanishadi va bundan zavq oladi. Holbuki, o‘qilgan asar o‘quvchi tomonidan ilk bor kashf etilishadanoq, uning qalbida iz qoldirishi zarur. Badiiy asar o‘qishning ahamiyatini ta’minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o‘quvchida o‘zgani his etish, birovga tuyg‘udosh bo‘lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg‘usi kamayib bormoqdaki, badiiy kitob o‘qish o‘sha yetishmovchilikni to‘ldirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova Raykhan. An integrative approach to the analysis of a work of art. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 3 | Issue 12 | Dec-2023 ISSN: 2795-8612 Page | 113-116.

2. Расулова Р. Adabiy ta’lim integrativ yondashuv. Muallim ham uzluksiz bilimlandiruv‘. Ilimiy-metodikali jurnal № 1/3 2024. B. 33-37

Maxfuza TURSUNQULOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti tayanch doktoranti

DIDAKTIK O‘YIN TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBI

Annotatsiya

Maqolada biz “didaktik o‘yin” tushunchasining mohiyatini ochib berishga va ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kognitiv qiziqishini rivojlantirishda didaktik o‘yinning imkoniyatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Bundan tashqari didaktik o‘yinlarning tarkibiy qismlari haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Didaktik, o‘yin, rolli o‘yin, o‘yin qoidalari, ona tili darsi, shaxsiy sifatlar, jamoa bilan ishlash, o‘quvchi faolligi.

В статье рассматривается понятия “дидактическая игра” и выявить возможности дидактической игры в развитии познавательного интереса младшего школьника на уроке родного языка. А также рассматривается структурные компоненты дидактических игр.

Ключевые слова. Дидактическая игра, ролевая игра, правила игр, урок родного языка, личнные качества, работа в команде, активность ученика.

The article examines the concept of “didactic game” and identifies the possibilities of a didactic game in developing the cognitive interest of a primary school student in a native language lesson. It also examines the structural components of didactic games.

Key words. Didactic game, role-playing game, game rules, native language lesson, personal qualities, teamwork, activity of pupil.

O‘yin, atrofdagi dunyodan olingan taassurotlar va bilimlarni qayta ishlash usuli sifatida, bolalar uchun eng qulay faoliyat turidir. Bola xayoliy vaziyatlarda o‘ynaydi, shu bilan birga barcha o‘yin faoliyatiga singib ketgan tasvir bilan ishlash fikrlash jarayonini rag‘batlantiradi. O‘yin faoliyatini o‘zlashtirish natijasida bolada asta-sekin ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim faoliyatiga intilish paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich maktabda qo‘llaniladigan o‘yinlar ikkita katta guruhga bo‘linadi – rolli (ijodiy) va didaktik (qoidalar bilan o‘yinlar).

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchilar va psixologlar “didaktik o‘yin” tushunchasi mohiyatiga aniq yondashishlari guvohi bo‘ldik. Avvalo, bu tushuncha o‘z qonun-qoidasiga ega bo‘lgan o‘yin turi sifatida tushuniladi. Ammo bu komponentlar o‘z mazmuniga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ularning ayrimlarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

V. N. Kruglikov didaktik o‘yin tushunchasini o‘yin, ta’limning bir qator tamoyillarini amalga oshiradigan va o‘ziga xos qoidalari, baholash tizimi mavjud bo‘lgan, qat’iy tuzilish va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan faol ta’lim metodlaridan biri sifatida izohlagan.

Darsda tashkil qilinadigan didaktik o‘yinlarning ahamiyati haqida A.V. Zaporojets shunday ta’kidlagan: “... didaktik o‘yin nafaqat individual bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish shakli bo‘lib, balki bolaning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shishini ta’minlovchi omil bo‘lib xizmat qilishi kerak”.

Didaktik o‘yin turli funksiyalarni bajaradigan ta’limning barcha bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. O‘yinning darsning qaysi bosqichida o‘tkazilishi o‘qituvchining undan qanday maqsadda foydalanishiga bog‘liqdir. Masalan, dars boshida didaktik o‘yin o‘quvchilarni o‘quv materialini idrok etishga tayyorlash uchun, dars o‘rtasida kichik

yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘quv faolligini oshirish yoki yangi tushunchalarni birlashtirish va tizimlashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

G.M. Paxutina didaktik o‘yinni “mehnat mevasi”, bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalashning eng muhim vositasi deb ta’riflagan.

Didaktik o‘yinlar nafaqat aqliy rivojlanish vositasi, balki kognitiv aqliy jarayonlarni rivojlantirish vositasi, balki o‘rganishning o‘yin shaklidir.

Didaktik o‘yinning quyidagi tarkibiy qismlari ajralib turadi (1-chizma).



1-chizma. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy qismlari

Didaktik vazifa o‘qitish va tarbiya jarayonining maqsadi bilan belgilanadi. O‘yin vazifasi o‘yin harakatlarini belgilaydi. U o‘qituvchi tomonidan shakllantiriladi va o‘yin rejasi shaklida bolalar oldida uning o‘qituvchilik faoliyatini aks ettiradi.

O‘yin qoidalari (o‘yin asoslari) o‘yin tushunchasi bilan bog‘liq va undan kelib chiqadi. Ular qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ya’ni o‘yin qanchalik qiziqarli bo‘lsa, kognitiv va o‘yin vazifalari shunchalik muvaffaqiyatli hal qilinadi.

O‘yin qoidalari bolalarning o‘zaro munosabatlariga, ularning xulq-atvor normalariga muvofiqligiga va didaktik vazifani hal qilishga ta’sir qiladigan axloqiy talablarni o‘z ichiga oladi - ular bolalarning harakatlarini sezilmas darajada cheklaydi, ularning e’tiborini dars mavzusi bo‘yicha muayyan vazifani bajarishga qaratadi.

Natijalarni sarhisob qilish o‘yin vazifasini yaxshiroq bajargan bolalarni aniqlashga va g‘olib jamoani aniqlashga yordam beradi.

Ona tilini bola uchun qiziqarli mavzuga aylantirish, o‘yinqaroq bolalarga o‘yin faoliyat turisiz tashkil qilish imkonsiz. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faoliyatining yetakchi shaklidir. U fikrlashni, diqqatni, xotirani va sog‘lom raqobatbardoshlikka qiziqishni faollashtiradi. Har bir darsda bolalar o‘qituvchining “Bolajonlar, endi sizlar bilan o‘yin o‘ynaymiz!” kabi so‘zlarini intiqlik bilan kutishadi. Ammo didaktik o‘yin jiddiy masala. Dastur mavzusini esa takrorlash, so‘z boyligini boyitish, kuzatishlar olib borish, hammani qiziqtirishini ta’minlash kerak.

O‘yin elementlarini yoki didaktik o‘yinlarni ta’lim faoliyatiga kiritish bolaga o‘quv faoliyatiga osonroq moslashishga, bilimga bo‘lgan ehtiyojni, obyektlarni, tushunchalarni

va hodisalarni tahlil qilish, tasniflash, umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga, ixtiyoriy e'tiborni rivojlantirishga imkon beradi, shuningdek, o‘quv motivatsiyasini oshirishga, kognitiv faoliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini o‘zi qadrlashni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ona tili darslarida tashkil qilinadigan o‘yinlarni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) grafik o‘yinlar – asosiy maqsadi alifbodagi barcha harflarning ma'nosi, imlosi va qo‘llanilishini o‘zlashtirishdan iborat (grafik o‘yinlarni bolalar alifboning barcha harflarini o‘rganib, ravon o‘qish va yozishni bilganlarida o‘ynash mumkin);

2) leksik o‘yinlar – asosiy maqsadi tilga sezuvchanlikni rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning umumiy ma'nosi, yaxlit-maxsus, konkret-mavhum munosabatlar haqida tushunchalarni rivojlantirishdir;

3) imloviy o‘yinlar – so‘z va morfemalarning imlo ko‘nikmalarini mustahkamlash. Bunday o‘yinlar allaqachon o‘rganilgan imlolar haqidagi bilimlarni yaxshilashga qaratilgan, masalan, so‘zdagi urg‘usiz unlilarni yozish, so‘z asosidagi urg‘usiz unlilarni yozish, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari, undosh tovushlar, tinish belgilari va bosh harflar imlosi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlovchi o‘yinlar;

4) fonetika, imlo, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis qoidalarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradigan grammatik o‘yinlar;

5) o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini, muayyan vaziyatda turli xil nutq vositalarini qo‘llash qobiliyatini va nutq odobi qoidalarini qo‘llash qobiliyatini rivojlantiruvchi o‘yinlar;

6) mantiqiy o‘yinlar - uning asosiy maqsadi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam berish, obyektni o‘xshashlar to‘plamidan ajratish, voqelik obyektlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, shuningdek, obyektni toifaga kiritish, bir xil bo‘lganlar, mantiqiy o‘yinlar insonning intellektual qobiliyatlarini sinashdir;

7) fonetik o‘yinlar bolalarni so‘zlardan tovushlarni ajratib olishga, tovush va bo‘g‘in tuzilishini tahlil qilishga, o‘xshash (jarangsiz – jarangli, qattiq – yumshoq) so‘zlardagi tovushlarni farqlashga, gapning og‘zaki tarkibini, tovushlarni va bo‘g‘inlarni alohida elementlar sifatida tushunishga o‘rgatadi.

Fikrlash mantig‘ini barcha darslarda, lekin birinchi navbatda ona tili darslarida o‘rgatish kerak, chunki til mantiqiy tushunchalar, hukmlar va xulosalarni ifodalash vositasidir.

Maktabda ona tilini o‘rganish metodi sifatida didaktik o‘yinlarning quyidagi vazifalarini belgilab oldik.

Birinchi, eng oddiy vazifa – o‘quv jarayonini yengillashtirish, uni jonlantirish. Bu vazifani bajarishda darsliklardagi ertak elementlari, qiziqarli rasmlar, qiziqarli matnlar tanlovi va boshqalar muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchi vazifa – o‘quv jarayonini “teatrlashtirish”. O‘yin shakllari rol o‘ynash elementini, masalan, dars jarayoniga o‘ylab topilgan yoki milliy xalq qahramonlarini kiritadi. Badiiy uslublar darslikda uchragan rolli dialoglar va poliloglarda, rolli o‘qishda, ertak va ertaklarni sahnalashtirishda, o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan turli mashqlar, topshiriqlar tuzishda va hatto taklif qilingan mavzu sahifalarini tuzishda qo‘llaniladi.

Uchinchi vazifasi raqobatbardoshlikka o‘rgatishdir. O‘yin o‘z ichiga, raqobat elementini kiritadi, faollikni oshiradi, yetakchilikka lider bo‘lishga undaydi. Eng oddiy holatlardan boshlab adabiy ijodkorlik, bilim sifati va chuqurligi bo‘yicha o‘yin olimpiadalar,

sinovlardagi raqobatga bosqichma bosqich o‘tadi.

Boshlang‘ich maktabda ona tili darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlarning asosiy turlari – topishmoqlar, krossvordlar, logogriflar (har xil harflar birikmasi orqali taxmin qilinishi kerak bo‘lgan yashirin so‘zlardan yangi so‘zlar yaratiladigan topishmoq turi), anagrammalar (ma’lum bir so‘z yoki iboraning harflari yoki tovushlarini o‘zgartirish, natijada boshqa so‘z yoki ibora hosil qilish), metagrammalar (bir xil miqdordagi harflardan iborat turli xil so‘zlar, shifrlangan kataklar, topishmoqlar), boshqotirmalar va krossvordlar. Ushbu turdagi o‘yinlarning barchasi birinchi sinfdan boshlab darslarda qo‘llanilishi mumkin. Ko‘pincha topishmoqlar, rebuslar va krossvordlar qo‘llaniladi.

Didaktik o‘yinlar ona tiliga qiziqishni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini kashf etish, qobiliyatlaridan to‘liqroq foydalanish imkoniyatini beradi. Ona tili darslarida bunday o‘yinlar passiv va uyatchan o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatga erishishga sharoit yaratadi, ularning qobiliyatlarini ko‘rsatishga imkon beradi.

Binobarin, o‘yinlar fikrlash, xotira, e’tibor, nutq va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘yin davomida guruhda ishlashda axloqiy fazilatlar ham rivojlanadi, bola muloqot qilishni o‘rganadi, ya’ni uning muloqot qobiliyati rivojlanadi, u sinfdoshlariga yordam berishni o‘rganadi. Bu esa, o‘z navbatida o‘quvchilarda do‘stona munosabat va o‘zaro yordam berish tuyg‘usini tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga didaktik o‘yinlarni kiritish kognitiv faollik va ona tiliga qiziqishni oshirishda yordam beradi va bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карпова Е.В., Дидактические игры в начальной школе,// Начальная школа. – 2018. – №5. 27-32-b.

2. Мишечкина Н. А., Представление о дидактической игре и её роли в процессе обучения младших школьников // Молодой ученый. – 2017. – №52. 201-204-b.

3. Дидактические игры и упражнения на уроках русского языка [Elektron manba]. – https://multiurok.ru

4. Дидактические игры на уроках русского языка в начальной школе [Elektron manba], https://www.uchitelya.com

5. Дидактические игры на уроках русского языка [Elektron manba], https://videouroki.net

Abduxalil ATAMATOV,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori

O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida interfaol platformalardan foydalanish metodikasi berilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarini baholash kontekstida, ayniqsa onlayn muhitda, ishonchli va samarali mezonlarni ishlab chiqish talabalarning sa'y-harakatlari samaradorligini baholash mezonlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Platforma, baholash, mustaqil ish, o'quv jarayoni, qobiliyat, loyihalash, interfaol, topshiriq.

В статье представлена методика использования интерактивных платформ в процессе самостоятельного обучения студентов. Также в контексте оценки самостоятельной работы студентов, особенно в онлайн-среде, выявляется выработка надежных и эффективных критериев оценки эффективности усилий студентов.

Ключевые слова. Платформа, оценивание, самостоятельная работа, процесс обучения, способности, дизайн, интерактив, задание.

The article presents a methodology for using interactive platforms in the process of independent learning for students. Also, in the context of assessing students' independent work, especially in the online environment, the development of reliable and effective criteria for assessing the effectiveness of students' efforts is revealed.

Key words. Platform, assessment, independent work, learning process, abilities, design, interactive, task.

O'quv jarayonida interfaol platformalardan foydalanish. Talabalarda yangi texnologiyalarni mustaqil o'zlashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va o'qishlarida innovatsion vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Quyida ushbu metodologiya va baholash mezonlarining batafsil tavsifi keltirilgan:

Metodika tavsifini ko'rib chiqamiz:

1. Interfaol platformalarni joriy etish: O'quv jarayoniga turli interaktiv platformalar, masalan, ta'lim portallari, forumlar, hamkorlik uchun ixtisoslashtirilgan ilovalar va h.k. lar birlashtiriladi.

2. Topshiriqlar va loyihalar: talabalarga ushbu platformalardan foydalanishni talab qiladigan topshiriqlar va loyihalar taklif etiladi. Bular onlayn munozaralar, guruh loyihalari, tadqiqot topshiriqlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

3. Mustaqil o'zlashtirish va qo'llash: talabalar platformalarning funksionalligini mustaqil ravishda o'zlashtiradilar va ulardan topshiriqlarni bajarish va loyihalarda ishtirok etish uchun foydalanadilar.

4. Baholash va fikr-mulohazalar: o'qituvchi o'quvchilarning platformalardagi faolligi, bajarilgan topshiriqlarning sifati va mustaqil ishlash qobiliyatiga qarab ishini baholaydi.

Baholash mezonlari:

1. platformani o'zlashtirish darajasi:

– platformaning funksional imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati;

– texnologiyaning imkoniyatlari va cheklovlarini chuqur tushunish.

2. muhokama va loyihalarda faol ishtirok etish:
– onlayn munozaralar va forumlarda muntazam va faol ishtirok etish;
– guruh loyihalari va muhokamalariga konstruktiv hissa qo‘shish.
3. mustaqil ishlash qobiliyati:
– yangi vositalarni o‘zlashtirishda tashabbuskorlik;
– yechimlarni topish va vazifalarni bajarishda mustaqillik.
4.bajarilgan vazifalarning sifati:
– belgilangan vazifalarni bajarishning aniqligi va to‘liqligi;
– muammolarni hal qilishda ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar.
5. muloqot ko‘nikmalari:
– onlayn munozaralarda bayonotlarning aniqligi va asosliligi;
– jamoada ishlash va raqamli muloqot qilish qobiliyati.
qo‘llashga misol:

Aytaylik, menejment kursi doirasida talabalarga virtual kompaniyaning marketing strategiyasini ishlab chiqish loyihasi taklif etiladi. Buning uchun ular hamkorlik, ma’lumotlarini tahlil qilish va virtual uchrashuvlar uchun vositalarni taqdim etadigan maxsus ta’lim platformasidan foydalanishlari kerak.

Talabalar platformaning funksionalligini o‘rganishdan boshlaydilar, so‘ngra jamoalar tuzadilar va vazifalarni taqsimlaydilar. Ular ishlayotganda, platforma forumida muntazam ravishda muloqot qilib, strategiyalar, g‘oyalar va taraqqiyotni muhokama qiladilar. Yakunda ular platforma vositalaridan foydalangan holda onlayn taqdimotlar ko‘rinishida o‘z strategiyalarini taqdim etadilar.

Baholash quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

– hamkorlik va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun platformadan samarali foydalanish;

– munozaralarda faol ishtirok etish va jamoaviy ishlashga hissa qo‘shish;

– taklif etilayotgan marketing strategiyasining o‘ziga xosligi va amaliyligi;

– loyiha taqdimotining sifati va professionalligi.

Shunday qilib, baholash metodologiyasi ham interfaol platformaning texnik mahoratini, ham talabaning o‘quv jarayoniga qo‘shadigan intellektual hissasining sifatini hisobga oladi.

Talabalar ishini interfaol platformalar yordamida 100 balli tizimda baholash uchun-ishning turli jihatlarini hisobga oladigan kompleks baholash tizimini ishlab chiqish mumkin. Mana shunday reyting tizimiga misol:

Baholash mezonlari va ballar:

1. Platformani o‘zlashtirish darajasi (maksimal 20 ball):

– Zo‘r o‘zlashtirish (18-20 ball): talaba platformaning barcha imkoniyatlarini to‘liq tushunganini va samarali foydalanishini namoyish etadi.

– Yaxshi o‘zlashtirish (15-17 ball): talaba platformaning asosiy funksiyalaridan foydalanishda ishonch hosil qiladi, lekin uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydi.

– Qoniqarli o‘zlashtirish (10-14 ball): talaba asosiy funksiyalardan foydalanadi, lekin yanada rivojlangan funksiyalarni bajarishda qiynaladi.

– Yetarli darajada o‘zlashtirmaslik (10 balldan kam): talaba platformani yaxshi bilmaydi va uning funksiyalaridan foydalanadi.

2. Muhokama va loyihalarda faol ishtirok etish (maksimal 25 ball):

– Juda faol ishtirok (22-25 ball): talaba munozaralarda muntazam va faol ishtirok etib, mazmunli hissa qo‘shadi.

– Faol ishtirok (18-21 ball): talaba munozaralarda qatnashadi, lekin uning hissasi unchalik ahamiyatli emas.

– O‘rtacha ishtirok (13-17 ball): talaba qatnashadi, lekin buni kamdan-kam hollar-

da va cheklangan kirish bilan bajaradi.

– Passiv ishtirok (13 balldan kam): talaba kamdan-kam hollarda munozaralarda qatnashadi va minimal hissa qo‘shadi.

3. Mustaqil ishlash qobiliyati (maksimal 25 ball):

– Yuqori mustaqillik (22-25 ball): talaba tashabbus va ijodkorlik namoyon etadi, murakkab masalalarni mustaqil hal qiladi.

– Yaxshi mustaqillik (18-21 ball): talaba topshiriqlar ustida mustaqil ishlaydi, lekin ba’zida yordamga muhtoj.

– Qoniqarli mustaqillik (13-17 ball): talaba topshiriqlarni bajaradi, lekin ko‘pincha boshqalarning yordamiga tayanadi.

– Mustaqillikning yetarli emasligi (13 balldan kam): talaba mustaqil ishlashda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi.

4. Bajarilgan topshiriqlar sifati (maksimal 30 ball):

– Zo‘r ishlash (27-30 ball): ish yuqori darajada, mukammal sifat va ijodkorlik bilan yakunlangan.

– Yaxshi bajarish (22-26 ball): ish barcha kerakli elementlar va kichik xatolar bilan yaxshi bajarilgan.

– Qoniqarli tugallanganlik (16-21 ball): ish tugallandi, lekin sifat yoki to‘liqlikda kamchiliklar mavjud.

– Qoniqarsiz ko‘rsatkichlar (16 balldan kam): ish yomon, ko‘p xatolar bilan yoki to‘liq bajarilmagan.

Baholashga misol:

Talaba muntazam ravishda munozaralarda faol ishtirok etadi (25 ball), platformani yaxshi o‘zlashtirgan (20 ball), yuqori mustaqillik ko‘rsatadi (25 ball), topshiriqni bajari shi a’lo (30 ball) deb baholanadi. Talabaning umumiy balli 100 balldan 100 ball.

Talaba munozaralarda faolligi past (18 ball), platformani yaxshi o‘zlashtirgan (17 ball), qoniqarli mustaqillikni ko‘rsatmoqda (16 ball), topshiriqlarni yaxshi bajaradi (22 ball). Talabaning umumiy balli 100 balldan 73 ball.

Ushbu baholash tizimi obyektiv va har tomonlama baholashni ta’minlab, asboblarning texnik mahoratini ham, talabaning intellektual ishining sifatini ham hisobga olish imkonini beradi.

1. O‘zaro funksional integratsiya bilan hamkorlikda o‘qitish metodologiyasi (Collaborative Learning with Cross-Functional Integration):

Tavsif: ushbu yondashuv bilim almashish va turli yondashuvlar va istiqbollarni birlashtirishga yordam beradigan keng qamrovli muammolarni hal qilish uchun fanlararo guruhlarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Ilova: turli ixtisoslikdagi talabalar o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish va ma’lumot almashish uchun ta’lim platformalaridan foydalangan holda umumiy vazifa ustida ishlaydigan qo‘shma loyihalarni tashkil etish.

Tizimli aks ettiruvchi tahlilga asoslangan o‘z-o‘zini tashkil etuvchi ta’lim konsepsiyasi (Self-Organized Learning with Systematic Reflective Analysis):

Tavsif: talabalarni o‘qishni mustaqil rejalashtirish va tashkil etishga undaydigan metodologiya, so‘ngra bajarilgan ishlar va erishilgan natijalarni chuqur aks ettiruvchi tahlil qilish.

Ilova: talabalarga mavzular va loyihalarni mustaqil tanlash, shuningdek, o‘quv jarayonini aks ettirishi va tahlil qilishi mumkin bo‘lgan ta’lim platformasida o‘quv kundaliklari va bloglarini yuritish imkoniyatini berish.

Nazariy asos

Ushbu konsepsiya o‘zini o‘zi boshqarish va konstruktivistik yondashuv tamoyillariga asoslanadi, bu yerda asosiy e’tibor talabaning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga

qaratiladi. O‘z-o‘zini tashkil etuvchi ta’lim shuni anglatadiki, talabalar nafaqat o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan bilimlarni passiv ravishda o‘zlashtiradilar, balki chuqurroq o‘rganish uchun o‘zlarini qiziqtirgan mavzular va yo‘nalishlarni tanlab, o‘qishni rejalashtirishda faol ishtirok etadilar. Refleksiv tahlil tanqidiy fikrlash, introspektsiya va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy dastur(misol)

1. Mavzuni tanlash va rejalashtirish: talabalar o‘rganish yoki tadqiqot qilish uchun mavzularni mustaqil ravishda tanlaydilar. Bu tanlov ularning ilmiy qiziqishlari, martaba maqsadlari yoki hozirgi akademik tendensiyalari asosida amalga oshirilishi mumkin.

2. Mustaqil ta’lim: talabalar o‘zlarining o‘quv rejasini ishlab chiqadilar, unda ilmiy maqolalarni o‘qish, o‘quv videolarini tomosha qilish, tajribalar yoki loyihalarni o‘tkazish kiradi.

3. Reflektiv tahlil: o‘quv jarayoni davomida o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlari, taraqqiyoti va mulohazalarini yozib oladigan o‘quv kundaligi yoki blog yuritadilar. Bu ularga materialni tushunishlarini qayta ko‘rib chiqishga, tanlangan o‘quv strategiyalarining samaradorligini baholashga va keyingi qadamlarni rejalashtirishga yordam beradi.

4. Natijalarning taqdimoti: Mavzuni tugatgandan so‘ng talabalar o‘z natijalarini tadqiqot ishi, loyiha yoki taqdimot ko‘rinishida taqdim etadilar, bu nafaqat materialni tushunishlarini, balki fikrlash jarayonini ham ko‘rsatadi.

Talabaning menejment sohasida innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli reflektiv tahlil asosida o‘z-o‘zini tashkil etish konsepsiyasini qo‘llash misolini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu misollarning har birida natijalarni batafsil tahlil qilish muhimdir. Innovatsion loyihalar portfoliosida takliflarning innovatsionligi va amalga oshirilishi darajasi baholanishi kerak. Hamkorlikdagi ta’lim loyihalarida asosiy jihat ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifati va turli fanlarni birlashtirish qobiliyatidir. Tajriba guruhlarda talabalar materialni tushunish chuqurligini va bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va amaliy vazifalarda qo‘llash qobiliyatini baholashlari kerak. Ushbu natijalar ta’lim dasturlari va o‘qitish usullarini yanada takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husan Muratov. 2021. DOI: https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/logos/article/view/11023

2. Shuo Chen, Junyu Lin, Zhen Lan, Hang Yuan, Yuxuan Zha. 2023. DOI: https://francis-press.com/papers/11549

3. Towards the European Higher Education Area. Communique of the Meeting of European Ministers in Charge of Higher Education in Prague. – May 19th, 2001. P.1.

4. Valiyeva F.R. To Develop Professional Training of ProfessionalEducation Specialists by Ensuring // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic LifeAvailable Online:www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021/

5. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение всовременной школе / Якиманская И.С.– М.: Сентябрь, 1996.- 96с.

6. Бердников И.Г., Джалилов А.А. Качественная и количественная оценкав научно-педагогических исследованиях: Учебное пособие / Бердников И.Г. Джалилов А.А.- Тольятти: Изд-во МГУС ПТИС. - 2000. -108 с

Anor RAXMATULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Biologiya” kafedrasi
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASINI QO‘LLASH

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida biologiya fanida o‘quvchilar mustaqil ta’limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish bosqichlari, mohiyati va metodikasi berilgan. Shuningdek, o‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Biologiya, mustaqil ta’lim, taksonomiya, kognetiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash.

В статье представлены этапы, сущность и методика организации самостоятельного обучения учащихся по биологии в общеобразовательных школах на основе таксономии Блюма. В нем также изложены достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения учащихся.

Ключевые слова. Биология, самостоятельное обучение, систематика, когнитивное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка.

The article provides stages, essence and methodology for organizing independent education of students in biology in secondary schools on the basis of the taxonomy of Blum. It also describes the progress made as a result of students' Independent Education.

Key words. Biology, independent learning, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation.

“Biologiya – bu dalillarga asoslangan tizimli metodologiyaga rioya qilgan holda tabiiy va ijtimoiy dunyoni bilish va tushunishga intilish hamda shu bilimlarini amaliyotga tadbiq etish. Milliy yuksalish yo‘lida rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonning iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta’minlovchi kasbiy ta’lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev asarlarida ham ustoz degan ulug‘ kasbning mas’uliyatli tomonlari, xalqimiz ustoz va murabbiylarimizga bo‘lgan faxr tuyg‘usi o‘z aksini topgan. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Bloom taksonomiyasining asosiy maqsadi o‘quvchini mustaqil o‘rganishi, o‘quv jarayonida faol va mustaqil muloqot qila oladigan darajada tarbiyalashdan iborat. Blum taksonomiyasi – o‘quvchi erkinligini ta’minlagan holda fanlararo kontekstda berilgan mavzuni har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar bilan birgalikda amalga oshirilgan texnologiya.

Har bir o‘qituvchining hayotidagi asosiy maqsadi maktabda olgan bilim va ko‘nikmalaridan raqobatbardosh, hayotda o‘rinli foydalanish va zamon talablari asosida fuqarolarni tarbiyalashdir.

Maktab darslari turkumini rejalashtirishda men dasturning yetti modulini darslarimga integratsiyalashuvini hisobga oldim. Shu bilan birga metodlardan unumli foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olishim kerak. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularning o‘sishiga hissa qo‘shadigan tetiklik daqiqalaridan foydalanishni ham o‘yladim. Qisqa muddatli, bosqichli “Blum” taksonomiyasi bo‘yicha bilish, tushunish, qo‘llash, to‘plash, baholash bosqichlari sifatida rejalashtirdim. Blum taksonomiyasi men uchun juda samarali yondashuv bo‘ldi. Masalan, darslarimdan birini olganimda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ichki sekretsiya bezlari ichidagi qalqonsimon bez funksiyasidan unumli foydalanib, guruh, juftlik va individual topshiriqlar berdim. O‘quvchilar bir-birlarini tinglaydilar, fikr almashadilar, muhokama qiladilar, fikr to‘playdilar, hamkorlikda bilimlarni birgalikda yaratish orqali tushuncha va ko‘nikmalar shakllantiradi.

Qalqonsimon bezning tuzilishi va funksiyasi haqidagi darsimning maqsadi: Qalqonsimon bezning faoliyati buzilganda yuzaga keladigan anomaliyalarni tushuntirdim. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, fikrni erkin bayon etishga o‘rgatadi, hamkorlikda ishlash odatini shakllantiradilar.

Qalqonsimon bez buzilganda paydo bo‘ladigan kasalliklar belgilari, miksedema, gerpes, kretinizm va plevra kasalliklarining oldini olishni biladi va ajrata oladi.

“Tasavvur”, “O‘rgimchak to‘ri”, “Baliq skeleti”, “Besh barmoq”, “To‘liqsiz gap”, “O‘ylang, birlashing, baham ko‘ring”, “Savol berish” usullari.

Materiallar: interfaol doska, stikerlar, plakatlar, markerlar, baholash varaqalari.

“Qalqonsimon bezning tuzilishi va funksiyasi” mavzusida ochiq dars o‘tdim. Darsda maktab direktori va bir qancha o‘qituvchilar ishtirok etishdi. O‘quvchilar bilan salomlashib, psixologik tayyorgarlik ko‘rdik. Ushbu yangi usul bilan dars davomida o‘rnatilgan an’anamiz bo‘yicha darsga qiziqish uyg‘otish maqsadida hamkorlik muhitini yaratdim. Men o‘quvchilardan kelgusi haftada erishgan yutuqlari haqida aytib berishlarini so‘radim. Men ikkinchisini birining aytganini takrorlamasligi haqida ogohlantirdim. O‘quvchilar kelajakdagi yutuqlarini to‘liq ifoda eta olmadilar, biroq ba’zi o‘quvchilar erishgan yutuqlari haqida qiziqish bilan gapirib, boshqalarni o‘ylashga undadilar. Fikrlash qobiliyati rivojlandi va sinfda yaxshi muhit yaratdim.

1. Bilish bosqichi: “O‘rgimchak to‘ri” usuli yordamida o‘qitish va ta’limning yangi usullari bo‘yicha uy vazifasini so‘radim. O‘quvchilar aylanada turib, ipga tegib savollarga aniq javob berdilar va o‘zlari savol berdilar. Bu usul o‘quvchilarning xotirasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Topshiriqda o‘quvchilar savol-javob orqali bir-birlari bilan dialog qurdilar. Darsga qiziqqan “to‘polonchi” darajasidagi qo‘pol o‘quvchim ham qatnashib, qanday modda, qayerdan ajralib chiqadi, qanday vazifani bajarishi haqida savol berdi. Ba’zi o‘quvchilarim savolga to‘g‘ri javob bera olmaganlarida, men o‘sha o‘quvchiga savolni tushuntirib, misol keltirish orqali yo‘naltirish savolini berdim. O‘quvchilarimdan qaysi biri darsda faol qatnashganini yoki qaysi o‘quvchi uy vazifasiga tayyor emasligini kuzatdim. Kelgusi topshiriqlarda shu o‘quvchilarni darsga ko‘proq jalb etishga harakat qildim. Bu vazifani bajarish natijasida eslab qolish qobiliyati rivojlanadi.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda inson tanasidagi a’zolar (jigar, o‘pka, yurak, miya) rasmlari yordamida ularni ajratdim. Har bir guruh o‘z guruhidan guruh sardorini sayladi. Guruh qoidalarini eslab, hamma guruh qoidalariga va guruh rahbariga bo‘ysunishini aytdi. Guruhlarga bo‘linish orqali yangi dars mavzusini biladi, farqlaydi. “Tafakkur” usuli bilan yangi dars haqida tanqidiy fikr yuritish maqsadida “Ta’limda axborot-kommunikat-

siya texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidan foydalanib, interfaol doskaga so‘zli boshqotirma qo‘yib, yangi dars mavzusini ochdim. O‘quvchilar “qalqon” javobini o‘ylab topishdi, guruh bilan muhokama qilishdi, bir-birlarining fikrini solishtirishdi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning idrokini tezlashtiradigan, tushunishlarini osonlashtiradigan, o‘qituvchiga darsni o‘tishga yordam beruvchi juda muhim vosita hisoblanadi. “Bu topshiriqda “Tanqidiy fikrlashga o‘rgatish” modulidan foydalandim. Shunday qilib, biz yangi dars mavzusi “Qalqonsimon bezning tuzilishi va funksiyasi” ekanligini bilib oldik.

2. Tushunish bosqichi: dars davomida guruhlarga: birinchi “Jigar” guruhiga tiroksin gormoni tarkibiga nimalar kiradi? Ikkinchi “Yurak” guruhi uchun kattalarda qalqonsimon bez necha grammni tashkil qiladi? Uchinchi “O‘pka” guruhi uchun qalqonsimon bezning vazni va hajmi qaysi yoshda kamayadi? va to‘rtinchi “Miya” guruhiga yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda qalqonsimon bezning og‘irligi qancha? Men ularga shu kabi savollar berdim va shu bilan birga fikrlarini isbotlash uchun plakat va markerlar berdim. O‘shanda guruh a’zolarining har tomonlama o‘ylashlari, mustaqil izlanishlari, yaxshi fikr bildirishlari, bir-birlarini o‘rgatishlari kuzatilgan. Albatta, hamma o‘quvchilar ham tanqidiy fikrlashga o‘rganilmaydi. Nima uchun guruh a’zolariga shunday deb o‘ylaysiz? Nega? Misol keltira olasizmi? Qalqonsimon bez qanday vazifani bajaradi? kabi “rag‘batlantirish” uchun mo‘ljallangan savollar orqali o‘quvchilar to‘g‘ri fikrlay olishini ko‘rsata oldi. Shunday qilib, ular o‘z fikrlarini yig‘ishdi, tushunishdi va guruh rahbari ularni boshqaradi va himoya qildi. Bu topshiriq natijasida o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritdilar, savol-javoblar orqali tahlil qildilar, hayot bilan bog‘liq kasallik turlariga misollar keltirdilar.

3. Qo‘llash bosqichi: O‘quvchilarga “Yosh xususiyatlariga ko‘ra” topshirig‘ini berdim. Bu “To‘liqsiz gap” usuli yordamida nuqta o‘rniga tegishli gapni qo‘yishdir.

1. Organizmda moddalar almashinuvi sekinlashadi, ayniqsa ..... buziladi. 2. Teri ostidagi ..... , teri quriydi, tanasi shishiradi. 3. ..... kamayadi. 4. yurak ..... sekinlashadi. 5. harakat sekinlashadi,..... yomonlashadi, sochlar to‘kiladi va ingichka bo‘ladi.

Topshiriqning to‘g‘ri bajarilishi nazorat qilinganda xatolarga yo‘l qo‘yilgan, ayrim guruhlarning javoblari to‘g‘ri bo‘lgan. Men ularning javoblarini qabul qildim va ko‘rsatmalar berdim. Guruhdagi iqtidorli va iqtidorli o‘quvchilar o‘zlari topgan ma’lumotlarning asosiy ekanligini isbotladilar va tushuntirdilar. Baholash varaqasi yordamida har bir topshiriqni o‘z vaqtida baholadik. Tetiklantiruvchi daqiqalarni o‘tkazish uchun “Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” modulini qo‘llab, interfaol doskadagi videorolikdan “Baxtli kun” qo‘shig‘iga raqs tushdik. O‘quvchilar tetiklantiruvchi mashqdan zavq olishdi. Biz o‘zimizni tetiklashtirdik va darsimizni davom ettirdik.

4. Tahlil bosqichi: bilimlarni yanada rivojlantirish maqsadida “O‘yla, birlash, baham ko‘r” usulidan foydalandim. Buning uchun o‘quvchilarga rasmlar bo‘yicha masala berdim va ularga topshiriq berdim. Ular rasmlarni yig‘ishdi va quyidagi vazifani bajarishdi. Ya’ni o‘quvchilar tiroksin gormoni barcha moddalar almashinuv jarayonlarida (oziqlanish va yog‘), organizmning o‘sishi va rivojlanishida ishtirok etishini, asab tizimi va yurakning qo‘zg‘aluvchanligini oshirishini tushunmagan. Shu munosabat bilan guruhda ish tahlil qilinib, muhokama qilindi.

Birinchi “Jigar” guruhi qalqonsimon bez barcha umurtqali hayvonlarda uchraydigan eng katta endokrin bez ekanligini ta’kidladi.

Ikkinchi “Yurak” guruhi qalqonsimon bezning old qismida joylashganligini rasmlar bilan isbotladi. Qalqonsimon bezning faoliyati buzilganda yuzaga keladigan anomaliyalar tushuntiriladi.

Uchinchi “O‘pka” guruhi kasallikni davolash uchun qalqonsimon bezning kichik qismini kesib tashlashni, shuningdek, alohida hujayralarni yo‘q qilish uchun rentgen nurlari bilan davolashni aytdi.

To‘rtinchi “Miya” guruhi tiroksin ishlab chiqarish bilan gipofiz bezining oldingi qismi tomonidan chiqariladigan gormonlarni tartibga solishini aytdi. Har bir guruhdagi iqtidorli o‘quvchilarning javoblari Venn diagrammasi yordamida tahlil qilindi.

Men o‘quvchilarimga rahmat aytdim. Chunki bunday javobni kutmagandim. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar turli topshiriqlarni bajarish orqali yangi usullarga moslasha boshlaganliklarini kuzatdim.

Chunki ularga yangi usullardan foydalangan holda darsga oid topshiriqlarni berganimda, ular topshiriqni qiziqish va sifatli bajarishga harakat qilganliklari yaqqol sezilib turardi. Topshiriqni bajarish orqali fikrlash qobiliyati, til ko‘nikmalari rivojlantirildi, iqtidorli o‘quvchilar aniqlandi.

5. Sintez bosqichi: O‘zlashtirilgan bilimlarni to‘plash maqsadida “Yuguruvchi kim?” usulidan foydalandim. Bu yerda birinchi “Jigar” guruhi miksedema belgilarini aytdi. Kasallik belgilari: organizmdagi moddalar almashinuvi 30-40 foizgacha sekinlashadi, ayniqsa, oziq moddalar almashinuvi buziladi. Ikkinchi teri ostida suv to‘planadi, teri quriydi va tanasi shishiradi. Uchinchi tana harorati pasayadi. To‘rtinchi yurak urishi sekinlashadi. Beshinchi harakat sekinlashadi, fikrlash qobiliyati yomonlashadi, sochlar tushadi.

Ikkinchi “Yurak” guruhi gipeterioz belgilarini eslatib o‘tdi. Qalqonsimon bezning to‘qimalari o‘sib boradi va kattalashadi va bir kilogrammgacha og‘irlik qiladi, shuning uchun qalqonsimon bezning shishishi deyiladi. Ushbu kasallikni davolash va oldini olish uchun 100 kg tuz uchun 2,5 gramm yod, kaliy tuzi qo‘shing. Dori-darmonlar bolalar bog‘chalari va maktablarda beriladi. Preparatning bir donasida 1 mg kaliy yodid mavjud.

Uchinchi guruh ‘‘O‘pka” kretinizm kasalligini tahlil qildi. Bu yosh bolalarda qalqonsimon bez gormoni yetishmasligi o‘sish va jinsiy kamolotga olib keladi. Bosh miya po‘stlog‘i po‘stlog‘ining ishi buziladi, aqli aqldan ozadi. Agar kasallik og‘irlashmasa, uni davolash mumkin.

To‘rtinchi guruh “Miya” Basedov kasalliklarini o‘rganadi. Qalqonsimon bez ko‘p gormonlar ajratsa, organizmdagi moddalar almashinuvi kuchayadi, yurak urishi tezlashadi, qon bosimi ko‘tariladi, asab tizimining hayajonlanishi kuchayadi. Ko‘p yesa-da, semirmaydi, aksincha, jahli chiqadi, tez terlaydi. Uning ko‘zlari katta va u oldinga qaraydi. O‘ylaymanki, bu topshiriqda o‘quvchilarning xotirasi, til ko‘nikmalari, fikrlash qobiliyatlari rivojlandi. Men topshiriq to‘g‘ri bajarilganligini kuzatdim.

6. Baholash bosqichi: Endi o‘quvchilar ushbu darsni qay darajada o‘zlashtirganliklarini nazorat qilish maqsadida “BBB” usuli yordamida fikr-mulohazalarni tashkil qildim. O‘quvchilarga stikerlar tarqatdim. Har bir topshiriq guruh rahbarlari tomonidan baholandi va jamoa a’zolari tomonidan kelishib olindi. Va fikr-mulohaza uchun u stikerlarni to‘ldirishdi va ularni “BBB” plakatiga yopishtirdi. O‘quvchilarning fikr-mulohazalari va o‘z-o‘zini baholashlari orqali “O‘rganish uchun baholash, o‘rganishni baholash” modulidan foydalandim. Darsda unchalik qatnashmaydigan o‘quvchilarimning fanga

qiziqishi uyg‘ondi. Chunki bu o‘quvchilar guruhda ishlash jarayonida darsda qanday ishtirok etayotganini, faolligini ham sezmay qoladi. Iqtidorli o‘quvchilarim, berilgan topshiriqlarni tez va ishtiyoq bilan bajarib, darsda faol ishtirok etishdi. Savollarga dalillar bilan javoblar berib, guruhlarini himoya qilishda o‘z hissalarini qo‘shdilar. Teskari aloqa orqali o‘quvchilarning dars haqidagi mulohazalari “Bugun darsdan ko‘p narsani o‘rgandim, endi ko‘proq o‘rganmoqchiman” kabi mulohazalar yozildi. “Tafakkur”, “O‘rgimchak to‘ri”, “Yuguruvchi kim?”, “O‘ylang, birlashing, baham ko‘ring!” o‘quvchilarni guruhda ishlashga, o‘z fikrini aniq va ishonchli ifoda etishga, bir-birini hurmat qilishga, qadrlashga o‘rgatish.

Xulosa qilib aytganda, mavzu bo‘yicha metodlar yordamida fikr-mulohazalarni o‘rnatib, dars bera oldim deb o‘ylayman.

Natijasi:

– qiziqishning ortishi,

– bir – birini eshitadi,

– o‘ylash, eslab qolish rivojlanadi,

– boshqalar fikrini muhokama qiladi,

– guruh bilan hamkorlikda ishlaydi.

O‘ylaymanki, darslarimda oltita modulni integratsiyalashgan holda o‘tkazsam, menda o‘ziga ishongan, faol, tanqidiy fikrlaydigan, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan individual shaxs shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o‘qitish vositalari: // Xalq ta’limi. – T., 2000. №1.

2. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. R. 251-257.

3. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017 y.

4. Tolipova J., G‘ofurov A., Umaralieva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. “Biologiya”. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2017 y.

5. Rakhmatullayeva Anor Kairullayevna, R. A. (2021). Modern pedagogical technologies used to identify Gifted students in biology teaching. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), 2(10), 211-214.

6. Qo‘ysinova Gavhar Haydaraliyevna //O‘quvchilar mustaqil ta’limni blum taksonomiyasi asosida tashkil etish// “Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta’ lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr, 720- 724 b.

Madina IMOMOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti tayanch doktaranti

BIOLOGIYA TA’LIMIGA VA O‘QITUVCHISIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kun ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, xalq ta’limi tizimida biologiya fanini interfaol metodlar asosida o‘qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tadbiq etish, zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, biologiya fanidan bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini rivojlantirish borasida ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, biologiya ta’limi va o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etiladi.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim, pedagogik texnologiya, noan’anaviy usullar, axborot kommunikatsion texnologiyalari, o‘quv-uslubiy majmualar, innovatsiya, yangi texnologiyalar, ilmiy va innovatsion faoliyat, integratsiya, interfaol metodlar, ta’lim-tarbiya jarayoni.

В статье рассматриваются вопросы развития научного мировоззрения учащихся в современном образовательном процессе, создания механизмов преподавания биологической науки в системе народного образования на основе интерактивных методов, выявления и внедрения в практику педагогических и дидактических основ, создания научно обоснованной системы проектирования, реализации и совершенствования знаний по биологии на основе интегративного подхода. ведутся исследования. Также изложена информация о биологическом образовании и требованиях к учителю.

Ключевые слова. Образование, педагогические технологии, нетрадиционные методы, информационно-коммуникационные технологии, учебно-методические комплексы, инновации, новые технологии, научная и инновационная деятельность, интеграция, интерактивные методы, учебно-воспитательный процесс.

The article deals with the development of the scientific worldview of students in the modern educational process, the creation of mechanisms for teaching biological science in the public education system based on interactive methods, the identification and implementation of pedagogical and didactic foundations, the creation of a scientifically sound system for designing, implementing and improving knowledge of biology based on an integrative approach. research is underway. Information about biological education and teacher requirements is also provided.

Key words. Education, pedagogical technology, unconventional methods, information communication tenologies, educational and methodological complexes, innovation, new technologies, scientific and innovative activities, integration, interactive methods, educational process.

Bugungi kunda mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, jahonning yetakchi rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin olishi ko‘p jihatdan o‘sib kelayotgan yosh-avlodlarga bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog bugungi kun yoshlariga ta’lim va tarbiya berishdek mas’uliyatli vazifasini sidqidildan bajarishi, ta’lim jarayonlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida sifatli va samarali tashkil etishi ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya oliy ta’lim tizimini ijtimoiy

soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi.

Bugungi kunda mavjud va rivojlanayotgan yangi texnologiyalar ta'lim tizimini o'zgartirishi mumkin bo'lgan ulkan salohiyatga ega. Axborot kommunikatsion tenologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish aqliy va jismoniy rivojlanishida muommolari bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun bilim olish imkoniyatini yaratuvchi zaruriy vosita yekanligi isbotlandi.

Shu bois turli davlatlar tomonidan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Axborot kommunikatsion tenologiyalari yordamida tayyorlangan darslar faqat aqliy va jismoniy rivojlanishida muommolari bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun bilim olish imkoniyatini berib cheklanib qolmasdan hozirgi vaqtda uyda o'tirgan holatda har bir fan yuzasidan ma'lumot va bilimlar sog'lom bolalarga hamda o'smirlarga, qolaversa maktabni tamomlagan katta yoshdagi insonlar ham foydalanib ilm olishiga qulayliklar yaratmoqda.

Hozirgi davrning dolzarb muommolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiya tushunchasi haqida.

"Yangi pedagogik texnalogiya" yoxud "innovatsiya" tushunchasi tarkibida garchand yaqin yillardan beri qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning ildizlari o'zoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta asrning buyuk mutafakkirlari Umar Xayyom, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino kabi olimlar izlanishga asoslangan o'qitish g'oyasini ilgari surganlar.

Umar Xayyom o'zining "Matematik traktatlari"da "Ozgina o'yla, o'zing topasan", "Fikrlasang bilib olasan" degan davatlar asosida o'qitish lozimligini qayd qiladi, Abu Nasr Farobiy moddiy borliqni fahmlash va bilishning asosi-fikrlashda ekanligi uqtiriladi.

Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan "Yangi pedagogik texnologiya" (yoki innovatsiya-yangiliklarni amaliyotda qo'llash) noan'anaviy usullarni qo'llash, ulardan foydalanish deb talqin etiladi. Ko'pgina taqrizchi olimlar va o'qituvchilar biologiya darslarida o'yin topshiriqlardan foydalanishni ham, darslarni turli shakllarda tashkil etishni ham yangi pedagogik texnalogiya deb tushunadilar. Yangi pedagogik texnologiya bizning nazarimizda, ikki unsur birligidan iborat:

1. Biologiya ta'lim mazmunini to'g'ri belgilash.

2. Belgilangan ta'lim mazmuniga muvofiq keladigan zamonaviy metod vosita va usullarni qo'llash.

Yangi pedagogik texnologiya "o'qituvchi + o'quv topshiriq + o'quvchi" o'rtasidagi mutanosiblikka asoslanadi. O'quv topshirig'i, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bog'lovchi muhim bir xilqat bo'lib, u o'qituvchiga ta'lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida, o'quvchiga esa, shu murakkab jarayonning subyektiv (faol ishlovchisi) sifatida qarashni taqozo etadi.

Endilikda o'quvchi o'quv jarayonining obyekti, berilayotgan axborotlarni qabul qiluvchi emas, balki ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi va berilgan o'quv topshiriqlarining faol bajaruvchisidir. Bu o'z navbatida, o'quv topshiriqlaridan foydalanishga ham yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanil-

moqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Ayni vaqtda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng keng tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida va ularda oq‘tiladigan fanlarda keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Didaktikada o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati sifatida ham ko‘rib chiqilgan, tadqiqotda ana shu nazariyalarga asoslanildi va quyidagilar e’tiborga olindi. Buning uchun biologiya o‘qituvchisi quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

– biologiya o‘qitishning dastlabki vaziyatini tahlil qilish, o‘qitish jarayonida maqsadga erishish uchun mazmun, vosita va metodlarni tanlash. Ularning tahsil oluvchilar ruhiy va yosh fiziologik holati, motivi, ehtiyoji, qiziqishiga mosligi;

– o‘qitish jarayonini loyihalash, o‘qitish mazmuniga mos holda maqsadga erishish vositalarini tanlash, o‘quv materialini turli usullar yordamida yetkazish va tahsil oluvchilar tomonidan ongli o‘zlashtirilishiga erishish;

– o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning o‘quv ishlari (o‘quv materialini yuqori darajada o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar faoliyati)ni samarali tashkil etish;

– o‘qitish jarayonida teskari aloqani muntazam tashkil etish, nazorat va o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va o‘z-o‘ziga nazoratni amalga oshirish;

– tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘qitish natijasi va maqsadga erishish darajasini aniqlash;

– darsni, o‘qitishning boshqa shakllari (darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari ishlar, ekskursiyalar) bilan uyg‘unlikda tashkil etish. Ushbu vazifalarni hal etishda o‘qitish jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchi faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi faoliyati yosh avlodning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy qobiliyatlarini uyg‘un ravishda faollashtirish maqsadida ta’lim mazmuniga binoan tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sanaladi.

Ushbu faoliyat quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

– o‘quv materialini tanlash, sistemaga solish, mantiqiy ketma-ketlikda loyihalash;

– tahsil oluvchilar uchun o‘quv materialini qabul qilish, anglash va ongli o‘zlashtirish imkonini beradigan o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarini tanlash;

– pedagogik jarayonni yaxlit holda tashkil etish, ularning bilimlar tizimi va bilimlarni o‘zlashtirish usullarini egallashlariga erishish;

– o‘zining va tahsil oluvchilarning mashg‘ulot davomidagi faoliyatini rejalashtirish;

– tahsil oluvchilarning bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish usullarini egallashga qaratilgan ongli faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirish metodlarini belgilash;

– tahsil oluvchilar tomonidan o‘quv topshiriqlarining bajarilish sifatini orttirish yo‘llarini belgilash;

– nazorat, o‘qitish natijalarini tahlil qilish va tahsil oluvchilar shaxsini faollashtirish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni belgilash;

– o‘qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

O‘qituvchining ta’lim jaryonini boshqarish ko‘nikmasi o‘qitish jarayoniga faqat tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan cheklanmasdan balki, mazkur jarayonning subyekti bo‘lgan tahsil oluvchilar shaxsida axloqiy sifatlarning shakllanishi, ularning ma’naviy yuksalishi ko‘zda tutiladi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o‘qituvchi, avvalo, faoliyat turlari, unga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinajak natijalarni faraz qilishi zarur.

O‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi rahbarlik roli tahsil oluvchilarning o‘quv materialini ongli va faol o‘zlashtirishini boshqarish sanaladi. Buning uchun o‘qituvchi:

– ilmiy jihatdan asoslangan o‘quv vazifalarini belgilashi;

– tahsil oluvchilar tomonidan ushbu vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan qulay psixologik muhitni vujudga keltirishi;

– o‘quv vazifalarini hal etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat haqida aniq ko‘rsatma berishi;

– tahsil oluvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni faraz qilishi, ularga o‘z vaqtida va yetarli darajada yordam ko‘rsatishi;

– tahsil oluvchilarda o‘zaro hamkorlik, yordam, samimiy muloqot, burch va mas’uliyat hissini vujudga keltirishi zarur.

O‘qitish jarayonidagi o‘qituvchi faoliyatining har bir bosqichi tahsil oluvchilar faoliyatining xarakteri va shaxsidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Shu sababli, o‘qituvchi faoliyatni amalga oshirishda muayyan bosqich, o‘quv fani va uning har bir bo‘limidagi o‘qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi, ularni evolyutsion tarzda amalga oshirish yo‘llarini belgilashi lozim. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv-bilish xarakteriga ega bo‘ladi. O‘qitish jarayonining samaradorligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini o‘qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko‘nikmalarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida biologiya o‘qitishga quyidagi talablar qo‘yildi:

– biologiya o‘qitishning barcha shakllarida dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarda ta’lim oluvchilar uchun ma’naviy axloqiy tarbiyalash, o‘qitishning samarali shakllari hamda usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

– biologiyadan o‘qish, mustaqil bilim olishni individuallashtirish va tabaqalashtirish;

– biologiya o‘qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samaradorlikka erishish;

– biologiya ta’limi jarayonida xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlari asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash;

– biologiya o‘qitishda didaktika fani yutuqlarini pedagogik amaliyot bilan integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish;

– biologiyadan o‘quv-uslubiy majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

– o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlashni amalga oshirish;

– milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlari, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitari-

ya-gigienik ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

– biologiya ta’limida o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko‘tarish.

Mamlakatimizning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoillari, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatish tamoiliga uzviy ravishda biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan tamoillar, mazkur tamoillar asosida pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan o‘qitish qonuniyatlari belgilandi, o‘qitish tamoillari mazmuni va mohiyatiga ko‘ra biologiya ta’limi mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydigan tamoillarga ajratildi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy g‘oyalarida ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablari asosida uzluksiz ta’lim tizimidagi biologiya o‘qitishga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi, belgilangan o‘qitish tamoillari, qonunlari va biologiya ta’limiga qo‘yilgan talablar biologik ta’limni takomillashtirishni taqozo etadi.

Bundan ko‘rinib turibdi-ki, biologiya o‘qituvchisi biologiya fanida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan usullar va texnologiyalar, grafik organayzerlar juda ko‘pdir va ular bilan birgina maqolada batafsil tanishishning imkoni yo‘q. Shu bilan birga kelajakda biologiya fanini o‘qitishda yangidan-yangi o‘qitish usullari va texnologiyalari shakllanishi shubhasiz. Umuman olganda biologiya fanining o‘qitishda foydalaniladigan usullar dars samaradorligini oshirishda qo‘llash o‘quvchilarning biologiya darslariga va biologiya faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga zamin yaratadi. Bu esa o‘quvchilarga kelajakda biologiya fani ma’lumotlarini chuqur o‘zlashtirishlari va biologiya ta’lim mazmunini to‘g‘ri anglashlari, ta’lim mazmuniga muvofiq bo‘lgan zamonaviy metod vosita va usullarni tushunishlari hamda bilishlari uchun interfaol metodlarni avvalambor o‘qtuvchining o‘zi yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019. 06/19/5847/3887-son

2. (Хуторской А. Ключевые компетенсии. Технология конструирования // Народное образавание. 2003,№5.55-61-б

3. Avlaev O.U., Jo‘raeva S.N., Mirzaeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashryoti, –T., 2017.

4. Turaev B.E., Isaev X., Akbarova G.O. // Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi [matn] // o‘quv qo‘llanma. –T.: “Barkamol fayz media”, 2018.

5. Tolipova Jamila Olimjonovna diss: “Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti” Qo‘lyozma huquqida UDK 57: 371-3 –T., 2006 38-B

6. www.ta’lim.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz.

Ismoil KODIROV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari nomzodi

MUHANDIS ENERGETIK KADRLARNI TAYYORLASHDA “NISHON TUMANI QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI” KORXONASI – “MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI” KAFEDRASI DARAJASIDA DUAL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limda muhandis energetik kadrlarni tayyorlashda “korxona – kafedra” darajasida zamonaviy ta’lim tizimi hisoblangan dual ta’limni tashkil etish, dual ta’lim tamoyillarini aniqlash, o‘qitishning uslubiy ta’minotini ishlab chiqish to‘g‘risida masalalari muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Quyosh suv isitish uskunalari, gidroelektr qurilmalari, quyosh fotoelektrik panellari, “korxona – kafedra”, tashkil etish, tamoyillar, kompetensiyalar, fanlar bilan integratsiyasi, korxonalar.

В статье рассматриваются вопросы организации дуального образования, которое считается современной образовательной системой на уровне “предприятие-кафедра”, определение принципов дуального образования, а также разработка методического обеспечения подготовки инженеров-энергетиков в высшей школе.

Ключевые слова. Солнечное водонагревательное оборудование, гидроэлектрические устройства, солнечные фотоэлектрические панели, “предприятие – кафедра”, организация, принципы, компетенции, интеграция с наукой, предприятия.

The article discusses the organization of dual education, which is considered a modern educational system at the “enterprise-department” level, the definition of the principles of dual education, as well as the development of methodological support for the training of energy engineers in higher education.

Key words. Solar water heating equipment, hydroelectric devices, solar photovoltaic panels, “enterprise - department”, organization, principles, competencies, integration with science, enterprises.

Ma’lumki, joriy yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida PF-37-son farmoni e’lon qilindi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasida qo‘yilgan maqsadlardan biri bu – Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘lib, uni bajarishda “Ta’lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish” vazifasini bajarish ko‘zda tutilgan. Bunday vazifalarni bajarish uchun amaliy chora tadbirlar sifatida birinchi navbatda Oliygohlarda amaliyotga yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash muddatlari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni qayta ko‘rib

chiqish, ta’lim dasturlarini dunyoning nufuzli universitetlari andozasi asosida takomillashtirish talab etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son Qarori bilan professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo‘nalishida malakali muhandis energetik kadrlar tayyorlash borasida milliy reja, maxsus dastur ishlab chiqish, mazkur soha uchun oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida dual ta’lim tizimini qo‘llagan holda kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi tizim yaratish kabilar dolzarb vazifalarning amaliyoti muhim ahamiyatga ega. Chunki muqobil energiya manbalaridan amalda foydalanish va bu borada malakali muhandis energetiklar tayyorlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va malakali kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida mamlakatimizni “yashil energetika” bilan ta’minlanishi borasida qizg‘in ishlar olib borilmoqda, xususan Qashqadaryo viloyatida ham. Qashqadaryo viloyatida aholini va ishlab chiqarish sanotlarini “yashil energetika” bilan uzluksiz ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar borasida gapiradidan bo‘lsak, “Poverprof-group” MChJ (Toshkent viloyatidan ro‘yxatdan o‘tgan) tomonidan Qarshi tumanining “Batosh” MFY hududida quvvati 2 MVt bo‘lgan foto elektr stansiyasi, Muborak tumanidagi “EMJ inter investment” korxonasi (1 MVt) va “QEHENG Muborak” MChJ (2 MVt) tomonidan quvvati 3 MVt bo‘lgan foto elektr stansiyasi, Kitob tumanida “Nature Green Energy” MChJ tomonidan 450 ming dollar investitsiya hisobiga 300 KVt hamda Ko‘kdala tumanida “Asl barkamol quvvat” XK tomonidan 280 ming dollar evaziga quvvati 185 KVt gidro elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan.

Shuningdek, “Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida quvvati 300 megavatt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish” loyihasi doirasida Masdar (BAA) kompaniyasi o‘tkazilgan tender tanlovida g‘olib bo‘ldi. Loyiha G‘uzor tumanidagi 300 megavatt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi va 1 soat davomida 75 megavatt quvvat beradigan energiya saqlash tizimi (akkumulator)ni o‘z ichiga oladi.Viloyatning “Chiroqchi” erkin iqtisodiy zonasida joylashgan “SOLAR CLUSTER” loyihasi doirasida mahalliy korxonalar tomonidan quyosh suv isitish uskunalari, gidroelektr qurilmalari, quyosh fotoelektrik panellari va boshqa jihozlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan investitsiya loyihasining qurilish ishlari davom etmoqda.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli qariyb ming gektarga yaqin bepoyon kenglikda qurilayotgan quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasining qurilishi jadal bormoqda. Xitoy davlatidan keltirilgan 100 megavattga teng bo‘lgan quyosh panellari va uskunalarni o‘rnatish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Reja amalga oshgach, buning natijasida tarmoqqa 42 million kVt/soat elektr energiya yetkazib beriladi. Albatta, bu kelgusida mamlakatimizning “yashil energetika” bilan ta’minlanishiga, eng muhimi, mavjud resurslar iqtisod qilinishiga zamin yaratadi. Stansiyada ishlab chiqarilgan elektr energiyani yagona energetika tizimiga ulash uchun “O‘zbekiston MET” AJ mablag‘lari hisobidan 3 ta uzunligi 36 kilometr bo‘lgan 220 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘ini qurish ishlari ham oxirlab qolgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bunday quyosh suv isitish uskunalari, gidroelektr qurilmalari, quyosh fotoelektrik panellarini va boshqa jihozlarni ishlab chiqarish jarayonida va quyosh fotoelektr stansiyalarini uzluksiz, yuqori quvvatda samarali ishlatish uchun yuqori malakali muhandis energetiklarni tayyorlashda dual ta’limni tashkil etish va undan unumli foydalinish dolzarb masala hisoblanadi. Bu masalaning yechimi esa malakali muhandis energetik kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarining ta’lim tizimiga dual ta’lim tizimini joriy etishdan iborat bo‘lib, o‘qitishning dual tizimida – ta’limning nazariy qismi ta’lim muassasasida va amaliy qismi esa ish joylarida tashkil etiladi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar tadqiqotlarining qisqacha tahlili. Dual ta’lim tizimi Germaniya, Xitoy, AQSH, Koreya, Daniya, Fransiya, Makedoniya, Chernogoriya, Shveytsariya, Niderlandiya, Daniya, Avstriya, Serbiya, Sloveniya, Makedoniya, Chernogoriya, Shveytsariya, Niderlandiya va ayrim Osiyo davlatlarida, ya’ni 60 dan ortiq mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda va u zamonaviy o‘qitish ta’lim texnologiyalaridandir hamda o‘qitishning asosiy tizimi hisoblanib, bunda ta’lim jarayoni va amaliyotning integratsiyasi ishlab chiqarish korxonalarning turli xil sohalarida malakali mutaxassislarning yuqori sifat darajasida tayyorlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Dual” degan nom haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, dualizm (lot. dualis – ikki yoqlama) – bir-biri bilan birlashtirib bo‘lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ‘ib qiluvchi ta’limot. Dualizm plyuralizm ko‘rinishlaridan biri. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679 – 1754) kiritgan. Dualizm quyidagi juft tushunchalarni ifodalaydi: g‘oyalar dunyosi va voqei dunyo. Dualizm falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

L.V.Sidakova dual ta’lim tizimi “ta’lim muassasasining o‘qish faoliyatini ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan kombinatsiyasini nazarda tutuvchi ta’lim tizim” ekanligini e’tirof etadi. Mutaxassislar tayyorlashning dual ta’lim tizimini “oliy kasbiy ta’limning ish beruvchi ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi aniq muvofiqlashtirilgan, muayyan kasb-hunar bo‘yicha talab qilinadigan malaka darajasiga ega bo‘ladigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta’lim tizimi” deb qarash mumkin. Shuningdek, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilib ko‘rilganda dual ta’lim tizimini nazariy mashg‘ulotlar ta’lim muassasalarida, amaliyot esa ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ta’lim modeli sifatida tassavvur qilish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining muhandis energetik kadrlar tayyorlashdagi muammolaridan biri bu – oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy mashg‘ulotlar va amaliy ko‘nikmalari, ish beruvchi korxonalar va mehnat bozori orasidagi bo‘shliqlarning mavjudligidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini yanada mukammaltirish borasida oliy ta’lim bitiruvchilarining kelajakdagi ish funksiyalarini hisobga olgan holda moslashtirilgan davlat ta’lim standartlarini va professional standartlarini joriy etish orqali bu bo‘shliqni asta-sekin kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar olib borilmoqda. Har qanday kasbning bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlashda bunday ta’limning modelini amalga oshirish dual ta’lim tizimidan foydalanilgan holda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, dual ta’lim tizimini tashkil etishning “korxona – universitet”, “korxona – kafedra”, “korxona – laboratoriya” kabi bir qancha tuzilmaviy

darajada qurishda dual ta’lim bilan bog‘liq bir qator muammolar paydo bo‘ladi. Bunda qo‘yilgan maqsadga qarab keraklisi tanlab olinadi.

Dual ta’lim tizimini tashkil etishning o‘nta eng muhim (10 ta) o‘ziga xos xususiyatini tahlil qilish asosida “korxona – kafedra (laboratoriya)” darajasida tashkil etishda uning bir qancha tamoyillari aniqlangan va ularning sakkizta (8 ta) mezonini tanlash o‘ta muhim hisoblanadi.

Dual ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini an’anaviy mashg‘ulotlar bilan o‘zaro taqqoslash quyidagi 1-j advalda keltirilgan.

Dual va an’anaviy ta’lim tizimlari xususiyatlarini taqqoslash

1-jadval

№	**Dual ta’lim tizimi**	**An’naviy ta’lim tizimi**
1	Mutaxassislarni o‘qitishning tuzilishi, mazmuni va hajmi korxona haqiqiy ehtiyojlariga mos keladi.	Mutaxassislar tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va hajmi ta’lim yo‘nalishi standartidagi meyoriy hujjatlarga rioya qilishi ko‘rsatilgan.
2	Amaliyot to‘g‘ridan-to‘g‘ri zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarida amalga oshiriladi.	Ishlab chiqarishnig zamonaviy uskunalarida amaliyot o‘tilishining ehtimoli taxminan 10 foizni tashkil qiladi.
3	Laboratoriya, kurs ishi va bitiruv malakaviy ish mavzulari ish beruvchi korxonalarning potensial ehtiyojlari uchun yo‘naltirilgan.	Laboratoriya, kurs ishi va yakuniy malaka ishi mavzulari ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini yomon aks ettiradi.
4	Har bir auditoriyada ishlab chiqarish uskunalarining zamonaviy o‘rnatilgan analoglari (haqiqiy modellar, namunalar) mavjud.	Zamonaviy uskunalarning analoglari hamma ta’lim muassasalarida mavjud emas.
5	Mintaqaviy mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarning aniq ro‘yxati monitoringgi olib boriladi.	Talab etiladigan mutaxassisliklarning monitoringi mavjud emas.
6	Talabalar korxonaning korporativ madaniyati bilan tanishadilar va bir jamoa bo‘lib ishlaydilar.	Qisqa muddatli amaliyotda talabalar korxonaning urf-odatlari va an’analari bilan tanisha olmaydi.
7	Nazariy qismi uchun davlat ma’sul, amaliy qismi uchun kasb-hunar o‘quv markazi, korxona javobgar yoki hammasi birgalikda javobgar.	Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun ta’lim muassasalari ma’sul.
8	Talabalar korxona tomonidan stipendiya bilan ta’minlanadi.	Tayyorgarlik davlat yoki talabaning o‘zi hisobidan amalga oshiriladi.
9	Amaliy ishlar korxonaning ustoz rahbarligida olib boriladi.	O‘qitish o‘qituvchi tomonidan olib boriladi.
10	O‘qituvchilarni korxonada maxsus fanlar bo‘yicha malakasini oshirish imkoniyati mavjud.	Amaliy mashg‘ulotlar olib borish uchun amaliyotchilar jalb qilinadi.

Dual va an’anaviy ta’lim tizimlari farqlarini qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, “korxona - kafedra (laboratoriya)” darajasida dual ta’limni tashkil etish va joriy qilish uchun jadvaldagi 8 ta punktni ya’ni punktlarning tanlanishi, inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarni hisobga olib, ko‘rsatilgan sakkizta (8 ta) mezonni tanlagan holda, oliy ta’lim tizimida dual ta’limini qo‘llagan holda malakali muhandis energetik kadrlarni tayyorlashda aniq fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasidan foydalanib, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda yangi dasturlar asosida talabalarning o‘qish jarayonini va amaliyot o‘tashlarini to‘g‘ri tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda, xususan dual ta’limni “korxona – kafedra” darajasida tashkil etish borasida “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot

instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi o‘rtasida dual ta’lim tizimini joriy qilishni yo‘lga qo‘yish rejasi ustida ish olib borilmoqda.

Dual ta’lim tizimi – bu ish beruvchi korxonalar va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ta’lim muassasasining o‘zaro hamkorligiga asoslangan tarmoq shakli, ya’ni “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi”ning muvofiqlashtirilgan o‘zaro hamkorligiga asoslangan tarmoq shakli ekanligi nazarda tutiladi.

Dual ta’lim nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi, bunda talaba oliy ta’lim muassasi hisoblangan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasida kasbiy faoliyat asoslarini (nazariy qism) o‘zlashtirishi kerak va mashg‘ulotning amaliy qismini esa bevosita ish joyi hisoblanadigan “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” da amalga oshiradi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi professor-o‘qituvchilari muayyan ish joylari hisoblangan “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi”da amalga oshiriladigan dual ta’lim dasturlari uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv, ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyot; 2) amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari; 3) auditoriyadan tashqari ishlar (ekskursiyalar, davra suhbatlari, mahorat darslari).

Hozirgi vaqtda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 60711000 - Muqobil energiya manbalari (Quyosh va shamol energetikasi) mutaxassisligi bo‘yicha talabalar uchun dual ta’lim elementlarini joriy etish maqsadida ishlar olib borilmoqda.

Bitiruvchilarning zamonaviy iqtisodiyotda talab etilayotgan malaka sifatiga ega raqobatbardoshligini oshirish uchun hamda bitiruvchilar soni bo‘yicha ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.

1) ish beruvchilar tomonidan kutilayotgan malaka darajasi yuqori bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash; 2) mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish; 3) oliy ta’lim muassasalari ta’limi tizimiga investitsiyalarni jalb etish.

“Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” institut talabalari, professor-o‘qituvchilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son qarori bilan professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom.

“Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi o‘rtasida dual ta’lim tizimini joriy qilishni yo‘lga qo‘yish rejasi bo‘yicha tayyorgarlikni amalga oshirish ikki bosqichdan iborat bo‘ladi:

– Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasida dual ta’limga tayyorgarlikning dual ta’lim tizimi bo‘yicha quyidagi me’yoriy, o‘quv va uslubiy hujjatlar ishlab chiqiladi:

– Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” bilan talabalarga dual ta’lim berish to‘g‘risidagi shartnomalar; ta’lim muassasasida dual ta’limning ayrim turlarini o‘tkazish qo‘shimcha ravishda belgilandi; 60711000 -Muqobil energiya manbalari (Quyosh va shamol energetikasi) mutaxassisligi bo‘yicha dual ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi, dasturlar “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” bilan muvofiqlashtirilgan holda tayyorlanadi; mutaxassislik bo‘yicha “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” bilan kelishilgan holda o‘quv

rejasi ishlab chiqiladi; dual ta’lim rejalari va jadvallari tayanch ta’lim muassasasi bilan kelishiladi; dual ta’limni joriy etish doirasida ta’lim jarayonini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tuziladi;

– “Ishlab chiqarish korxonalarida dual ta’limni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” gi Nizom tayyorlanadi va tasdiqlanadi;dual ta’lim bo‘yicha shartnomalar ishlab chiqiladi va talabalar bilan shartnomalar tuzishga tayyorgarlik ko‘riladi. Dual ta’lim dasturlarini amalga oshirish bosqichida tasdiqlangan jadvallar asosida 3-4 kurs talabalarini dual o‘qitish amalga oshirilib, amaliy mashg‘ulotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ish beruvchi korxona yoki tashkilotlarda turli xilda amaliyot o‘tash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Dual ta’lim elementlari doirasidagi amaliyot professional modullar bo‘yicha tashkil etiladi. Amaliyot turlari tugatilgandan so‘ng, differensial testlar o‘tkaziladi. Amaliyot natijalarini himoya qilish (malakaviy) imtihonning ajralmas qismiga aylanadi. Ijtimoiy sheriklar o‘rganilayotgan modullar bo‘yicha o‘tkaziladigan imtihonlarda (malakaviy) ishtirok etishi, mutaxassislik bo‘yicha malakalarni berish bilan davlat yakuniy attestatsiyasida ishtirok etish orqali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Fanlar integratsiyasi professor-o‘qituvchilari ham ijtimoiy sheriklik korxonalarida amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, shuningdek, mahorat darslarida, seminarlarda, turli xil konkurslarda qatnashib, buning natijasida esa o‘zlarining malakaviy darajalarini oshirishlari va yangi zamonaviy asbob-uskunalarning texnologik imkoniyatlarini bilishlari hamda ularni egallashlari mumkin bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki tadqiqot metodologiyasida dual ta’lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarning tahlilidan, Sobiq Ittifoq ta’lim dasturining mazmunini o‘zaro baholashdan, o‘quv reja, dasturlar, o‘quv-me’yoriy hujjatlardan, kuzatish, so‘rov, anketa, test, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov va tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

1. Dual ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari tamoyillarini shakllantirish, takomillashtirish va uni “korxona – kafedra” darajasida ya’ni “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi” o‘rtasida dual ta’lim tizimini joriy qilishi maqsadga muvofiqdir. Muhandis energetik mutaxassislar tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va hajmi korxonaning haqiqiy ehtiyojlarga mos kelishi kerakligi aniqlandi.

2. Dual ta’limni “korxona – kafedra” darajasida tashkil etishning uslubiy tamoyillari kafedra va korxona hamkorligidagi ta’lim jarayonini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish, talabalarning kognitiv faoliyati (nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish) faoliyatini oqilona tashkil etishning imkonini beradi.

3. Korxona ehtiyojlarini hisobga olgan holda talabalarning mutaxassislik fanlarini professional modul asosida o‘qitish hamda o‘qitish materiallarini o‘z ichiga olgan holda uning mazmunini qayta ko‘rib chiqish zarurati ma’lum bo‘ldi.

4.Talabalarning tajribaviy ko‘nikmalariga va olayotgan bilimlariga asoslanib, dual ta’lim sharoitida o‘qitishning dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi. Dual ta’lim jarayonini “korxona – kafedra” hamkorligida oqilona tashkil etishda uslubiy, dasturiy ta’minot yetarli emasligi aniqlandi;

5. Bitiruvchi talabalarning kasbiy harakatchanligi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi; oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari faoliyatlari o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi;

1. O‘qituvchi sifatidagi korxonaning ishlab chiqarish ustozlarini fanlarni alohida

bo‘limlarini o‘qitishga (agar kerak bo‘lsa, ular uchun dual ta’lim to‘g‘risidagi o‘quv seminar-treninglarni o‘tkazish) jalb qilish kerak.

2. Kafedra va korxona o‘rtasidagi o‘zaro hamkorliknig uslubiy va uslubiy tamoyillari asosida tashkiliy va boshqaruv muammolari o‘zaro kelishilgan holda hal qilinishi kerak.

3. Muhandis energetik mutaxassislik bo‘yicha fanlardan bajariladigan laboratoriya ishlarining mavzulari korxona ishlab chiqaradigan tovarlar, mahsulotlar va ularning sifatini aniqlovchi optimal parametrlarini aniqlash va yuqori samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lishi lozim;

4. Bajariladigan kurs ishlari va yakuniy malakaviy bitiruv ishi mavzulari ish beruvchi korxonalarning potensial ehtiyojlariga yo‘naltirilishi kerak.

5. Bo‘lajak muhandis energetiklarning kasbiy kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllanishini rivojlantirish uchun dual ta’limni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega va dual ta’lim asosida o‘qitish uslublarini yanada takomillashtirilishini ilmiy tadqiqot etilishi kerak.

6. Kelajakda kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirilishini rivojlantirishda talabalar o‘rtasida o‘z-o‘zlarini baholash so‘rovini o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Foydalanilga adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 21.02.2024-yildagi PF-37 -sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son Qarori.

3. Сидакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения. Образование и воспитание. 2016; 2: 62 – 64.

4. Растегаева Д.А., Филимонюк Л.А. Основы реализации системы дуального обучения в профессиональной подготовке студентов организаций высшего образования. Мир науки, культуры, образования. 2017; 6 (67): 110 – 112.

5. Харитонова Н.Д. Дуальная система образования в высшей школе: эффективность внедрения. Электронный научно-методическийжурнал Омского ГАУ. 2017; 3: 15. Аваилабле ат: ҳттпс://элибрарй.ру/итем.асп?ид=28889620

6. Kodirov I.N.Dual education system in training qualified alternativi energy personnel in cooperation with manufacturing enterprises. Proccedings of International Educators Conference.Hosted online from Rome, Itale. Website: conferenceseries. com.E-ConferenceSeries.Date: 25th March, 2024.ISSN:2835-396X.Pp.100-110.

7. Шумакова О.В, Мозжерина Т.Г, Комарова С.Ю, Гав- рилова Н.В. Опыт дуального образования как возможность повышения эффективности профессиональной подготовки обучающихся // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. 2016. № 4 (7). URL http://e-journal.

8. Матвеев Н.В. Дуальное обучение студентов техни-кума: преимущества и риски в оценке выпускников, пре-подавателей и работодателей // Вестник Новгородского государственного университета им. Ярослава Мудро- го. 2015. № 5 (88). С. 71-74

9. Kodirov I.N. Muhandis-texnik kadrlarni tayyorlashda ta’limning o’ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari. “Taffaur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnali.2024/2-son.10-14 b.

Gulbaxar ABILOVA,
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali,
pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent
Amangul YESHMURATOVA,
Navoiy davlat konchilik texnologiyalari universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti assistent o‘qituvchi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI KONCHILIK YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti ta’lim tizimida raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlari bo‘lgan raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish asnosida ko‘rib chiqiladi. Bunda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanib talabalarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanish darajasini aniqlash va fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy kompetensiya, raqamli ta’lim texnologiyalari, HEMIS axborot tizimi, eksperiment, metodika, interfaol usullar, padagogik g‘ildirak.

В статье рассматривается использование цифровых образовательных ресурсов, являющихся компонентами цифровой образовательной среды, в образовательной системе Нукусского горного института при Навоийского государственного горно-технологического университета, при преподавании предмета “Информационные технологии в технических системах”. С помощью цифровых образовательных ресурсов был проанализирован уровень развития профессиональных компетенций студентов и показатели владения предметом.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, цифровые образовательные технологии, информационная система ХЕМИС, эксперимент, методика, интерактивные методы, падагогическое колесо.

The article discusses the use of digital educational resources, which are components of the digital educational environment, in the educational system of the Nukus Mining Institute at the Navoi State Mining and Technological University, when teaching the subject “Information Technology in Technical Systems”. With the help of digital educational resources, the level of development of students’ professional competencies and indicators of subject proficiency were analyzed.

Key words. Professional competence, digital educational technologies, HEMIS information system, experiment, methodology, interactive methods, padagogical wheel.

Raqamli texnologiyalar juda tezlik bilan tarqalib, hayotimizga va ta’lim tizimiga to‘lig‘icha kirib keldi. Biroq, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi talabalarni uslubiy qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Talabalarning ta’lim natijalarini yaxshilash uchun quyidagilarni yagona o‘quv jarayonida uyg‘unlashtirish kerak: talabalarning kelajakdagi kasbiy sohada qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishlari; talabalarning korxonalar tomonidan shakllantirilgan belgilangan kasbiy yo‘riqnomalarga erishishi; raqamli texnologiyalar sohasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti ta’lim tizimida raqamli ta’lim muhitining tarkibiy qismlari bo‘lgan raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish as-

nosida ko‘rib chiqiladi. Bunda talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati sohasida kasbiy ko‘nikma va salohiyatlarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan interfaol dasturni qo‘llash metodikasi ayniqsa muhim komponent hisoblanadi. Nukus konchilik institutida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish darajasini oshirishga, shuningdek, malakali mutaxassislarni samarali tayyorlashga yordam beradi.

Hozirgi kunda oliy ta’limda bakalavrlar tayyorlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim – bu ta’lim oluvchining o‘quv jarayonida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo‘llash qobiliyati nuqtayi nazaridan beriladigan ta’limdir. Raqamli texnologiyalar hamma joyda juda tez tarqalib, hayotimizga va ta’lim tizimiga ham kirib keldi. Ular yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlarni ochib beradi. Raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, talabalarga amaliy kasbiy dasturlar orqali mustaqil ta’lim olish imkonini beradi va talabaga o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda individual ta’lim traektoriyalarini tanlash imkonini beradi. Biroq, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi raqamli texnologiyalar olamida o‘qituvchilar va talabalarni uslubiy qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini yaratish zarur. Bu konchilikning yuqori texnologiyali sohalari uchun mutaxassislar tayyorlashda ham dolzarbdir. Raqamli makonda o‘quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, mualliflar “Konchilik ishi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish asnosida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishni ko‘rib chiqadilar.


Hozirgi kunda konchilik sanoati korxonalari amaliy kasbiy dasturlar va elektron raqamli texnologiyalar orqali texnologik jarayonlarni boshqarishga to‘liq o‘tdi. Ular mehnat unumdorligini tubdan oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tadilar. Ta’lim tizimini raqamlashtirishning vazifalari o‘quv jarayonini quyidagilar bilan uyg‘unlashtirishdan iborat: talabalarning korxonalar tomonidan shakllantirilgan belgilangan kasbiy kompetensiyalarni egallashi; talabalarning kelajakdagi kasbiy sohalarida raqamli texnologiyalarni amaliy qo‘llay olishi; raqamli texnologiyalar sohasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron raqamli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa o‘quv materiallari, test vositalari, video va audio o‘quv xizmatlari, onlayn kurslar ma’lumotlar banklarini yaratish zarur. Talabalar, o‘qituvchilar va ish beruvchilarning ishtirokisiz bu muammoni hal qilish mumkin emas. Bularning barchasi bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha mavjud tizimni qayta ko‘rib chiqish, o‘quv jarayonining dasturiy va ilmiy-metodik ta’minotini o‘zgartirishni taqozo etadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni mavjud tizimga integratsiya qilish zarur.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik institutida (NDKTUHNKI) “Elektr energetika va avtomatlashtirish” kafedrasida “Konchilik ishi” yo‘nalishi talabalariga: 1-kurs KI-23 A (nazorat guruhi) va 1-kurs KI-23 B (tajriba guruhi) guruhlarida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘zlashtirishda pedagogik tajriba o‘tkazildi. Quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanildi: test, kuzatish, suhbat va anketa. Institut raqamli

infratuzilmasining quyidagi komponentlaridan foydalanildi: HEMIS OTM axborot tizimi; “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda eksperimental dastur asosidagi “Padagogik g‘ildirak” (Падагогическое колесо) interfaol dasturini qo‘llash metodikasi; institutning elektron ta’lim muhiti va boshqalar.

HEMIS OTM axborot tizimi (1-rasm) o‘quv jarayonini elektron muhitda tashkil etish imkonini beruvchi innovatsion ta’lim muhitidir.



1-rasm. HEMIS OTM axborot tizimi

HEMIS OTM axborot tizimi orqali talabalar o‘qituvchi bilan masofaviy formatda muloqot qilishlari mumkin: ma’ruzalar bilan tanishish, amaliy va virtual laboratoriya ishlarini bajarish, joriy va yakuniy testlarni topshirish, xabarlar bo‘limi orqali o‘qituvchi bilan muloqot qilishi mumkin. Institutda bo‘lajak konchilarni sifatli tayyorlash uchun “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda eksperimental dastur asosidagi “Padagogik g‘ildirak” (Падагогическое колесо) interfaol dasturini qo‘llash metodikasi amalga oshirildi.

Bu talabalarga “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘rganishda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Talabalarning ta’lim olish jarayoni HEMIS OTM axborot tizimi va institutning elektron ta’lim muhiti orqali amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi: elektron kutubxona tizimi, fanlar bo‘yicha virtual laboratoriya ishlari, fanlar bo‘yicha talabalarning o‘quv natijalarini mustaqil sinovdan o‘tkazish va boshqa raqamli resurslar.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali konchilik yo‘nalishi talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, kasbiy faoliyatda va turli kasbiy muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayoniga raqamli ta’lim resurslarining joriy etilganligi malakali mutaxassislarni samarali tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik institutida, konchilik ishi sohasida bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalaridan: tajriba guruhida 20 nafar, nazorat guruhida 22 nafar, jami 42 nafar talaba qatnashdi. Tajriba-sinov jarayonida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratildi:

Oliy ta’lim muassasa (OTM) larida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish asosida konchilik yo‘nalishi talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda fanning rivojlantirilgan metodik ta’minoti mazmuni fanning o‘quv dasturi

talablariga mosligi, rivojlantirilgan metodik ta’minotdagi ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining ilmiy-uslubiy jihatdan o‘rganilganligi; rivojlantirilgan metodik ta’minotdagi ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalar tomonidan qanday darajada o‘zlashtirilganligi; OTM da amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda interaktiv raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasining afzalligi; talabalarning ta’lim olish va o‘z bilim darajalarini aniqlashi uchun yaratilgan interaktiv raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini o‘quv jarayonida joriy qilish; tajriba-sinov guruhlari uchun tayyorlangan ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi; tajriba-sinov guruhlari uchun tayyorlangan amaliy va laboratoriya mashg‘uotlarini bajarish natijasida talabalarning kasbiy faoliyatga oid muammolarini yechish malakasining oshishi, fanga bo‘lgan qiziqishning ortishi va talabalarda kasbiy kompetensiyaning shakllanishi.


Oldinga qo‘yilgan gipotezaning samaradorligini tekshirish uchun mualliflar kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash va fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini quyidagicha tahlil qildilar:

Kirish va yakuniy test sinovlari, “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda eksperimental dastur asosidagi “Padagogik g‘ildirak” (Падагогическое колесо) interfaol dasturni qo‘llash metodikasi orqali amaliy va laboratoriya topshiriqlaridagi nazorat vazifalarini bajarish bilan amalga oshirildi.

1-jadval

tajriba-sinov boshida 1-jadval			
samaradorlik ko'rsatkichi			
tajriba guruhi		*nazorat guruhi*	
a'lo	1	a'lo	1
yaxshi	8	yaxshi	9
o'rta	11	o'rta	12
o'rtacha baho	3,50	o'rtacha baho	3,50
o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi farqi	0,00		
% da	0		

1-jadvalda shakllantiruvchi eksperiment boshlanishida nazorat va tajriba guruhlardagi talabalar o‘rtasida o‘zlashtirishning dastlabki rivojlanish darajasi ko‘rsatilgan.




2-rasm

2-rasmda shakllantiruvchi eksperiment boshlanishida nazorat va tajriba guruhlardagi talabalar o‘rtasida o‘zlashtirishning boshlang‘ich rivojlanish darajasi diagrammasi ko‘rsatilgan.

2-jadval

tajriba-sinov oxirida 2-jadval			
samaradorlik ko'rsatkichi			
tajriba guruhi		*nazorat guruhi*	
a'lo	6	a'lo	2
yaxshi	11	yaxshi	8
o'rta	3	o'rta	12
o'rtacha baho	4,15	o'rtacha baho	3,55
o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi farqi	0,60		
% da	14,56736		

2-jadvalda nazorat va tajriba guruhlardagi talabalar o‘rtasida o‘zlashtirishning tajriba-sinov oxiridagi rivojlanish darajasi ko‘rsatilgan.



3-rasm

3-rasmda shakllantiruvchi eksperiment oxirida nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalar o‘rtasida o‘zlashtirishning rivojlanish darajasi diagrammasi ko‘rsatilgan.

Lest “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘zlashtirish, bilish va tushunish bo‘yicha topshiriqlardan, nazorat vazifalari esa, kasbiy faoliyatda amaliy foydalaniladigan amaliy va laboratoriya topshiriqlaridan iborat edi.

Tajriba-sinov ishining samaradorligini aniqlashda talabaning T kriteriyasidan va ishonchli intervallar metodidan foydalanildi. Tanlab olingan guruhlardagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining dastlab bir xildaligi, tajriba-sinov ishlarinig natijasida esa bir-biridan farq qilishi va bilim darajalari samaradorlik ko‘rsatkichlari tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi tajriba-sinov ishlarinig natiyasida ko‘rinadi. Tajriba-sinov ishida respondent talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatichi 0,60 ga, ya’ni 14,6 foizga oshganligini ko‘rish mumkin va sinov ishlarining muayyan dastur asosida tashkil etilganligi kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini yaratdi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik institutida raqamli ta’lim resurslari orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida “Konchilik ishi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash jarayonida o‘tkazilgan pedagogik eksperiment tanlab olingan guruhlardagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining

dastlab bir xildaligi, tajriba-sinov ishlarinig natijasida esa bir-biridan farq qilishi va bilim darajalari samaradorlik ko‘rsatkichlari tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi tajriba-sinov ishlarining natijasida ko‘rinadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, talabalar o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda yuqori motivatsiyaga ega va o‘zlarining kasbiy rivojlanishi uchun individual traektoriyani tanlashga tayyor. Shunday ekan, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga asoslangan talabaga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish pedagogik tajribamizning mantiqiy davomidir.

“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan konchilik yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosining nazariy tahlili konchilik yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosining bugungi holati, “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda konchilik yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga qo‘yiladigan talablar va konchilikda axborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari asosida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha keltirilgan ilmiy xulosalar va uslubiy tavsiyalar konchilik ishi yo‘nalishi uchun eksperimental fan dasturini ishlab chiqishda va amaliyotga joriy qilishda foydalanildi. Natijada bo‘lajak konchilik ishi mutaxassislarini o‘z kasbiy faoliyatida raqamli ta’lim-axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rgatishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Б.С. Развитие математической компетентности у будущих учителей // Вестник Самарского Государственного Технического Университета. Серия «Психолого-педагогические науки». 2022. Т. 19. № 4. S. 149–158. DOI: https://doi.org/10.17673/vsgtu-pps.2022.4.12

2. Поднебесова М.И. Система формирования готовности будущих бакалавров машиностроения к самообразовательной деятельности // Самарский научный вестник. 2017.Т. 6. № 1 (18). С. 203–207.

3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент, 2015. – 94 б. , b. 5

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti, "Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi dosenti,
pedagogika fanlari nomzodi

BO'LAJAK TA'LIM MENEJERINI KASBIY TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy sharoitda bo'lajak ta'lim menejerini kasbiy tayyorlashning deontologik tamoyillari tahlil qilinadi. Muallif bo'lajak ta'lim menejerinining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadqiqot konsepsiyasi deontologik asosda ko'rib chiqiladi, uning mohiyatini metodologik, nazariy va amaliy darajalarda ochiladi. Ushbu muammoga tizimli, sinergetik, madaniy, kompetensiyali, akmeologik, aksiologik, deontologik yondashuvlarning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar. Bo'lajak ta'lim menejerini, deontologiya, deontologik tayyorgarlik, deontologik madaniyat, tadqiqot konsepsiyasi, uslubiy yondashuv.

В статье анализируются деонтологические принципы профессиональной подготовки будущего менеджера образования в современных условиях. Автором рассматривается концепция исследования профессиональной подготовки будущего менеджера образования на деонтологической основе, ее суть раскрывается на методологическом, теоретическом и практическом уровнях. Рассматривается важность системного, синергетического, культурологического, компетентностного, акмеологического, аксиологического, деонтологического подходов к данной проблеме.

Ключевые слова. Будущий образовательный менеджер, деонтология, деонтологическая подготовка, деонтологическая культура, концепция исследования, методологический подход.

The article analyzes the deontological principles of professional training of the future education manager in modern conditions. The author considers the concept of research on the professional training of the future education manager on a deontological basis, its essence is revealed at the methodological, theoretical and practical levels. The importance of systematic, synergistic, cultural, competence, acmeological, axiological, deontological approaches to this problem is considered.

Key words. Future educational manager, deontology, deontological training, deontological culture, research concept, methodological approach.

Bo'lajak ta'lim menejerining muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatining hal qiluvchi omili uning shaxsiyatining axloqiy bilim va ko'nikmalari, axloqiy fazilatlari, motivlari va ma'naviy-qiymatiy yo'nalishlari tizimiga nisbatan ajralmas shakl bo'lib xizmat qiladigan kasbiy xulq-atvordir. Bu maktab menejerining deontologik kompetensiyasining mavjudligi haqida uning boshqaruv faoliyatiga deontologik tayyorgarligini, bilimlarni shakllantirish darajasini va kasbiy o'zaro munosabatlarning deontologik jihatdan aniqlangan vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat usullarini belgilaydigan murakkab subyektiv xususiyatdir.

Bo'lajak ta'lim menejerini kasbiy tayyorlash jarayonida deontologik jihatdan foydalanish uning faoliyatining ma'naviy to'yinganligi va yuqori roli, boshqaruv jarayoni subyektlari o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir zarurati bilan bog'liq. Menejerning burchi ayniqsa muhim bo'lib qoladi, chunki uning kasbiy faoliyati ta'lim muassasasi muvaffaqiyatli faoliyatining kalitidir va xulq-atvori bo'ysunuvchilar uchun namunadir. Bu muammoni

hal etish bugungi kunda mamlakat oldida turgan ijtimoiy–iqtisodiy va ijtimoiy–madaniy muammolar sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, bo‘lajak ta’lim menejerilarining kasbiy tayyorgarligini deontologik asosda ta’minlash oliy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalariga kiradi. Biroq, oliy o‘quv yurti magistraturasi sharoitida o‘quv jarayoni odatda ta’lim menejerlarini kasbiy tayyorlashga yo‘naltirilgan va ularning deontologik yo‘riqnomalarini shakllantirishga qaratilgan emas. Shuning uchun ta’lim sohasida menejerlar tayyorlashning o‘quv va kasbiy dasturi normativ-huquqiy va me’yoriy-shaxsiy komponentlarning uzviyligi va uzviy uyg‘unligiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

M.V.Gamzaeva bo‘lajak ta’lim menejerlarni tayyorlashda quyidagi boshqaruv fazilatlarining lozimligini belgilaydi: maqsadlarni belgilash va ko‘p qirrali boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyati, tayinlangan muammolarni hal qilish uchun mos vositalarni topish qobiliyati, shaxslardan hamfikrlar jamoasini yaratish qobiliyati, ularni o‘zaro kelishuv va intellektual birlik asosida birlashtira olish qobiliyati.

Amerikalik olim R.Stogdil “rahbarning shaxsiy fazilatlari tuzilishi uning qo‘l ostidagilarning shaxsiy fazilatlari, faoliyati va vazifalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak”, deb hisoblagan.

Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim magistraturasi sharoitida bo‘lajak ta’lim menejerlarini deontologik asosda tayyorlash muammosi ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmagan. Oliy ta’lim muassasasida deontologiya asosida ta’lim menejerlarini tayyorlash konsepsiyasi, uning mazmuni, shakl va usullari, bo‘lajak ta’lim menejerilarining deontologik kompetensiyasini shakllantirish shart-sharoitlari va mezonlarini asoslab berishga muhtoj. Shu sababli, bo‘lajak ta’lim menejerining kasbiy tayyorgarligi nuqtayi nazaridan uning deontologik tayyorgarligini tashkil etish va deontologik kompetensiyasini shakllantirishni psixologik-pedagogik ta’minlash nazariyasidagi bo‘shliqlar eng maqbul sharoitlar, yo‘l va vositalarni izlash uchun juda ko‘p joy qoldiradi.

Deontologiya tushunchasi ma’lum bir talqin doirasiga ega. U quyidagilarga qaraladi:

– burch muammolari, tegishli sohalar, axloqiy talablarning barcha shakllari va ularning o‘zaro munosabatlarini yoritib beruvchi axloq bo‘limi;

– burch to‘g‘risidagi ta’limot, ya’ni axloqning bir bo‘limi, o‘z kasbiy burchlarini bajarish vaqtidagi xulq-atvorning axloqiy-me’yorlari va tamoyillari majmuyi;

– burch tushunchasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi tushuncha, axloqiy nazariyaning bo‘limi;

– odamlarning axloqi va to‘g‘ri xulq-atvorini o‘rganuvchi fan;

– mutaxassislarning ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar sohasiga tegishli bo‘lgan odamlarga nisbatan axloqiy, kasbiy va huquqiy majburiyatlari va xulq-atvor qoidalari to‘g‘risidagi axloqiy bilimlar tizimi.

Deontologiya tamoyillari va me’yorlari shaxslararo o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli mutaxassisliklar: jurnalistlar, huquqshunoslar, shifokorlar, ijtimoiy xodimlar, defektologlar, psixologlar, o‘qituvchilarning kasbiy kodekslarida o‘z aksini topgan, bu esa, professional deontologiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Pedagogik deontologiyaning mazmunli o‘zagi o‘qituvchining o‘z kasbiy burchlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan axloqiy va axloqiy-me’yorlar va tamoyillar tizimidir. Shu bilan birga, kasbiy axloqning o‘ziga xos xususiyatlari, menejment sohasidagi axloqiy kategoriyalarning namoyon bo‘lish xususiyatlari menejerning kasbiy xulq-atvori haqi-

dagi boshqaruv tizimiga asoslangan axloqiy va axloqiy me’yorlar fan sifatida tushuniladigan professional deontologiya – menejment yo‘nalishini ajratishga olib keladi.

Ta’lim menejerinining kasbiy xulq-atvori kasbiy fikrlash madaniyatida, o‘z ishini ilmiy asosda tashkil eta olishida, kommunikativ ko‘nikmalarida, o‘z kasbiy tajribasini tanqidiy baholay olish va takomillashtirish, o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish, o‘z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati, jamoada qulay psixologik muhit yaratish va boshqalar qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muassasasi menejerinining kasbiy xulq-atvorining o‘ziga xosligi nafaqat lavozimning nufuzini oshirish, muassasaning samarali faoliyatini ta’minlashda uning shaxsining ahamiyatini oshirish zarurati bilan, balki “direktor o‘zida”, “direktor – o‘quvchi”, “talabalar jamoasi”, “direktor – o‘quvchilarning ota-onalari”, “direktor – o‘qituvchi”, “direktor – pedagogik jamoa” tizimidagi axloqiy o‘zaro ta’sir maxsus psixologik va jismoniy tarbiya bilan ham belgilanadi. Belgilangan kontekstda “direktor – pedagogik xodimlar” tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u bevosita ta’lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatini aks ettiradi.

Shuning uchun menejment deontologiyasining yetakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Nazariy vazifalar (rahbarning boshqaruv etikasi me’yorlariga rioya etishining ijtimoiy ahamiyatini ochib berish, uning boshqaruv xulq-atvori tamoyillari, me’yorlari va qoidalari bilan tanishtirish va ularni o‘zlashtirish, boshqaruv faoliyatining axloqiy qadriyatlari va menejerning tegishli fazilatlari, kelajakdagi menejerlarda aks ettiruvchi asosda axloqiy madaniyatni rivojlantirish, ularni o‘z harakatlariga introspektsiya qilishga undash, kasbiy faoliyatni samarali bajarishga qaratilgan menejerlarning xatti-harakatlari tamoyillarini o‘rganish, muvaffaqiyatga olib keladigan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish uchun “rahbar–bo‘ysunuvchi” tizimidagi munosabatlarning xilma-xilligini o‘rganish, sifatsiz boshqaruv faoliyatining zararli oqibatlarini bartaraf etish yo‘llarini izlash)

2. Amaliy vazifalar (kasbiy etikaning buzilishi bilan bog‘liq boshqaruv xatti-harakatlaridagi tipik xatolarni aniqlash; boshqaruv vazifalarini hal qilish jarayonida menejerning axloqiy xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, magistratura bosqichida ta’lim muassasalari menejerini kasbiy tayyorlashning deontologik tamoyillari ostida magistrantlar – bo‘lajak ta’lim muassasalari menejerlarini ongli ravishda o‘qitish zarurligini anglashini ta’minlaydigan nazariy qoidalar va amaliy chora-tadbirlar majmuini tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlarga ko‘ra, ta’limni boshqarish bo‘yicha magistrlarni kasbiy tayyorlash bo‘yicha tadqiqot konsepsiyasining yetakchi g‘oyasi deontologiyani axloqiy fanning tarkibiy qismi sifatida tushunish, o‘ziga xos axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish dolzarb ehtiyojdir. Uning deontologik tayyorgarligi oliy ta’lim muassasasida boshlanib, rahbarning boshqaruv faoliyatiga keyingi moslashuvi jarayonida davom etuvchi, uning turli kasbiy vaziyatlarda me’yoriy xulq-atvorni bajarishga tayyorligini ta’minlovchi maqsadli va boshqariladigan jarayondir.

Qayd etilgan tadqiqotning ilmiy-nazariy tamoyillari uning konseptual g‘oyalarini turli darajalarda: uslubiy, nazariy va amaliy jihatdan asoslashni belgilaydi. Uslubiy daraja ta’lim muassasasi rahbarini tayyorlash muammosini o‘rganishga tizimli, madaniy, antropologik, aksiologik, akmeologik, shaxsiy, sinergetik, kompetensiya, deontologik ilmiy yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini aks ettiradi.

Tizimli yondashuv ta’lim muassasalari menejerinining kasbiy tayyorgarligini uning barcha tarkibiy qismlari (mazmuni, shakllari, usullari, amaliy mashg‘ulotlari) izchilligini

ta’minlaydigan uzluksiz kasbiy ta’limning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tizimli tahlil tadqiqotning konseptual qoidalarini shakllantirish, deontologik asoslarda ta’lim menejerlarini tayyorlashning tarkibiy – komponent modelini ishlab chiqish uchun ishlatiladi. Shuning uchun tizimli yondashuv tadqiqot konsepsiyasini mazmunli to‘ldirishga yordam beradi, murakkab obyektni – ta’lim muassasalari menejerini deontologik tayyorlash tizimini modellashtirish va tadqiq qilish imkonini beradi.

Ta’lim muassasalari menejerini tayyorlashga madaniy yondashuv shuni ko‘rsatadiki:

– madaniyat ta’lim muassasasini boshqarish sifatining muhim mezoni hisoblanadi, chunki ta’limdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar madaniyat va boshqaruv deontologiyasi muammolarining ahamiyatini belgilab berdi;

– ta’limni boshqarishda antroposentrizm boshqaruv axloqini shakllantirishning asosi bo‘lib, uning shaxs sifatida yaxlit, faol, insonparvar, ma’naviyatli shaxsga, axloqiy me’yorlar va qadriyatlar tashuvchisiga yo‘naltirilishini anglatadi;

– ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy xulq-atvori ularning deontologik madaniyatining ma’naviy-axloqiy va texnologik tarkibiy qismlarining birligiga asoslanadi.

Antropologik yondashuv doirasida ta’lim muassasasi menejerini tayyorlash deganda rahbarning intellektual ijodiy salohiyatini va insonparvarlik texnologiyasida o‘zini namoyon qilish sharti bo‘lgan yaxlit gumanistik bilimlar majmui tushuniladi. qobiliyat va ko‘nikmalar majmui, ular tufayli antropologik bilimlar boshning amaliy harakatlarida amalga oshiriladi.

Shaxsiy yondashuv ta’lim muassasalari menejerining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishni ehtiyojlar, motivlar, qobiliyatlar, faollik, aql-zakovat, individual psixologik va funksional xususiyatlarni hisobga olish, ta’lim muassasalari rahbarlarining deontologik tayyorgarligini asosli ko‘nikma va kasbiy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallashga yo‘naltirish ularning shaxsiy tajribasini tahlil qilish uchun foydalanildi.

Deontologik tayyorgarlikni shakllantirish ta’lim muassasalari menejerining shaxsiy va kasbiy rivojlanish, boshqaruvning barcha turlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, shaxsiy yondashuv har bir magistr darajasini faol kasbiy faoliyatga kiritishni va uning katta tajribasiga tayangan holda, bo‘lajak menejerning deontologik bilimlari, ko‘nikmalari va fazilatlari, kasbiy faoliyatning deontologik ahamiyatli normalarini o‘zlashtirish tizimiga aylantirishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning vizual faoliyatidagi amaliy usul bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, bu bolalarga san’at asarlarini yaratishda o‘z mahorat va ko‘nikmalarini bevosita qo‘llash imkonini beradi. Bolalarda qo‘l barmoq motorikasini faollashtirish, tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, eng mos usul bolalarda mehnatsevarlik va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, amaliy faoliyat jarayonida bolalar mustaqil bo‘lishni o‘rganadilar. Ular qarorlar qabul qiladilar, materiallar va vositalarni tanlaydilar, o‘z asarlarini yaratadilar va natijalarini nazorat qiladilar. Bularning barchasi bolalarda mustaqillik va o‘zini o‘zi qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy usulda pedagog bolalarga ishning innovatsionligiga e’tibor beradi. Har qanday ish, shu jumladan ijodiy ish, bolalar uchun ma’suliyatli va zarurdir. 6-7 yoshli bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirish uchun:

– 6-7 yoshli bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini aniqlash;

– Art-texnologiya vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

– Art-texnologiya vositasining ijodiy rivojlanishga ta’sirini tekshirishda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng muhim “dushmanni” qo‘rquvdir. Qo‘rquv muvaffaqiyatsizliklar tashabbus va tasavvurni cheklaydi. Xatolar va qo‘rquvlar yutuqlarning oddiy va majburiy hamrohlaridir. Xatolarni topish qobiliyati o‘zingizni himoya qilish qobiliyati kabi muhimdir. Ijodkorlikning yana bir dushmani dangasalik va harakatsizlik. Ijodiy qobiliyatni faollashtiruvchi vosita ijodiy rag‘batlantirishdir. “Art-terapiya” atamasi pedagogik muhitda hali ham kam qo‘llaniladi. Bolaning ijodkorligi pedagoglar tomonidan baholanishi mumkin, bu bolaga o‘z qadr-qimmatini, uning qadr-qimmatini oshirishga imkon beradi.

[1] Лебедева Л.Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – СПб.: Речь, 2005. – 226 с.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, art-texnologiyaning turli usullari yillar davomida takomillashib bormoqda. Bu esa san’at, psixologiya va pedagogika yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyaga xizmat qiladi. Shuningdek, u maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlikni rivojlantiradi, asabiy taranglikni pasaytiradi, tasavvurni rag‘batlantiradi va rivojlantiradi va og‘zaki bo‘lmagan muloqot sohasini faollashtiradi. Art-texnologiyaning ishtirokchilari ya’ni bolajonlar o‘z tajribalarini ifoda etishlari va dunyoni ko‘p sensorli tarzda idrok etishni o‘rganishlari mumkin. Bundan tashqari, ular ma’lum vaqt davomida bir vazifani bajarishga diqqatni jamlashni o‘rganadilar va bu natijada, ularni hayotning boshqa sohalarida samaraliroq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2022. – PF-60.

2. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi – T., 2022

4. Афанасева А.Б. Арт-технологии в диагностике и развитии креативности ребенка во внеурочной деятелности // В сборнике: Актуалные проблемы современного образования: опыт и инноватсии материалы всероссийской научно-практической конференсии (заочной) с международным участием. ответственный редактор . Нагорнова А.Ю. 2016. С. 94-98.

5. Воспитание детей в игре [Текст]. Пособие для воспитателей детского сада. / Зинченко Д.К., Бочкарева А.П. и др. 2-е изд. перераб. и доп. М.: Просвещение, 1983. 122 с.

6. Лебедева Л.Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – СПб.: Реч, 2005. – 226 с.

Hulkar MIZAMOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
“Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI MUSIQIY TA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasini samarali tashkil etishda musiqiy ta’limning ahamiyati, zaruriy omillari, bolaning ruhiy, aqliy, jismoniy rivojlanishida muhim jihatlari batafsil yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, bola, musiqiy ta’lim, estetika, musiqa savodi, ritm, innovotsion, usul, texnalogiya.

В статье подробно освещены значение, необходимые факторы музыкального образования в эффективной организации воспитания дошкольников в нашей стране, важные аспекты психического, умственного, физического развития ребенка.

Ключевые слова. Дошкольное образование, ребенок, музыкальное образование, эстетика, музыкальная грамотность, ритм, инновационность, метод, технология.

The article covers in detail the importance, necessary factors of musical education in the effective organization of education of preschool children in our country, important aspects of the mental, mental, physical development of the child.

Key words. Preschool education, child, musical education, aesthetics, music basket, rhythm, innovation, method, technology..

Har bir bola turlicha layoqat va iqtidor darajasiga ega. Bundan tashqari oiladagi muhit ham ularning tabiati va shaxsiy sifatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Qaysidir tarbiyalanuvchi sho‘x, jo‘shqin va kirishimli bo‘lsa, ba’zilari vazmin, kamsuqum va tortinchoq bo‘lishadi. Ammo bu kabi sifatlar bolalarning qobiliyat darajasini belgilamaydi.

Bugungi kunda musiqa olami nihoyatda keng uslub va tendensiyalar bilan ifodalanadi. Musiqiy didni tarbiyalash mavzusi, ayniqsa, yuqori badiiy musiqa san’ati namunalarini past musiqiy misollardan ajrata oladigan bolalar bilan bog‘liq. Shuning uchun yosh avlod uchun yuksak ma’naviy ehtiyojlar va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish juda muhimdir. Ushbu vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchilar musiqa ta’limi va tarbiyasida bolaning musiqiy didini shakllantirishga xizmat qiladigan musiqiy manba sifatida o‘z xalqining milliy musiqasining yuksak badiiy namunalaridan foydalanishni ko‘rib chiqadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlari va kompleks choralarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Hujjat malakali pedagog kadrlarni yetishmovchiligi, moddiy-texnik holatini nomuvofiqligi, hamda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv-metodik materiallari bilan past darajada ta’minlanganligi muammolarining yechimini nazarda tutadi[1].

“Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartining asosiy vazifalari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son Qarori https://lex.uz/docs/4327235

sifatida milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” deb belgilangan. Bu o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim pedagoglari va musiqa rahbarlari zimmasiga milliy ruh va kreativ ta’lim metodlarini tashkil etishni yuklaydi.

Qobiliyatning dastlabki belgisi layoqat hisoblanib, uning rivojlanib yuzaga chiqishi uchun, avvalo, ijodiy muhit zarur. Ijodiy muhitni esa oilada ota-ona, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar yaratib beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ba’zi bolalardagi tortinchoqlik ostiga yashiringan qobiliyatlarni yuzaga chiqarish uchun ijodiy muhit, pedagoglar yordami juda muhim hisoblanadi.

Musiqa rahbari o‘z ishini tashkil etishga kreativ yondashgan holatda bolalar bilan ishlar ekan, mana shu jihatlarga alohida e’tibor berishi va o‘z ish rejasini belgilashi lozim. Bolalarning imkoniyat darajasi va o‘zlashtirish qobiliyatiga qarab ular bilan qo‘shimcha ishlashi, o‘zlashtirishi past bo‘lgan bolalar bilan esa yakka tartibda ishlash rejasini belgilab oladi. Bundan tashqari, bolaning jismoniy va ruhiy holatida nuqsoni bor bo‘lsa, tor mutaxassislik pedagoglari bilan hamkorlikda ishlash rejasini tuziladi va bunday bolalarni sog‘lomlashtirish uchun metodik ishlar birgalikda olib boriladi.

Bolaning turli yosh xususiyatlarini tahlil qilib borish, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlariga to‘g‘ri kelish yoki kelmasligini kuzatish, har bir pedagogning lavozim vazifalaridan biridir. Tarbiyachi va tor mutaxassislik pedagoglari har bir bolaning o‘zgarishlari va o‘zlashtirish darajalarini kuzatib tahlil qilishga mas’uldirlar. Agar tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasida o‘zgarishlar kuzatilsa, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazish hamda nazorat qilib borish lozim.

Davlat dasturida belgilangan mavzuli rejalashtirish asosida tarbiyachilar va musiqa rahbarlari birgalikda ta’limiy jarayonlar olib borar ekan, hamkorlikda bolalar uchun mavzuga mos qo‘shiqlar va musiqiy o‘yinlar tashkil etishlari ko‘zda tutilgan. Tarbiyachilar va ularning yordamchilari esa bolalarni tartibga chaqirib turishi, ularning diqqatini mashg‘ulotga jalb qilishga, harakatlarni bajarishga va qo‘shiqlarni barcha barobar kuylashiga yordam berishi kerak.

Musiqa mashg‘ulotlari davomida har bir bolaning ijodiy rivojlanishi tahlil qilib boriladi. Bolalarning jamoaviy va yakka chiqishlari kuzatilib, layoqati va musiqiy eshitish qobiliyati tengdoshlariga nisbatan yuqori bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bayramlar va turli musiqiy kechalar orqali ajratib olinadi. Bolalarga qo‘shimcha topshiriqlar berilib, musiqiy eshitish qobiliyati ustida yanada e’tibor bilan qaraladi. Kreativ musiqa rahbari iste’dodli bolalarning ota-onalariga farzandining qo‘llab-quvvatlash va ularni kelajakda musiqaga oid kasblarga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatlar berib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ijodiy muhitini musiqiy kechalar, ma’naviy tadbirlar, bayram ertaliklariga boyitib boradi.

Bayramlarni tashkillashtirishda musiqa rahbari bilan birga tarbiyachi va barcha tor mutaxassislik pedagoglari birgalikda hamkorlikni yo‘lga qo‘yishadi. Bayram ertaliklari siklogrammasi (o‘quv davriylik diagrammasi) musiqa rahbari tomonidan, tarbiyachilar bilan fikrlashib, har bir guruh uchun alohida tuzib chiqiladi. Yil boshida o‘tkazish vaqti va tartibi rejalashtirilib, tashkilot direktori tomonidan tasdiqlanadi. Bolalar bilan o‘zlashtirilgan kuy-qo‘shiqlar va jamoaviy chiqishlardan tarkib topgan dastur yoki bayram ertaliklari senariylari ishlab chiqiladi. Har bir guruh uchun alohida bayramlarni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va vaqt me’yorlariga amal qilish lozim. Bolalarning diqqati va jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ular bilan ishlash va har bir tadbirga

xos yondashuv talab etiladi.

Kichik guruh (3-4) yoshidagi bolalar uchun bayramlar o‘tkazish vaqti 20 daqiqa, o‘rta guruh (4-5) yoshidagi bolalar uchun 25-30 daqiqa, katta guruh (5-6) yoshidagi bolalar uchun 30-35 daqiqa, maktabga tayyorlov guruhi (6-7) bolalar uchun 35-40 daqiqani tashkil qiladi.

Bundan tashqari, pedagoglar bolalar bilan mashg‘ulotlarda ovoz kuchaytirgichlardan ham keng foydalaniladi, albatta, buning yomon tomoni yo‘q. Musiqani tinglashi va idrok etishi, “Orkestr”, musiqa ostida musiqiy didaktik o‘yinlar va musiqiy-ritmik harakatlar bajarish kabi faoliyatlarda, badantarbiya mashg‘ulotlarini bajarishida ovoz kuchaytirgichlar pedagoglar uchun juda ham zarur. Ammo bolalarning eshitish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan holatda musiqaning baland qo‘yilishi, bundan tashqari, o‘ta shovqin va saviyasiz musiqalar tanlanib eshittirilishi kabi holatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi barcha pedagoglar bolaning ma’naviy o‘sishiga, musiqaning go‘zal sehridan bahramand bo‘lishiga hissa qo‘shadi.


Birinchi galda ta’lim maskani odob va axloq, tarbiya qo‘rg‘oni hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimiz ostida yo‘g‘rilgan odob me’yorlarini bolajonlarga singdirib borish ularning oq va qorani anglashida yordam beradi. Milliy musiqalarimiz, o‘zbek xalq cholg‘ularida ijro etilgan kuylarni bolalarga tinglatib, ularga sifatli musiqalar tinglatib borilishi natijasida bolalarning musiqiy didini shakllantirishga erishamiz. Bu orqali bolalarda tinglovchilik va ijrochilik madaniyati o‘sib, musiqani tanlab eshitish odobi rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari bolaning har tomonlama himoyasini ta’minlab ish tutadi. Yangi bir niholning to‘g‘ri unib o‘sishi uchun qanchalik mehnat va muhofaza zarur bo‘lsa, inson bolasining aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanishi uchun turli omillardan muhofaza qilmoq zarurdir.

Bola hayotining oltinchi va yettinchi yili bolalarni maktabga tayyorlash davri hisoblanadi. Musiqa haqidagi taassurotlariga asoslanib, bolalar musiqiy savollarga javob beradi, musiqa orqali yetkazilgan turli kayfiyat va hissiy holatlarni sezishini ifodalaydi.

Bolada atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash uchun musiqiy obrazni yaxlit idrok etishga qodir bo‘lishi lozim. 6-7 yoshdagi bolalarda vokal apparati kichik yoshdagiga nisbatan yanada kuchayadi, ovoz diapazoni kengayadi va tekislanadi, ovoz jarangdorligi, ohangdorligi shakllanadi. Turli mavzudagi qo‘shiqlar, jilokor raqslar, didaktik o‘yinlar yana ham mustaqil ravishda ijro etiladi. Boladagi musiqiy qiziqishlar va ijodiy qobiliyatlar yanada aniqroq namoyon bo‘ladi.

Ta’limiy jarayonlarda bolalarning erkin kuylashi uchun “Jonli mikrofon”, “Somizatsiya”, “Ritmli so‘zlar” kreativ metodlari va turli didaktik vositalarning samarali qo‘llanishi yordamida erishiladi. Qo‘shiq kuylash faoliyatida turli shovqinli cholg‘ularni ham qo‘shiq ritmiga monand ijro etishi bolalarga erkinlik bag‘ishlaydi.




1-rasm. Laylo Tursunovaning “Vatan” qo‘shig‘i

Dastlab ushbu qo‘shiqni bolalarga o‘rgatganimizda, ohangsiz ritm jihatdan ko‘rib

chiqamiz. Har bir so‘zning bo'g‘iniga alohida chapak yoki qoshiqchalar bilan ritm ijro ettiramiz. So‘ngra, kichik frazalar (jumlalar) ga ajratib, alohida kuylatamiz. Bolalar ritm va ohang jihatdan to‘g‘ri kuylangandan so‘ng, frazalarni birlashtirib qo‘shiqning bir qatorini jamlab kuylaymiz. Bolalar tovushlar oralig‘i intervallarini toza kuylaganidan so‘ng, baralla ovozda mustahkamlab olamiz. Qo‘shiqni qizlar va o‘g‘il bolalar uchun frazalarga ketma-ketlikda bo‘lib kuylatsak, bolalar bir-birlarini ovozini tinglashni, ijro vaqtida kutib turishni o‘rganishadi.

“Musiqiy cholg‘ularda yakkaxon yoki orkestrda jo‘r bo‘lib chalishi mumkin”.Ushbu indikatorda shovqinli orkestr, o‘zbek milliy cholg‘ulari ansambli tashkil etish, yakkanavoz bolalar ijrochiligini shakllantirish ko‘zda tutilgan (2-rasmga qarang). Bolalar ijodida orkestr tashkil etish musiqaga hamohang qilishning eng samarali usulidir. Musiqa rahbari orkestrni joylashuvini oldindan belgilab qo‘yishi, cholg‘ularni guruhlarga ajratib joylashtirishga alohida e’tibor qaratishi kerak. Bolalar cholg‘ularning rang-barang tembrini ajrata olishi, ijro uslublarini bir-biridan farqlashiga o‘rgatish kabi vazifalar orkestr tashkil etishning dastlabki bosqichidir.



2-rasm. Bolalar shovqinli cholg‘ular orkestrining namunaviy joylashuvi

Bolalar musiqaning xarakteri, ritmi, frazasi, dinamikasini his qilishi, musiqaga hamohang turli cholg‘ularni ijro etishi lozim. Bayram tadbirlari dasturidan ham bolalar cholg‘u ijrochiligi joy olishiga e’tibor qaratish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida musiqiy ta’limning vazifalari – musiqa orqali bolaning har tomonlama uzviylik tamoyillari asosida rivojlanishidir.

Musiqiy tarbiya shunday jarayonki, musiqani bola ongiga turli yo‘nalishlarda yetkazish bilan ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda musiqiy-estetik munosabatni shakllantirishni yo‘lga qo‘yadi. Bunday holatda, bolaning individual xususiyatlari, yosh imkoniyatlari hisobga olinib tashkil etilsa, musiqiy faoliyatning turli yo‘nalishlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son Qarori https://lex.uz/docs/4327235

2.O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

Munisxon RIZAYEVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDAGI FAOLIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarda STEAM texnologiyasini qo‘llashni tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim rivojlanish markazlaridagi jarayonida STEAM texnologiyalarini qo‘llash hamda ularning samaradorligi haqida kerakli ma’lumot va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. STEAM, loyiha, resurs ta’minoti, texnologiyalarni qo‘llash, pedagog kompetentligi, imkoniyatlar, rivojlantirish, yondashuv.

В статье рассматривается организация применения технологии STEAM в деятельности центров развития в дошкольных образовательных организациях. Также предоставлена необходимая информация и рекомендации по применению технологий Steam в процессе развития дошкольного образования и их эффективности.

Ключевые слова. STEAM, проект, ресурсное обеспечение,применение технологий, компетентность педагога, возможности, развитие, подход.

The article reflects on the organization of the application of STEAM technology in activities in development centers in preschool educational organizations. It also provides necessary information and recommendations on the application of STEAM technologies and their effectiveness in the process of preschool education development centers.

Key words. STEAM, project, resource provision, technology application, teacher competence, opportunities, development, approach

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, uning maqsad va vazifalari, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalarning tizimli va izchil xarakterga ega bo‘lishiga katta e’tibor qaratilmoqda. “Bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Hozirgi vaqtda barcha tizim va sohalarda texnologik inqilob kuzatilmoqda. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bolalar ta’lim tashkilotlarida, maktablarda va institutlarda robototexnika, dizayn, modellashtirish va dizayn etakchi o‘rinni egallay boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish muammosi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida aks ettirilgan bo‘lib, ta’limning keyingi bosqichiga bola shaxsini jismonan va ma’nan yetukligini ta’minlash dastur talablarini asosi hisoblanadi. Shu sababli, STEAM texnologiyasini maktabgacha ta’limdagi o‘quv jarayoniga joriy etish

zarurati paydo bo‘ldi, bu maktabgacha yoshdagi bolalarni ilmiy va texnik ijodkorlik bilan tanishtirish va ijodiy fikrlash va tasavvurni, shuningdek dastlabki texnik ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM ta’limining joriy etilishi bolalarga ma’lumot oqimini tezda boshqarishni va olgan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rganishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar zamonaviy hayotda juda talab qilinadigan qo‘shimcha amaliy ko‘nikma va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. O‘yinlar ko‘rinishidagi qiziqarli tadbirlar bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim тashkilotlarida STEAM ta’limi nima? Bu aniq fanlarning asosiy tamoyillarini bir vaqtning o‘zida o‘rganishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli ta’limdir. Bularga muhandislik, matematika, texnologiya kiradi. Bolalar sodir bo‘layotgan voqealarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rishni o‘rganadilar, mantiq tamoyillarini yaxshiroq tushunishni boshlaydilar va o‘z modellarini yaratish jarayonida yangi va o‘ziga xos narsalarni kashf etadilar. Kompleks yondashuv ularning qiziqishini rivojlantirishga va o‘quv jarayoniga jalb qilinishiga yordam beradi.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar sodir bo‘layotgan hodisalar mantig‘ini o‘rganishlari, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunishlari, dunyoni tizimli ravishda o‘rganishlari va shu bilan qiziquvchanlik, muhandislik fikrlash uslubi, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantirishlari, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari va menejment va o‘zini o‘zi taqdim etish asoslarini o‘zlashtirishlari mumkin, bu esa o‘z navbatida bolaning rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga muvofiq, mavzuli rejalashtirish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan rivojlanish markazlarida ta’limiy va tarbiyaviy jarayonni pedagog o‘z kreativligi asosida hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirishi ta’lim sifat samaradorligini talab darajasidan yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etishini kuzatamiz. Bu pedagoglarga har bir bolaning o‘ziga xosligi va benazirligini hisobga olgan holda o‘qitish va tarbiyaga yakka tartibda yondashuvni amalga oshirish, ularning individual qiziqish va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida har bir texnologiyani qo‘llashda uni nazariy o‘rganish va tadbiq etishda bola shaxsini hamda pedagogning qo‘llayotgan texnologiyasini qanchalik amaliyotga tadbiq eta olganini ham natijalar tahlili asosida kuzatdik.

STEAM qisqartmasi Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematikani anglatadi. Bu ta’limga yaxlit yondashuv bo‘lib, amaliy o‘rganish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga urg‘u beradi. STEAM ta’limi bolalarda XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash va ijodkorlik, ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi bilan mashhur bo‘lib bormoqda.

STEAM asosidagi o‘quv dasturini loyihalash bolalar STEAM faoliyati orqali nimani o‘rganishlari va ularda qanday ko‘nikmalar hosil qilishlari kerakligini aniq belgilash, beriladigan topshiriqlarni aniqligini nazariy o‘rganib chiqishdan boshlash lozim. STEAM asosidagi o‘quv dasturini loyihalash pedagoglar tomonidan turli xil STEAM fanlarini birlashtirgan va o‘quv maqsadlariga mos keladigan amaliy mashg’ulotlarni loyihalash, chizma topshiriqlar ishlab chiqish kabi faoliyatlarni tartibli rejalashtirishdan boshlanadi. STEAM asosidagi o‘quv dasturini loyihalash bolalarning muvaffaqiyatini kuzatib borish, fikr-mulohazalarni to‘plash va o‘quv dasturiga kerakli tuzatishlar kiritish asosida pedagog faoliyatini tahlillash va baholash, shuningdek, kutilayotgan o‘zgarishlar asosida bolalarning tayanch kompetensiyasining shakllanishini kuzatamiz. STEAM texnologiyasini faollashtirishda quyidagi resurs ta’minotini takomillashtirish lozim:

– didaktik material bilan jihozlash(bizibordlar, rangli tayoqchalar, Kyuizener tayoqchalari, Dienesh mantiqiy bloklari, matematik planshetlar, Lego konstruktorlari, magnitlar va boshqalar.);

– loyihalar dasturiy ta'minot("Robototexnika", "Lego ustasi", "Yosh mexanik", "Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish", "Yosh matematiklar klubi" va boshqalar.).

STEAM asosidagi o'quv dasturini loyihani yanada rivojlantirish uchun rivojlanish markazlari moddiy-texnik bazani boyitish, "robototexnika" modullarini ishlab chiqish, "Men dunyoni yarataman" yo'nalishidagi mulstudiyasini joriy etish, STEAM texnologiyalari bo'yicha pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan trening, o'quvlar va maslahat soatlarini faollashtirish lozim.

STEAM ta'limi bolalarni texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan kelajak dunyosiga tayyorlash uchun juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ilg'or tajribalar va samarali STEAM o'quv dasturini ishlab chiqish uchun doimiy izlanishlar zarur. Oilalar va jamoalar, pedagog tajriba almashuvlari hamda ular o'rtasidagi hamkorlik STEAMni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarurdir

Xulosa o'rnida, pedagoglarning kreativ kompetentligini qo'llovchi, faollashtiruvchi texnologiyalar tarbiyachilarning rivojlanish markazlaridagi samarali uyg'un xatti-harakatlar va muloqot uslublarini yanada oshganligi, nazariy qarashlar bilan amaliy faoliyatlar uyg'unligi, xatolar ustida ishlash va pedagog mahoratining faollashishi biz ko'zlagan maqsadni amalga oshganligini isbotidir. Asosiy e'tibor rivojlanishning kognitiv komponentlariga, operatsiyalarni bajarish qobiliyatiga, tasniflash, farqlash va umumlashtirishga qaratilishi kerak. Pedagoglarning STEAM texnologiyalarini o'rinli qo'llashlari bolalarning berilgan texnologiyalar asosidagi faolliyatlari bilish jarayoni kompetentligini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2022. – PF-60.

2. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.

3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi – T., 2022

4. Rizayeva M.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishning metodik asoslari // Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish tendensiyalari: innovatsiya, ta'lim, tajriba va kadrlar tayyorlash: Xalqaro ilmiy-amaliy konf. maqola. to'p. – T., 2023-yil, 9-10-iyun. – B. 272-274.

5. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А., STEM –образование для детей дошкольного и младшего школьного возраста/ - учебно – методическое пособие. –М.:2017. -111с

6. Оберемок С. М. Метод проектов в дошкольном образовании. / – Новосибирск, 2005.

7. Rizayeva M.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini modellashtirish // "Maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash: Xalqaro ilmiy-amaliy konf. maqola. to'p. – T., 2023-yil, 22-23-noyabr. – B. 315-316.

Shaxzod MAVLONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik va iqtisodiy tarbiya berish, tabiiy va iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanishga o'rgatish, yashil iqtisodiyot sharoitida o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Yashil iqtisodiyot, ekologik va iqtisodiy tarbiya, pedagogik shart-sharoit, iqtisodiy zarar.

В статье описаны педагогические условия эколого-экономического образования учащихся начальной школы, обучения их разумному использованию природных и экономических ресурсов, а также обеспечения экономического образования учащихся в условиях зеленой экономики.

Ключевые слова. Зеленая экономика, эколого-экономическое образование, педагогические условия, экономический ущерб.

The article describes the pedagogical conditions of providing environmental and economic education to elementary school students, teaching them to use natural and economic resources wisely, and providing economic education to students in the context of a green economy.

Key words. Green economy, ecological and economic education, pedagogical conditions, economic damage.

Yashil iqtisodiyot muhitini mamlakatda rivojlantirishning eng ustuvor vazifalaridan biri bu atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ekologik va iqtisodiy g'oyani ya'ni kishilik jamiyatining tabiatni muhofaza qilish faoliyatini iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning maqsadlarga mosligini topish hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish xarajatlari va iqtisodiy zarar kabi ekologik xarajatlar nisbatlarini mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy jihatdan ko'rsatkichlar asosida tahlil etish natijasida ular o'rtasidagi asosiy farqning mavjudligi ayon bo'ladi. Bu jarayonda atrof-muhit ifloslanishining iqtisodiy yashilligi deb nomlanib, u tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy xarajatlarining muayyan zararning mos kelishini ko'rsatadi. Tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyatini anglab yetishda tabiatni muhofaza qilish xarajatlarini ijtimoiy zaruriy miqdorining baholash muhit sifatini saqlash uchun ketgan xarajatlarga nisbatan munosabatlarni belgilashda ko'rinadi.

Belgilangan tadbirlar davomida tabiatga yetkazilgan zararlar miqdori ham 2023-yilning 11-dekabrdan boshlab O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlarni yo'q qilganlik uchun undiriladigan jarimalar miqdori 10 baravarga oshirilganligi ham tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyatidan biri hisoblanadi. Xususan, bitta qor qoplonini yo'q qilganlik uchun O'zbekiston fuqarosidan BHMning 3 000 baravari (1 mlrd 20 mln so'm), xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslardan

esa 400 ming AQSh dollari undiriladi. Bundan tashqari, o‘simliklarni o‘sishdan to‘xtash darajasida shikastlantirish yoki yo‘q qilish bilan ularga yetkazilgan zarar uchun undiriladigan jarima miqdori ham 5 baravar oshirildi. Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklarga zarar yetkazilganlik uchun undiriladigan pul miqdori toifasiga ko‘ra bitta o‘simlik uchun quyidagicha hisoblanadi yo‘qolib ketayotgan – BHMning 10 baravari (3,4 mln so‘m); kamyob – BHMning 4 baravari (1 mln 360 ming so‘m); kamayib borayotgan – BHMning 2,5 baravari (850 ming so‘m). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-maydagi PF-81 son dfarmoni hamda “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror[1] mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi jadvallar orqali tanishib chiqamiz.

Toifasiga ko‘ra bitta o‘simlik uchun	Undiriladigan zarar miqdori, belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda (bitta o‘simlik uchun)
1 – yo‘qolib ketayotgan	**10**
2 – kamyob	**4**
3 – kamayayotgan	**2,5**

Yuqoridagi jadvallar bo‘yicha statistik ma’lumotlarimizda ko‘rinib turibdiki tabiatga yetkazilgan zararlar miqdorlari jadvallar orqali bilib olishimiz mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy rivojlanish tarafdorlari tabiatni muhofaza qilish tadbirlari xarajatlarini belgilangan me’yorlarni joriy etish asosida iqtisodiy natijalar bilan cheklaydi. Chunki bunday natijadorlikda erishishda tabiatni muhofaza qilish iqtisodiyotning real rivojlanishi imkoniyatlariga mos ravishda uncha katta bo‘lmagan xarajatlarni nazariy jihatdan asoslanishida va uning mohiyati esa uncha mukammal bo‘lmagan, juda uzoq davrlarda samara beradigan ekologik me’yorlarning ishlab chiqilishida ko‘rinadi va iqtisodiy baholanadi.

Ekologik noqulaylik natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy zararga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Aynan shu yondashuv doirasida ifloslantirish natijasida keladigan iqtisodiy zararni hisoblash usuli, tabiiy zaxiralardan foydalanganlik va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun to‘lovlarni hisoblash usullari va tabiatni muhofaza qilish faoliyati mezonlari ishlab chiqilgan.

Tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyatidan yana biri tabiatga yetayotgon zarar qanchaga tushyotganligi aniqlashdadir;

– iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan suv toshqini, yong‘in va qurg‘oqchilik asr oxiriga borib yiliga qanchaga tushushi ochiqlandi;

– o‘tgan yili AQShning g‘arbiy qismida rekord darajadagi issiqlik to‘lqini va qurg‘oqchilik Kaliforniya va Oregon shtatlarini qamrab olgan va har 2 shtat ham tarixidagi eng yirik yong‘inlarga sabab bo‘lgan;

– AQSH uchun $2 trillionga tushadi. Tabiatni muhofaza etish bo‘yicha mablag‘larning kam ajratilishi iqtisodiy rivojlanishning ekologik muammolarni yetarlicha bartaraf etmaydi va bu esa, albatta, o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatishi tabiiy. Rivojlangan mamlakatlarning ko‘p yillik tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, tabiatni muhofaza etish

[1] https://lex.uz/docs

va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha sarflanadigan xarajatlarning yetarligi atrof-muhitning ekologik jihatdan barqarorligini, biosferadagi jarayonlarni ijobiy kechishini va ustuvor iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashini ham tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyatini ko‘rsatmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish xarajatlari tabiatni muhofaza qilish tavsifidagi tadbirlar: atmosferani, suvni ifloslanishdan saqlash, yerlarni chiqindilardan tozalash va rekultivatsiya qilish, o‘rmon xo‘jaliklarini yuritish va boshqalarga ketadigan sarflardan iboratdir. Bunday jarayonlarni baholashda Qizil kitobga kiritilgan jonivorni ovlash narxi qanchaga tushishini birgalikda ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekistonda Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarni ovlash, ayniqsa, xorijlik ovchilar tomonidan ovlash oxirgi vaqtlarda sezilarli ko‘paygan. O‘zFAning 2022-yil 5-dekabrdagi xulosasida 8 bosh (4ta ovlashga, 4ta ko‘paytirishga) burama shoxli echki (morxo‘r) va 4 bosh Buxoro tog‘ qo‘yi (Urial)ga kvota ajratilgan.

Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslar mahalliy ovchilardan ko‘proq to‘laydi. Masalan, rus ovchilari otgan morxo‘r uchun $25 ming, Buxoro tog‘ qo‘yi uchun esa $10 ming miqdorda to‘lashi ko‘rsatilgan. Agar yovvoyi hayvon turlari vaqti-vaqti bilan ov qilinmasa, tabiiy yashash arealiga sig‘may, aholi yashash punktlariga kelib, insonlar hayotiga va sog‘lig‘iga xavf soladi. Shuningdek, boshqa hayvonlar arealining qisqarishiga olib keladi.[3] Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari xarajatlarining iqtisodiy samaradorligi ularni amalga oshirishga ketgan xarajatlar bilan erishilgan iqtisodiy natija o‘rtasidagi nisbatga bog‘liq bo‘ladi. Agar korxonalarning ham iqtisodiy, ham ekologik manfaatlarini e’tiborga oladigan bo‘lsak, dastlabki samara mahsulot hajmining ekologik me’yorlarga amal qilgan holda ortishi tushuniladi. Shuningdek, pirovard samara esa aholi turmush darajasi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishida ko‘rinadi.

Bu boradagi eng qulay variant atrof-muhit sifatining eng ustuvor vazifalaridan biri tabiatdan foydalanish tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyati namoyon bo‘ladi. O‘quvchilariga ekologik va iqtisodiy tarbiya berish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘ragatishda unchalik katta bo‘lmagan ekologik buzilishlar sharoitidagi tabiatni muhofaza qilish xarajatlarining ortishi, ulardan keladigan iqtisodiy zararning kamayishiga esa tabiatdan foydalanish tadbirlari oz asosiy vazifalarini belgilashi haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Amaliyotda o‘quvchilariga ekologik va iqtisodiy tarbiya berish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tadbirlarining miqyoslarini belgilashda mamlakat iqtisodiy salohiyatining darajasi, davlatning tabiatni muhofaza qilishni moliyalashtirish borasidagi imkoniyatlari, atrof-muhit ifloslanishining darajasi, yashil iqtisodiyot darajasi va bozor omillari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019-yildagi PQ-4477-son 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi 297-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida.

3. Vahobov A., Xajibakirov S., Xo‘jayorov Sh. “Yashil iqtisodiyot” Darslik. Toshkent .Unversitet

4. Internet saytlari

5. https://lex.uz/docs

Sitora BADRIDDINOVA,
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, “Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi” mutaxassisligi magistranti

CHIZMACHILIK MASHG‘ULOTLARINI ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH (Finlandiya Respublikasi ta'lim tizimi tajribasi asosida)

Annotatsiya

Maqolada chizmachilik mashg‘ulotlarini ta’lim uslublari asosida tashkil qilish va o‘quvchilarning chizmachilik darslaridagi bilish faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy AKT dasturlari o‘quvchilarning fazaoviy tasavvurni o‘stirishdagi ahamiyati to‘g‘risida tushunchalar berilgan. Shuningdek, Power Point va Auto CAD dasturlari orqali chizmalarni chizishga o‘rgatish bo‘yicha grafik ko‘rsatmalar ham berilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogika, dars, o‘qitish vositalari, Power Point, Auto CAD, bilish faoliyati, fazoviy tasavvur, geometrik shakl.

В статье даны представления об организации уроков рисования на основе образовательных стилей и развитии познавательной деятельности учащихся на уроках рисования, о значении современных ИКТ-программ в развитии пространственного воображения учащихся. Также предоставляются графические инструкции по обучению рисованию чертежей с помощью программ Power Point и auto cad.

Ключевые слова. Педагогика, урок, средстваобучения, PowerPoint, AutoCad,позна вательнаядеятельность, пространственноевоображение, геометрическаяфигура.

The article provides concepts on the organization of drawing classes on the basis of educational methods and the development of cognitive activity of students in drawing lessons, the importance of modern ICT programs in the cultivation of spatial imagination of students. Graphic instructions were also provided to teach drawing through the Power Point and Auto CAD programs.

Key words. Pedagogy, lesson, teaching tools, Power Point, Auto CAD, cognitive activity, spatial imagination, geometric shape.

Dunyodagi ko‘pgina mamlakatlarning taraqqiyot darajasi ta’limning qanchalik rivojlanganligi, yangi innovatsion texnologiyalarni ta’lim olish jarayonida qo‘llanilishi bilan o‘lchanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri ham ularning zamonaviy ta’lim tizimini qanchalik rivojlantira olganligiga bog‘liqdir.

Respublikamizda ta’lim islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda, kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ta’lim muassasalari talabalarida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kerakli ma’lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o‘rgatish hamda shu asosda ma’suliyatli yechimlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifa qilib qo‘yilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik ta’limining umumiy maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilib, o‘quvchilarning tabiat va texnikani ko‘rgazmali idrok

etishga, predmetlarning tuzilishini va fazoviy munosabatlarini chuqurroq bilishga, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan jarayonlar va hodisalarni sinchiklab o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, chizmalarni o‘qish va bajarish orqali o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri va mantiqiy tafakkurini, texnikaviy ijod, bunyodkorlik, loyihalash kabi sifatlarni rivojlantiradi. Maktabda chizmachilik ta’limining maqsadi o‘quvchilarni murakkab bo‘lmagan texnik chizmalarni bajarish, o‘qish va o‘z fikrini grafik tasavvurlar vositasida ifoda etishga o‘rgatishdan iborat.

O‘quvchilar chizmachilik asoslariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni chizmachilik ta’limi orqali egallashi lozim. Chizmachilik (grafika) fanining asosiy vazifasi axborotlarni grafik ko‘rinishda tasvirlashdan iborat. Grafika insonlarning vizual madaniyati savodxonligi sifatida qaralib, bugungi kunda texnika, texnologiya, ta’lim, tibbiyot, sanoat, loyihalash va dizayn kabi inson faoliyatining deyarli hamma sohalari amaliyotida keng qo‘llaniladi. Nisbatan kichkina hajmdagi grafik tasvirlar (chizmalar)ning juda katta hajmdagi axborotlarni uzatish imkoniyati mavjudligini va bu axborotlarda tasvirlanayotgan obyekt haqidagi hamma ma’lumotlarning to‘liq yoritilishini e’tiborga olsak, grafikani insonlarning kasbiy hamda kundalik turmushdagi muloqotlarida eng sodda va tabiiy vositalardan biri deb qarashimiz mumkin. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi chizmachilik fani o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini, ko‘z bilan chamalash, ko‘rish xotirasi, topqirlik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ham juda kattadir.

Har qanday fanni o‘qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar:

konsepsiya, ta’limning metodik tizimi va ular ta’siri natijalarini baholashdan iborat.

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjuddir. Hozirgi vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari auditorivadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkiletishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi. Bular individual, sinf-darsli, ma’ruza-seminar turlaridir.

O‘qituvchi chizmachilik mashg‘ulotlarini ta’lim uslublari asosida tashkil qilishda o‘quvchilarning dunyo qarashlari darajasi, darslik yoki ilmiy-ommabop va texnik adabiyotlardan mustaqil o‘qib o‘rganish imkoniyatlariga tayanadi.

Pedagogikada darslarning har xil turlariva o‘qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan:

- yangi materialni o‘rganish darsi;
- bilim, ko‘nikma va malakalami mustahkamlash darsi;
- takrorlash-umumlashtirish darsi;
- aralash yoki kombinatsiyalashgan dars.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi aralash yoki kombinatsiyalashgan darsdir. Bunda o‘qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar tomonidan amaliy ishlani bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Kompyuter grafikasining rivojlanishi bilan o‘qvchilar o‘rtasida qo‘lda yuqori sifatli chizma bajarishga qiziqish birmuncha kamayib boshlaganiligini kuzatishimiz mumkin. O‘quvchilar kompyuterda ishlash malakalarini va proeksion chizmachilik asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lsalargina Power Point va Auto CAD grafik dasturlari asosida chizmalar bajarishni tez egallashlari mumkin.

Shu munosabat bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining chizmachilik darslarida

o‘quvchilarni bilish faoliyatini Power Point va Auto CAD dasturlari orqali faollashtirish muammosi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarini bilish jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan, bilish va amaliy faoliyat o‘rtasida qanday munosabatlar mavjudligi qiziqtirib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy“Geodeziya” asarida 69 ta chizmaning illyustratsiya tarzida berilishi chizmalar mohiyatini juda qadimdan tan olinganligini bildiradi. Beruniyning matematikaga tegishli “Trigonometrik funksiyalarni soddalashtirish”, “Yulduzlarni tekislikda tasvirlash”, “Sferik yoyni aniqlash haqida”, “Sfera nuqtalarini tekislikda tasvirlash”, “Evklid ishlariga izohlar” kabi asarlari ham grafika bilan bevosita bog‘liqdir. Bilish jarayoniga olim Abu Nasr al-Forobiy alohida ahamiyat bergan. U o‘zining “Aql ma’nolari to‘g‘risida”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarlarida insonlarning bilimga bo‘lgan intilishlarini har tomonlama keng yoritishga harakat qilgan. Al Farobiy (873 – 950) o‘qituvchi haqida gapirib, “O‘qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur.O‘qituvchi faqat o‘z fani bilangina shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini o‘z o‘quvchilariga ham berishi, bunday mashaqqatli mehnatdan charchashni bilmasligi lozim” degan edi.[1]

Bu o‘rinda Abu Ali ibn Sinoning aql taraqqiyoti bosqichlari haqidagi fikrlari qiziqish uyg‘otadi. Unda uchta bosqich belgilanadi: birinchi bosqich – aqliy idrok bo‘lib, unda aqliy kategoriyalar tushuniladi. Ikkinchi bosqich – ikki tomonlama idrokdir. Uchinchi bosqich – fikran idrok qilinadigan bilimlar o‘zlashtirib olinganda namoyon bo‘ladi.

Yaqin va o‘rta sharq qomusiy olimlarining pedagogik qarashlari tahlili bu qarashlarning yaxlitligini, ularning ilmiy bilish, insonga bo‘lgan munosabat va uning amaliy faoliyati shakllanishi va rivojlanish usullari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning chizmachilik darslarida bilish faoliyatini faollashtirish uchun turli grafik ishlar bajarish, Power Point va Auto CAD dasturidan foydalanish orqali ta’sir ko‘rsatish mumkin. Bir tomondan, chizmachilik darslarida Power Point va Auto CAD dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning tasviriy tafakkurining rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa ijodiy qobiliyatini va mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning chizmachilik darslarida Power Point va Auto CAD dasturlari asosida ijodiy qobilyatlarini, fazoviy tasavvurini, tafakkurini rivojlantirish sohasida bajariladigan ishlarni yanada takomillashtirishda o‘quvchilarning o‘quv ishlarini ratsional tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘quvchilarni faqat bilimlar sistemasi bilan ta’minlabgina qolmay, balki ularda fikrlash orqali Power Point va Auto CAD dasturlari asosida turli grafik chizmalarni chizish grafik topshiriqlarni amaliy bajarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fanini o‘qitishning asosiy aqsadi o‘quvchilarni murakkab bo‘lmagan texnik chizmalarni bajarish, uni o‘qish va o‘z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o‘rgatishdan iboratdir. Chizmachilik darslarida AKTdan foydalanib o‘quvchilarni fazoviy tasavvurni rivojlantirish va ijodiy jarayonga yo‘naltirish yo‘llari quyidagi mazmunda bo‘ladi:

Birinchidan, Power Point va Auto CAD dasturlari asosida taqdimot tayyorlanib, biror detalning chizmasini yasash va uning berilgan chizmasini o‘qishga doir topshiriqni bajarish orqali ularga tanish bo‘lgan detalning geometrik shaklini fikran aniq tasavvur qila bilish qobiliyatini rivojlantirish;

Ikkinchidan, Power Point va Auto CAD dasturlari asosida o‘quvchilarning fazoviy


[1] https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-nasr-forobiy-873-950/

tasavvur bazasini kengaytirish. Chizmachilik fanidan o‘quv topishiriqlarni bajarish jarayonida fazoviy tasavvurlarning to‘plangan zaxiralari asosida Power Point va Auto CAD dasturlarida animatsiyalardan foydalanib, ijodiy masalalar tuzish va uning yechilish yo‘lini ketma-ketlikda bajarishga asoslanadi.

O‘quvchilarning chizmachilik faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda grafik vazifalar katta rol o‘ynaydi. Power Point va Auto CAD dasturlarida chizmachilik fanini o‘qitishda grafik tasvir bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning hammasi grafik masalalar deyiladi. Grafik vazifalar mavzular bo‘yicha optimal darajada ishlab chiqilgan sistemadan iborat bo‘ladi. O‘quv dasturida ko‘rsatilgan umumiy xarakterdagi grafik vazifalarni murakkabligiga qarab aniqlashtirish lozim.

Masalan: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 8-sinf uchun chizmachilik fanidan “Proeksiyalash asoslari” bobi bo‘yichaPower Point dasturida elektron qo‘llanmaning animatsiyali ko‘rinishlarni quyidagi tartibda tayyorlash va chizmachilik darsi jarayonida qo‘llash mumkin.

Power Point dasturidan foydalanish orqali 1-jadvalda berilgan modelning yaqqol tasviri asosida 3-ta (H-gorizantal, V-frontal, W-profil) ko‘rinishlarini o‘quvchilarning ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirish uchun turli xil ranglar bilan animatsiya bo‘limidan foydalanib ishlab chiqiladi. (1-rasm).




Kurinish	A	Б	В	Г	Д
H-gorizantal	6				
V-frontal	12				
W-profil	3				

1-rasm. Power Point dasturida berilgan modelning yaqqol tasviri asosida 3-ta ko‘rinishlarini ishlab chiqish.

Masalan: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fanidan 9-sinf uchun “Kesim va qirqim” bobi bo‘yicha Auto CAD dasturlarida ko‘rinishlarni quyidagi tartibda tayyorlash va chizmachilik darsi jarayonida qo‘llash mumkin.

Muhandislik grafikasi chizmalarida qirqimlar buyumlarning ichki tuzilishini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Buyumni hayolan tekislik bilan kesganda kesuvchi tekislik kesib o‘tgan joy va uning orqasidagi tasviri qirqim deb ataladi.

Masalan, 9-sinfda qirqimlar mavzusi o‘quvchilar tomonidan qanday darajada o‘zlashtirilganligi, nazariya va amaliyot birligi qanday darajada uyg‘unlashganligini tahlil qilish maqsadida qirqim talab qiladigan chizmalar Auto CAD dasturida chizilgan chizmalar orqali taqdim etiladi. Geometrik detalning yaqqol tasvirida aylana teshik hosil qilish va aksonometriyada qirqim bajarish bo‘yicha berilgan chizma-topshiriq o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash uchun qayta bajariladi. (2-rasm).



